

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

MAGISTRATURA BO'LIMI

AMINOVA SAYYORA ANVAR QIZI

**“QASHQADARYO VILOYATINING TURIZM RESURSLARIDAN
FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH”**

Mutaxassislik:71010401 –Turizm (faoliyat turlari bo'yicha)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA.

Ilmiy rahbar.

i.f.f.(PhD)dots.Sh.X.Muxitdinov

2024 yil

Qarshi-2024

MUNDAREJA

KIRISH

3

I BOB.	TURIZM RESURSLARIDAN FOYDALANISH MEHANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI	
1.1	Turizm resurslaridan foydalanish mehanizm tushunchasining mohiyati va o'ziga xos jixatlari	9
1.2	Turizm resurslaridan foydalanishning tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari.	23
1.3	Turizm resurslaridan foydalanishning rivojlangan mamlakatlar tajribasi va mamlakat turizm sohasida qo'llanilishi	36
II BOB.	QASHQADARYO VILOYATI TURIZM RESURSLARIDAN FOYDALANISH HOLATI TAHLILI.	
2.1	Qashqadaryo viloyatida turizm resurslarini imkoniyatlari va samaradorligini oshirish modellari.	45
2.2	Qashqadaryo viloyati turizm resurslarining hozirgi holati va rivojlanish dinamikasi.	50
2.3	Turizm industriyasida turizm resurslaridan foydalanishning samaradorlik tahlili.	59
III BOB	QASHQADARYO VILOYATIDA TURIZM RESURSLARINI MODERNIZATSİYALASH ORQALI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH İSTİQBOLLARI.	
3.1	Qashqadaryo viloyatida turizm resurslaridan foydalanib samaradorlikni oshirish yo'llari.	68
3.2	Turizm sohasini modernizatsiyalash sharoitida turizm xizmatlar bozorini raqobatbardoshliligini oshirish yo'llari.	75
3.3	Qashqadaryo viloyatida turizm resurslarining foydalanishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojrantirish istiqbolini belgilash.	89
XULOSA		89
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI		93

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji. Bugungi kunda turizm jahon iqtisodiyotining eng rivojlanayotgan sohalaridan biriga aylanib bormoqda. O‘zbekiston juda katta turistik potensialga ega. Mamlakatimiz nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun jahonda ham turizmnинг markazlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, turizm investitsiyalarni faol jalb etish, valyuta tushumlarini kopaytirish hamda aholi bandligini oshirishni rag batlantiradi. World Travel & Tourism Council (WTTC) ma lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda Turizm sohasida ko‘rsatilayotgan xizmatlar ulushi jahon YaIM ining 9,2 foizini tashkil qilib, sohada 289 mln. kishi bandligini ta minlagan. Jahon bo‘yicha har 11 ish o‘rni aynan turizm sohasiga taalluqli¹. Shu bois, turistlar oqimini oshirish muayan hududning tarixiy-madaniy, tabiy-iqlim, rekreatsion-ekologik jozibadorligi, siyosiy xayrixohlik darajasi, mutaxassislar salohiyati, turistik infratuzilma va xizmatlar sifatli yo‘lga qo‘yanligi bilan belgilandi. Shu jihatdan bugungi kunda jahonda turistik resurslaridan samarali foydalanish va turizm sohasini an’anaviy hamda innovatsion rivojlantirish masalalariga katta e’tibor berilmoqda.

Jahonda turistik resurslaridan samarali foydalanish asosida O‘zbekiston xorijiy mehmonlarni jalb qilishda bir necha turdag‘i turistik resurslarga ega: (gohida faqat O‘zbekistonda uchraydigan) hayvonot va o‘simgiklar olamiga boy bo‘lgan cho‘l va qo‘riqxonalar, turizmnинг faol ravishda rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan tog‘ qirralar va daryolar, dunyoda uchramaydigan shifobahsh suvning mineral manbalari, faqat O‘zbekistonda uchraydigan amaliy san’atning an’anasi va o‘ziga xos madaniyatga egadir. Respublika hududida ekologik turizmni rivojlatirish uchun g‘oyat qulaydir. Bu borada mamlakatning tog‘li hududlarida joylashgan, zamonaviy jihozlangan sayyohlik majmularida qishki va noyob sayyohlik dasturlari tashkil etilgan. Mamlakatimizda turizmni shakllanishi va rivojlanishi turistik resurslarning salohiyatiga bog‘liqdir. Turizm respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi, sanoat, transport va boshqa makroiqtisodiy tarmoqlar qatori o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lishiga

¹ Travel&Tourism Economic Impact | World Travel & Tourism Council (WTTC)

erishishimiz hozirgi kunning asosiy vazifasidir. Magisterlik dissertatsiyasida Qashqadaryo viloyatida mavjud turistik resurslardan samarali foydalanish yollarini o’rganib mahalliy, ichki va tashqi turistik oqimni ko’paytirish yo’llarini o’rganish va qo’llash orqali mamlakat iqtisodini oshrish, yangi ish orinlarni yaratish, aholining bandligini taminlash, turistik xizmat korsatish darajasini yaxshilash, turistik resurslardan foydalanish imkoniyatlarini organish dissertatsiya dolzarbligidir. Jahan iqtisodiyotida turizm tarmog‘ini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan qator yo‘nalishlarda ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Bular turizm resurslaridan foydalanishning dunyo miqyosida tarmoq sifatida shakllanish tarixi va uning rivojlanish bosqichlari, turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni, sohani rivojlantirish omillari, ularning tasnifi va tavsifi, turizmni rivojlantirishda reklamaning o‘rni, turizmda xizmatlarning soni va sifati hamda aholi farovonligini yaxshilashdagi roli, sohani rivojlantirish va samaradorligini oshirish istiqbollarini belgilash kabilardan iborat. Ushbu yo‘nalishlar turizm tarmog‘ini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillash-tirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon iqtisodiy-ijtimoiy hayotida turizm resurslaridan foydalanish tarmog‘i muhim o‘rinni egallab kelmoqda. Uning dunyo miqyosidagi o‘rni va roli yildan-yilga o‘sib borayotgan bo‘lib, bugun ushbu soha dunyo aholisining ko‘plab qismini o‘z doirasiga birlashtirdi. Butunjahon turizm tashkiloti (BTT)ning ma’lumotlariga ko‘ra, 1950 yilda xalqaro turistlar soni 25 million, 1980 yilda 278 million, 1995 yilda 528 million va 2017 yilda 1 milliard 400 million kishini tashkil etgan va bu ko‘rsatkich 2030 yilga kelib 1 milliard 800 million kishiga yetishi bashorat qilinmoqda². Ushbu ko‘rsatkichning mamlakatimizda ham jadal o‘sishi ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasiga 2018 yil 1977,0 ming kishi turistlar tashrif byurgan bo‘lsa 2021 yilda ushbu ko‘rsatkich 6748,0 ming kishini tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich Qashqvadaryo viloyatida 2021 yilda 1243,8 ming kishi bo‘lib

² UNWTO Tourism Highlights 2017 Edition.

mamlakatimizda uning ulushi 6,98 %ni tashqil qilmoqda. O‘zbekistonga 2023-yilning yanvar—iyul oylarida jami 3,7 million nafar chet el fuqarolari turistik maqsadlarda tashrif buyurdi. Bu haqda Statistika agentligi xabar berdi.Qayd etilishicha, O‘zbekistonga 7 oyda eng ko‘p Tojikiston fuqarolari turistik maqsadda tashrif buyurgan — 1 million 151,4 ming nafar. Undan keyingi o‘rinda Qirg‘iziston (912,8 ming) va Qozog‘iston (879 ming) turibdi. 2020-yilda mamlakatga 7 million nafardan ortiq xorijiy sayyoh tashrifi kutilgandi. Biroq og‘ir pandemiya sharoitida barcha sohalar qatori turizm ham qattiq zarbaga uchradi, sayyoohlар soni sezilarli darajaga kamaydi. Ya’ni 2020-yilda respublikaga 1,5 million nafar sayyoh kelgan, 261 million dollarlik turizm xizmatlari eksport qilingan.³ Turizmni yanada rivojlantirish bizning oldimizda to‘rgan asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlaganidek, **turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog‘iga aylantirish biz uchun ustuvor vazifa bo‘lib qoladi.**

Yurtimizda 8 ming 200 dan ziyod madaniy meros ob’ekti mavjud bo‘lib, turizm marshrutlariga ularning atigi 500 tasi kiritilgan⁴. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida gi PF-4861-som farmoni, 2017 yil 7 fevraldagagi O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida gi PF-4947-som farmoni, 2018 yil 3 fevraldagagi O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘srimcha tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida gi PF-5326-som farmoni, 2018 yil 6 fevraldagagi Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida gi PQ-3509-som qarori, 2018 yil 7 fevraldagagi Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida gi PQ-3514-som qarori, 2019 yil 5 yanvardagi turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida gi PQ-4095-som qarori, Vazirlar Mahkamasining 1 martdagisi.2021 yildagi «Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini yanada qo‘llab-quvvatlash va

³ (https://t.me/statistika_rasmiy/3923)

Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, Xalq so‘zi, 24.01.2020 yil

rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 112-son qarori va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur magistirlik dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning ob’ekti. Qashqadaryo viloyati turizm boshqarmasi turizm sohasi va undagi barcha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti. Turizmda turizm resurslaridan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini tadqiq qilish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar o’rganish.

Tadqiqotning maqsadi Turizm xizmat korsatish soxasida turizm resurslaridan foydalanishni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari

Turizm xizmat korsatish soxasida turizm resurslaridan foydalanishni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy omillarini tadqiq qilish orqali soha samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish, mavzuga oid atama va tushunchalar mohiyatini yanada aniqlashtirish;

Turizm xizmat korsatish soxasida turizm resurslaridan foydalanish bo‘yicha jahondagi ilg‘or tajribalarni o’rganish va mamlakatimizda qo‘llash bilan bog‘liq ilmiy tavsiya va takliflarni ishlab chiqish;

- Turizm resurslaridan foydalanish mehanizm tushunchasining mohiyati va o’ziga xos jixatlarini aniqlash;
- Turizm resurslaridan foydalanishning tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari hamda rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o’rganish va mamlakat turizm sohasida qo’llanilishi;
- Qashqadaryo viloyatida turizm resurslarini imkoniyatlari va samaradorligini oshirish modellarini o’rganish;
- Qashqadaryo viloyati turizm resurslarining hozirgi holati va rivojlanish dinamikasini organish;

- Turizm industriyasida turizm resurslaridan foydalanishning samaradorlik tahlili;

Tadqiqotda qo'llaniladigan metodikaning tavsifi. Magistrlik dissetatsiya ishida taqqoslash, statistik guruhash, qiyosiy tahlil qilish, iqtisodiy tahlil, SWOT tahlil qilish usullaridan keng foydalanish nazarda tutilgan.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi. Turizmni tarmoq sifatida tan olish va uni nazariy jihatdan o'rganishga asosan XXasrning oxirlari, XXIasr boshlarida katta ahamiyat berildi. turizmni rivojlantirishning nazariy, uslubiy va tashkiliy masalalari xorijlik Robin Dj.B.Richi, Larri Duayer, Gan Li,V.S.Bogolyubov, V.P.Orlovskaya, M.B.Birjakov, A.Durovich, N.I.Kabushkin, V.A.Kvartalnov, V.S.Senin, T.T.Xristov, A.D.Chudnovskiy, V.G.Fedsovabi⁵olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan.

Respublikamiz olimlaridan N.Tuxliev, T.Abdullaeva, A.Taksanov, M.Q.Pardaev, R.Atabaev, I.S.Tuxliev, G'.H.Qudratov, M.E.Po'latov, Q.J.Mirzaev, Sh.A.Sultonov, E.Shavqiev, X.M.Mamatkulov, A.Bektimirov, A.N.Norchaev, O.H.Hamidov, B.X.To'raev, B.Sh.Safarov, N.E.Ibadullaev, M.T.Alimova, D.Z.Norqulova, M.T.Alievakabilar⁶ ilmiy izlanishlarida turizmni rivojlantirishning ilmiy-nazariy va uslubiy muammolari tadqiq qilingan.

⁵ J.R.Brent Ritchie. Tourism experience management research: Emergence, evolution and future directions. [International Journal of Contemporary Hospitality Management](#) 23(4):419-438. May 2011.; Larry Dwyer, [Renata Tomljenovic, Sanda Corak](#). Evolution of destination planning and strategy. The rise of tourism in Croatia. 2016. – P.302.; Gang Li. Introduction to the Special Focus: Tourism forecasting - New trends and issues. [TourismEconomics](#). December 2018.; Боголюбов В.С., Орловская В.П. Экономика туризма. М.: 2005. – 151 б.; Биржаков М.Б. Введение в туризм. СПб.: Издательский Торговый Дом «Герда», 2006 г.; Дурович А.П. Организация в туризме. – СПб.: Питер, 2009. – 320 б.; Кабушкин Н.И. Менеджмент туризма. Минск: 2002. – 407 б.; Квартальнов В.А. Туризм: Учебник. - М.: Финансы и статистика, 2003.-320 б.; Сенин В.С. Организация международного туризма. М.: «Финансы и статистика» 2004, - 379 с.; Христов Т.Т. Религиозный туризм: учебное пособие. — 3-е изд., испр. — М.: Издательский центр «Академия», 2007. — 288 с.; Чудновский А.Д. Управление индустрией туризма России в современных условиях: учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2007. - 416 с.; Федцов В.Г. Культура гостинично-туристического сервиса: учебное пособие. – Ростов н/Д : Феникс, 2008. – 503 с.

⁶ Tuxliev N., Abdullaeva T. Menedjment i organizatsiya biznesa v turizme Uzbekistana. –T.: Gos. Nauch. Izd-vo “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006. – 386 b.; Tuxliev N., Abdullaeva T. Ekologicheskiy turizm: siqnost, tendensii i strategiya razvitiya. – T.: Gos. Nauch. Izd-vo “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006. – 416 b.; Tuxliev N., Abdullaeva T. Natsionalnyle modeli razvitiya turizma. –T.: Gos. Nauch. Izd-vo “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006. – 386 b.; Tuxliev N., Taksanov A. Ekonomika bolshogo turizma. T.: «O’zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2001.- 208 s.; Tuxliev N., Abdullaeva T. Uslugi, texnologii i produkty v turizme.-T.: Gos. Nauch. Izd-vo “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2009 – 624 s.; Tuxliev N., Abdullaeva T. Formalnosti v sisteme v turizme Respublikni Uzbekistan.-T.: Gos. Nauch. Izd-vo “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2007 - 504 s.; Pardaev M.Q., Atabaev R., Pardaev B.R. Turizmni rivojlantirish imkoniyatlari. - T.: “Fan va texnologiya”. 2007. 32 b.; Tuxliev I.S. Turizm asoslari. Samarqand, SamISI. 2008. - 226 b.; Tuxliev I.S., Qudratov G'.H., Pardaev M.Q.

Ammo, yuqorida tilga olingan olimlar izlanishlarida turizm sohasini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari, uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar keng yoritilganligiga qaramasdan, turizmni alohida tarmoq sifatida yaxlit holda rivojlantirish, uning milliy iqtisodiyotdagi o‘rnini aniqlash bilan bog‘liq masalalar yetarlicha o‘rganilmagan. Turizmning hududlar rivojlanishiga ta’siri bilan bog‘liq masalalar ham iqtisodiy adabiyotlarda kam yoritilgan. Bunday holat mamlakatimizda turizm tarmog‘ini rivojlantirish bilan bog‘liq muammolar hamda ushbu tarmoqning milliy iqtisodiyotga ta’sirini kuchaytirish bo‘yicha chuqur ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi. Bular mazkur tadqiqotning asosiy yo‘nalishlarini, maqsad va vazifalarini belgilash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiytadqiqot ishlari rejali bilan bog‘liqligi. Magistirlik dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat universitetining “Iqtisodiyot” fakulteti “Turizm va marketing” kafedrasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Dissertatsiya ishida ilmiy tadqiqot olib borish natijasida kutilayotgan ilmiy yangilik natijalari quyidagicha:

1. Turizm xizmat korsatish soxasida turizm resurslaridan foydalanishning qo‘sishma xizmatlardan foydalangan sarf xarajatlarini qo‘sib turizm sohasining hudud va mamlakat yalpi ichki mahsulotdagi ulushini aniqlash usuli takomillashtirilgan;

Turizmni rejalashtirish. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2010. - 264 b.; Tuxliev I.S., Pardaev M.Q. Turizm bozorining shakllanishi, rivojlanishi va o‘ziga xos xususiyatlari. – T.: “NOSHIRLIK YOG'DUSI”, 2010. – 76 b.; Po‘latov M.E., Mirzaev Q.J., Sultonov Sh.A., Shavqiev E. Global iqtisodiy rivojlanish (turizm iqtisodiyoti). O‘quv qullanma. T.: Fan va texnologiya, 2018. – 296 bet.; Mamatkulov X.M., Bektemirov A.B., Tuxliev I.S., Norchaev A.N. Xalqaro turizm. Darslik. T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2009. – 192 b.; Matqulov X.M. Turizm va servisga oid izohli lug‘at. Samarqand, SamISI, 2010. – 362 b.; Norchaev A.N. “Xalqaro turizm rivojlantirishning iqtisodiy o‘sishga ta’siri”. **Iqt. fan. diss.** TDIU, 2004 y. - 120 b.; **Hamidov O.** O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. I.f.d.diss. avtoref. - Samarqand, 2017.; Turaev B.X. Teoretika – metodologicheskie osnovы razvitiya turizma. T.: izd. «Fan», 2008. – 166 s.; Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari // Monografiya. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. - 184 b.; **Ibadullaev N.** Turistik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari (Samarqand viloyati misoldida). **Iqt. fan. diss. avtoref.** - **Samarqand, 2010.**; Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari. Monografiya. Iqtisodiyot, - Toshkent, 2015. – 300 b.; Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari // doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand SamISI, 2017. – 96 b.; Norqulova D.Z. O‘zbekistonda sotsial turizm xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish // iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand SamISI, 2018. – 65 b.; Alieva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari. Monografiya. – T.: “Fan” nashriyoti, 2013. – 240 b.;

2. Qashqadaryo viloyatidagi madaniy me’ros ob’ektlari va muzeylarda qo’shimcha xizmatlarni joriy qilish asosida turistlarning turkunlarini uzaytirish evaziga turistik xizmatlar samaradorligini oshirish mexanizmi takomillashtirilgan;

3. Turizm xizmat ko’rsatish soxasida turizm resurslaridan foydalanish tushunchalarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini innovatsion rivojlanish talablaridan kelib chiqgan holda tadqiq etiladi.

4. Hudud iqtisodiyotini yuksaltirish va turizm infratuzilmasi ob’ektlarini qurish maqsadida bo’sh turgan yer maydonlarini xususiy va xorijiy tadbirkorlarga aniq investitsion majburiyatlar asosida elektron kimoshdi savdosi o’tkazilmagan holda to‘g’ridan-to‘g’ri ajratish tartibi ishlab chiqilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

- Turizm sohasida iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni aniqlashda qo’llaniladigan ko’rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan va ularni baholash orqali tarmoqni rivojlantirish yo’llari ko’rsatib berilgan;
- Turizmnинг mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘rnini baholash yo’llari takomillashtirilgan, ularni ifodalovchi ko’rsatkichlar ishlab chiqilgan va ular asosida yagona kompleks ko’rsatkichni aniqlash usuli ko’rsatib berilgan;
- Turizmda samaradorlik o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar, ularning tasnifi va baholash yo’llari ko’rsatib berilgan, tarmoqda samaradorlikni oshirish bo‘yicha tegishli takliflar asoslangan va boshqaruv qarorlarini qabul qilishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan;
- Turizm resurslaridan foydalanib turizmni rivojlantirish orqali aholi bandligini ta’minlash va farovonligini oshirishni prognozlashtirish yo’llari ko’rsatib berilgan;
- Iqtisodiyotning rivojlanishida turizm resurslarining roli va mos ravishda uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar aniqlangan, ularni to‘rtta guruhga bo‘lib hisoblash usullari ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati turizmda turizm resurslaridan foydalanish tarmog‘ini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy omillarini, uning iqtisodiyotdagi o‘rnini

baholash, soha istiqbolini belgilashning ilmiy-nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish, maqsadli ilmiy izlanishlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Mazkur ilmiy tadqiqot Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti tarix fakulteti qoshidagi AL- 662205481 sonli “Qashqadaryo vohasi tarixiy va madaniy yodgorliklari, ekoturizmiga oid ziyoratgohlarning "i-turism" platformasini ishlab chiqish” mavzusidagi 2024-yil 3-yanvardan 31-dekabrgacha mo‘ljallangan amaliy loyiha doirasida bajarildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati turizm tarmog‘ini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy omillarini baholash yuzasidan uslubiy va amaliy yo‘nalishdagi ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan sohaga oid istiqbolli reja va dasturlarni tayyorlash, mavjud holatni baholash va samaradorlikni oshirish bo‘yicha ustuvor vazifalarni belgilash hamda investitsiyalarni maqsadli yo‘naltirish, shuningdek tegishli oliy o‘quv yurtlari ta’lim jarayonida foydalanishi bilan belgilanadi.

Dissertatsyaning tuzilishi va hajmi. Magistirlik dissertatsiya tarkibi kirish 3 bet, uchta bob: 1-bob 36 bet, 2-bob 23 bet, 3-bob 23 bet , xulosa 4 bet , foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati 8-bet va ilovalardan iborat.

I BOB: TURIZM RESURSLARIDAN FOYDALANISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI.


1.1 Turizm resurslaridan foydalanish mexanizm tushunchasining mohiyati va o‘ziga xos jixatlari.

Hozirgi globallashuv sharoitida Hududning turistik resurslari tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini to’g’ri talqin etish va uning mazmunini ozlashtirish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda xorijiy hamda mahalliy olimlarimiz tomonidan Hududning turistik resurslari tushunchasini tadqiq qilish bo yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. *Hududning turistik resurslari* deb - tabiiy, tarixiy, ijtimoiy-madaniy hamda ko’rgazma obyektlari orqali turistlarning ma naviy va ma rifiy ehtiyojlarini qondira oladigan, ularning sayyohlik maqsadlarini amalga oshirish, jismoniy kuchlarini tiklash va rivojlantirishga yordam beradigan, turizm sohasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi turistik mahsulotlar majmuidir.

Hududiy turizm resurlaridan samarali foydalanish hudud rivojlanishining umumiy iqtisodiy vaziyatiga ijobiy ta sir korsatadi. Buning natijasida yangi ish orinlari yaratish, qo’shimcha moddiy resurslarni iqtisodiy aylanmaga jalb qilish, yangi turizm obyektlarini qurish, investorlarni jalb qilish, savdo aylanmasini oshirish imkoniyati kengayadi.

Turistik xizmatlar bozorini iste molchilarining talablarini va turistik firmalarning takliflarini, ularning afzalliklarini o’rganish turistik xizmatlar turlari, shakllari bo yicha hududiy turizmni rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Darhaqiqat, viloyatda turizm boshqarmasini tuzish maqsadga muvofiq bo'lib, u hududiy turizm boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha kompleks dasturlarni ishlab chiqadi, shahar va tuman ma muriyatlari, boshqa davlat va nodavlat tashkilotlar bilan aloqalarni o'rnatadi. Jahon turizmi bugungi kunda iqtisodiyot sohalari ichida daromad keltirishi bo'yicha eng yuqori o'rnlardan birini egallaydi, mehnatga layoqatli aholini ish bilan bandllagini ta'minlab, ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini yuqori bo'lishini korsatadi va shu jihatdan ham u har doim rivojlanishga moyil. Shuning hisobiga u yoki bu mamlakatga turist sifatida tashrif buyuruvchilar soni yildan yilga ko'payib bormoqda.



1.1.1-rasm. Viloyatda turizmn ni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvinning tuzilmasi.⁷

Shuning uchun ham turizm sohasi jadal rivojlanayotgan mamlakatlarda, birinchi navbatda, bu sohani harakatga keltiruvchi mavjud turistik resurslardan samarali foydalanish yo'llarini qidirlmoqda va uni barqaror rivojlanish

⁷ Muallif ishlanmasi.

jarayonlariga e'tiborini qaratilmoqda. Hamda bu jarayon har doim o'zining ob'ektiv va sub'ektiv rivojlanish qonuniyati mavjud bo'lib, undan maqsadli foydalanish lozim bo'ldi. Bunga amal qilgan ko'pgina mamlakatlarda turizmning rivojlanishi yuqori samara berib keldi. Mustaqillikning dastlabki davrlaridan boshlab, O'zbekistonda ham turizmni shakllantirishga va rivojlantirishga qaror toptirishga katta ahamiyat berilib, bu jarayonda turistik resurslardan, ayniqsa mintaqa xududlarida mavjud bo'lgan salohiyatdan samarali foydalanish yo'l yo'riqlari qidirilmoqda va uning imkoniyatlari o'rganilgan. Turizm ham respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi, sanoat, transport va boshqa makroiqtisodiy tarmoqlar qatori o'zining munosib o'rniga mavjud bo'lishi uchun yetarlicha resurslarga ega. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari ichida yetakchi hisoblanadi. Respublikamiz tarixiy, arxeologik, arxitektura, san'at, musiqa va boshqa turistik resurslarga boy hisoblanadi. Bundan tashqari mamlakatimizning betakror tabiat, tog' va tekislik, daryolari, cho'l va vaholari, ko'p va turli landshaft zonalari asosiy rekreatsiya resurslaridir. Mamlakatimizda yosh tarmoq hisoblangan turizm, kundan kunga rivojlanib kelmoqda. Bu esa, ko'pgina ish o'rinni ochish imkoniyati mavjudligini bildiradi. O'zbekistonda tarixiy madaniy, arxitektura, arxeologiya ahamiyatidagi 7 mingdan ortiq ob'ektlar mavjud. Ekspert B. To'raev fikricha ulardan 545 tasi – arxitektura, 578 tasi – tarixiy, 1457 tasi – san'at yodgorliklari va 5500 dan ortig'I arxeologik ahamiyatiga jalb etilgan. 200 dan ortiq ob'ektlar ta'mirlanmoqda, 500 tasi esa ta'mirlanishga muhtoj. Ko'p mamlakatlar tajribasiga ko'ra, ta'mirlanish jarayonini o'zi turistlar uchun qiziqarli hisoblanadi. Undan tashqari respublikamizda 300 dan kop muzeylar, 1200 ta xalq ijodiyoti tashkilotlari mavjud.

1.1.1-jadval.

O'zbekistonda turizmning alohida yo'nalishlari bo'yicha turistik aylanmaga kiritilgan turizm resurslari salohiyati ko'rsatgichlari⁸.

<i>Nº</i>	<i>Tarixiy ob'ektlar turkumi bo'yicha bo'linishi</i>	<i>Soni</i>
1	arxitektura	545 ta –
2	tarixiy	578 ta

Muallif ishlanmasi⁸

3	san'at yodgorliklari	1457 ta
4	arxeologik	5500 dan ortig'
5	ta'mirlanish jarayonidagi obektlar	200 dan ortiq
6	ta'mirlanishga muhtoj.	500 ta
7	muzeylar,	300 dan ko'p
8	xalq ijodiyoti tashkilotlari	1200 ta

Turistik ziyorat ob'ektlari miqdori bo'yicha Toshkentda 144 ta, Samarqandda 118 ta, Buxoroda 201 ta, Xiva 310 tani tashkil etadi. Ammo asosiy turistik resurslarimizdan turizm maqsadida foydalanish tashkil etilmagan. Shu sababdan milliy madaniy va tabiiy merosimizni turizm faoliyati maqsadida har jihatdan o'rganish va muhofaza etish o'tamuhimdir.

Dissertatsiya ishida hududlarning turistik salohiyatini baholash metodologiyasini tizimlashtirish, shuningdek, hududlarning turistik salohiyatini kompleks baholash imkoniyatidan toliq foydalanish maqsadida tasodifiy ko'satkichlar:

- budjet soliq salohiyatining shakllanishi va foydalilishi,
- hududlarning sanoatlashuv darajasi,
- investitsiyalarni jalg etish jozibadorligiga,
- hududda faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning turistik resurslar bilan taminlanganlik darajasi,
- hudud aholi real umumiylar daromadlari darajasi va
- har bir hududning o'z xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta sir etuvchi omillarga etibor qaratish kerak.

YuNESKOning «Butunjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish» konvensiyasida har bir davlat o'z hududidagi madaniy va tabiiy merosini muhofaza etishi, uni targ'ibot etishi, bunda o'zining samarali siyosatini olib borishi lozimligi ta'kidlanadi.

Hozirgi vaqtida ko'pgina tarmoqlar kabi turizm industriyasini ham tez rivojlanib bormoqda. Turistik biznesni mavjud kapital, texnologiya, hamda malakali ishchi xodimlar orqaligina shakllantirib bo'lmaydi. Buning uchun birinchi navbatda turistik resurslarga ega bo'lish lozim. Turizm sohasining resurslari har bir mamlakatning milliy boyligi bo'lib, ular davlat mulki hisoblanadi. Turistik

resurslaming mohiyati shundan iboratki, ular turistik mahsulot shakllanishiga asos boib xizmat qiladi. Turistik resurslardan sog'lomlashtirish, turistik sport va tanishuv maqsadida foydalilaniladi. Hozirgi davrda kundalik axborot vositalari va ilmiy jamoatchilik orasida Turizm resurslari tushunchasi haqida turlicha yondashuv va talqinlar mavjud. Bu ilmiy izlanishlarda o'ziga xos tariflar va izohlar bor. Turizm resurslari haqida aniq fikrga ega bo'lish har bir tadqiqotchi uchun muhimdir Turistik resurslar tasnifiga bir qancha yondashuvlar mavjud bo'lib.



1.1.2-rasm. Qashqadaryo viloyatining turistik salohiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar⁹.

Ulardan polyak iqtisodchisi M.Truas (1963 yil) va fransuz iqtisodchisi P.Deferem (1972 yil) taklif qilgan tasnifi ancha takomillashgan. M.Truasi turistik resurslarni uch guruhini ajratadi:

- Tabiiy turistik resurslar
- Inson tomonidan yaratilgan turistik resurslar

⁹.Muallif ishlanmasi

- Qo'shimcha» turistik resurslar

1. Tabiiy turistik resurslar, «turistik kapital potensiali» sifatida unga iqlim, havo, manzara, dengiz, ko'l, daryolar, tog'lar, o'rmon va boshqalar kiradi. Boshqacha qilib aytganda, bu resurslarni tabiiy – iqlimiylar deb atash mumkin.

2. Inson tomonidan yaratilgan turistik resurslar, ya'ni arxitektura binolari, yodgorliklar, madaniy obyektlar va boshqalar. Bular ekskursiya obyektlari hisoblanadi.

3. «Qo'shimcha» turistik resurslar, inson mehnati tomonidan yaratilgan ma'lum mintaqadagi barcha turistlarni qabul qiluvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar hisoblanadi. Bu resurslar orqali turistlarga xizmat ko'rsatish darajasini baholash mumkin.

Lekin, Rossiyalik mutaxasislar M.E.Nemolyayeva va L.F.Xodorkov qabul qiluvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalari turistik resurslarga qo'shish mumkin emas deb hisoblashadi. Chunki, bu korxonalar mavjud turistik resurslardan foydalangan holda ish yuritadilar, aks holda bir butun turistik sayohatni qamrab olgan holda xizmat ko'rsata olmaydilar. Fransuz iqtisodchisi P.Deferem(1972 yil) barcha turistik resurslarni 4 ta guruhga ajratadi:

1. Gidrom;
2. Fitom;
3. litom ;
4. antropom;

Gidrom – bunga suv bilan bog'liq turistik resurslar kiradi. Bu guruh tarkibiga ko'l, daryolar, dengiz bo'yli, muzliklar, mineral suv manbalari, gidroelektrstansiylar, sharsharalar va boshqalar kiradi. Misol uchun, mashhur Niagara sharsharasi, Amozonka daryosi, Ispaniyadagi dengiz bo'yli plyajlarini kiritish mumkin. **Fitom** – tabiiy turistik resurslar, buning tarkibi ikki turda bo'lishi mumkin: tabiiy ravishda yaratilgan (o'rmon, tog'lar, cho'qqilar, vo'lqonlar, tabiiy manzaralar) va inson tomonidan yaratilgan (milliy bog'lar, parklar). **Litom** – inson tomonidan yaratilgan va o'zi yoki belgilariga ko'ra turistlar qiziqishini orttiradigan resurslar bo'lib, uning tarkibiga arxitektura yodgorliklar, qadimgi insonlar yashash

joylari, ochiq osmondagи muzeylar kiradi. Undan tashqari litomlarga zamonaviy qo'rilmalar: ko'priklar, aeroportlar, sport majmualari, universitetlar, akvariumlar, observatoriyalar va boshqalar kiradi. **Antronom** – turistik qiziqishni orttiradigan barcha inson faoliyat ko'rinishlarini kiritish mumkin. Antronom elementlariga insonning o'zi, uning hayoti, urf – odatlari, yuqolgan yoki yuqolish arafasida turgan, ya'ni milliy xalq bayramlari, folkrol, milliy musiqa va kiyimlarni kiritish mumkin. Undan tashqari antronomga sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalari, o'quv dargohlari va ijtimoiy – maishiy obyektlarni ham kiritish mumkin.¹⁰ Yana bir rus olimi A.D Chudnovskiy turistik resurslarni tabiiy – hududiy turistik muasssalar asosida ularni tabiiy – quruqlik va tabiiy – suvlik resurslariga, ularni o'z navbatida tabiiy (qo'riqxona, daryo vodiylari va b.) tabiiy – antropogen (bog'lar, milliy bog'lar va b.) va noyob resurslarga bo'lgan.¹¹

Dam olish va sayyohlik resurslarining asosiy va eng ommabop quyidagi guruhlarga bolib olsak bo'ladi:

- balneologik,
- iqlimiyl,
- landshaft,
- plyaj,
- tarixiy, madaniy

Balneologik resurslarga ichimlik mineral suvi, tabiiy shifobaxsh moddalar bilan shifobaxsh balchiqlar kiradi. Ular davolash maqsadida ham, tanani umumiyl yaxshilash uchun ham qo'llaniladi. Mineral suvlar orasida olimlar bir necha o'nlab balneologik guruhlarni, jumladan, temir, vodorod sulfidi, gidrokarbonat, radon va boshqalarni ajratib ko'rsatishadi. Ehtimol sayyoradagi eng mashhur balneologik kurort mashhur O'lik dengizdir. Bu erda bir vaqtning o'zida inson tanasiga uchta terapevtik omil ta'sir qiladi: haqiqiy sho'r dengiz suvi (tuzlar va minerallarning kontsentratsiyasi 33% ga etadi), mineral loy, shuningdek, ko'plab foydali moddalar

¹⁰ O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Buxoro davlat universiteti Xidirova G.R., Raxmatullayeva T.M. "Mintaqaviy turizm" o'quv qollanma 33-bet.

¹¹ (14 А.Д Чудновский. Управление индустрией туризма России в современных условиях. М.: КНОРУС, 2007)

bilan toza va to'yingan havo. Ikkinchi eng mashhur va intensiv ishlaydigan balneologik markazni Vengriyadagi Szechenyi kurorti deb atash mumkin. Bu yerda, Budapesht yaqinida 500 dan ortiq mineral buloqlar yer ostidan oqib chiqadi.

Iqlim resurslari Iqlim dam olish va kurort iqtisodiyotini muvaffaqiyatli rivojlantirishning muhim jihatni hisoblanadi. Ba'zi hollarda mintaqaning iqlim sharoiti uning kurort ixtisoslashuviga bevosita ta'sir qiladi. Masalan, Qrimning janubiy qirg'og'ining shifobaxsh havosi, mahalliy o'simliklarning fitontsidlari bilan to'ldirilgan, inson nafas olish tizimining kasalliklarini davolash uchun idealdir. Shuni ta'kidlash kerakki, bir xil hududning iqlim resurslari ba'zi odamlar uchun kontrendikedir, lekin ayni paytda boshqalar uchun idealdir.

Landshaft resurslari. Olimlar uzoq vaqt davomida atrofdagi landshaft insonning ruhiy va ruhiy holatiga ta'sir qilishini, shuningdek, uzoq davom etgan kasallikdan so'ng tananing tiklanishi va tiklanishiga hissa qo'shishi mumkinligini uzoq vaqtdan beri isbotlagan. Tog'li hududlar landshaft turizmi resurslari orasida ajralib turadi. Axir, ular turli xil dam olish va dam olishni rivojlantirish uchun sharoit yaratadilarturizm faoliyati - ekstremal sport turlaridan sanatoriy-kurort-kurortgacha. Bu borada mutlaq etakchi Alp tog'li hududidir. Har yili unga kamida 150 million sayyoh va dam oluvchilar tashrif buyurishadi.

Plyaj resurslari. Rekreatsion va turistik resurslar ro'yxatida muhim o'rinni plyaj resurslari egallaydi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyodagi barcha sayyoohlarning 50% dan ortig'i u yoki bu tarzda o'z ta'tilini dengiz, okean yoki boshqa suv havzalarida bo'lish bilan bog'laydi. Hech kimga sir emaski, dengiz sohilida bo'lish, ayniqsa, inson tanasi uchun foydalidir. Darhaqiqat, bu holda unga bir vaqtning o'zida uchta tabiiy omil ta'sir qiladi: suv, quyosh va havo.

Kot d'Azur sayyoradagi eng mashhur plyaj dam olish maskani hisoblanadi. U Frantsiyada joylashgan va Tulondan Monakogacha bo'lgan 180 kilometrga cho'zilgan. Italiya, Ispaniya, Bolgariya, Malta, Kipr, Tunis va Turkiya ham ajoyib plyajdag'i dam olishlari bilan mashhur.

Madaniy va tarixiy manbalar. Tarix, me'morchilik va san'atning barcha turlari madaniy va turistik manbalar hisoblanadi. Bunga saroy va istirohat bog'lari

ansamblari, qal'alar, qal'alar, qadimiy istehkomlar, arxeologik yodgorliklar, yodgorlik majmualari, diniy binolar, monastirlar, muzeylar, san'at galereyalari, qadimiy nekropollar, shaharlardagi tarixiy binolarning saqlanib qolgan qismlari va boshqalar kiradi. Qaysi mamlakatlarda eng katta tarixiy va madaniy turizm resurslari mavjud? Salqin sevuvchilar arxitektura va muzeylar Italiya, Frantsiya yoki Avstriyaga, o'rta asr qal'alarining muxlislari - Germaniya yoki Buyuk Britaniyaga, antik davr muxlislari - Misr, Turkiya, Gretsiyaga borishlari kerak. Agar ekzotik arxitektura sizni o'ziga jalg qilsa, bemalol Sharqiy Osiyo davlatlaridan biriga boring.

Tadbirlar turizmi resurslari. Tadbirlar turizmi oxirgi paytlarda butun dunyoda tobora ommalashib bormoqda. Bunday turistik sayohatning maqsadi biron bir voqeа - festival yoki milliy bayramga to'g'ri keladi. Ko'pgina sayyohlik agentliklari o'z mijozlariga an'anaviy bayramlar hamda eng ajoyib tadbirlarga tashrifni o'zida birlashtirgan maxsus turlarni taklif qilishadi. tadbirlar turizmi

Tadbir resurslarini bir nechta tematik guruhlarga bo'lish mumkin:

- Milliy bayramlar va paradlar.
- Teatrlashtirilgan tomoshalar.
- Film festivallari.
- Gastronomik festivallar (shu jumladan vino va pivo).
- Musiqa, adabiyot va teatr festivallari.
- Moda namoyishlari.
- Auktsionlar.
- Sport tadbirlari.

Turistik resurslar tabiiy, tarixiy, ijtimoiy madaniy va boshqa turistlarni sayohatga qiziqtiradigan, insonning jismoniy, ruhiy va aqliy kuchini tiklashi va rivojlanishi ehtiyojlarini qondirishga qodir ob'ektlarga aytildi. Rekreatsiya faoliyati nuqtai nazardan turistik resurslarga tabiiy va antropogen geosistemalar kiradi, tabiat manzaralari, rekreatsiya faoliyati ehtiyoji qiymatiga va maishiy xususiyatga ega, insonlarni ko'rsatilgan vaqtida ma'lum texnologiyalar yordamida

sog‘ligini tiklash va dam olishida foydalanish mumkin bo‘lgan, rekreatsiya faoliyati qobiliyatiga ega resurslar kiradi.

Turistik resurslarning mohiyati shundan iboratki, turistik mahsulot shakllanishiga asos hisoblanadi. Umumiy qilib aytganda, aniq hududda turistik faoliyatda foydalanish mumkin bo‘lgan barcha ob’ektlar kiradi. Turizmni rekreatsiyaning ko‘rinishi sifatida olsak, «turistik resurslar» tushunchasi «rekreatsiya resurslari» bilan birgalikda uyg‘unlashadi.


Turistik resurslarning asosini rekreatsiya resurslari tashkil etadi. Rekreatsiya resurslari bu - turli komponentlar birikmasidan iborat, insonning dam olishi va davolanishi ehtiyojlarini qondirishda xizmat qiladigan vositalardir. Kelib chiqishi va foydalanish xususiyatlariga ko‘ra rekreatsion resurslar ikki guruhga ajratiladi: **tabiiy va antropogen** rekreason resurslar.

Tabiiy rekreatsion resurslarga, hududiy tabiiy komponentlar birikmasidan iborat, go‘zal tabiat go‘sha(landshaft)lari kiradi. Ular daryo, ko‘l, dengiz bo‘ylari, tog‘ etaklaridagi o‘simlik dunyosi, xilma – xil manzarali joylar, mineral suvli shifobaxsh maskanlar bo‘lishi mumkin. Undan tashqari aholining dam olishi, sport bilan shug‘ullanishi, ov qilishi imkoniyatlari uchun keng hududlar, shahar atrofidagi yashil mintaqalar, park va bog‘lar yoki qo‘riqxona va milliy bog‘lar ham tabiiy rekreatsiya resurslaridir.

Turli davrlarda inson aql-zakovati bilan yaratilgan tarixiy, arxeologik va san’at obidalari, yodgorliklar, muzeylar hamda rekratsiya maqsadida foydalanish mumkin bo‘lgan ijtimoiy obektlar antropogen rekratsiya resurslarga kiradi. Undan tashqari, rekratsion resursslarni qo‘yidagi asosiy belgilarga ajratish mumkin;

- Landshaft-iqlimiylar xususiyat;
- Tabiiy resurslar potensial zaxirasi;
- Jozibadorlik va sayyohlik ahamiyati;
- Qulaylik va foydalanish imkoniyati;
- Manzara va ekologik xususiyati;
- Ijtimoiy va demografik xususiyati.

Tutistik resurslarning ikki turga bolinishimiz mumkin. Bunda ularni birlamchi va ikkilamchi guruhga bolamiz. **Birlamchi turistik resursga:**-Tabiiy:-Iqlim; -Landshaft;-Ekosistemalar; -Ijtimoiy – madaniy;-Urf – odatlar, milliy an'ana va bayramlar; -folklor; -Tarixiy; -Arxitektura yodorliklari; -Arxeologik yodgorliklar;-Qadimiy shaharlarni hisoblasak.



1.1.3-rasm. Kelib chiqishi va foydalanish xususiyatlariga ko'ra rekreatsion resursslari ikki guruhga ajratiladi.¹²

Ikkilamchi turistik resursga:


-Transport: -Havo; -Suv; -Poyezd; -Avtomobillar; -Ovqatlanish; -Kafe; -Restoran; -Oshxona; -Joylashtirish: -Mexmonxona; -Motel; -Lager; -Pansionlar - boshqa joylashtirish maskanlari; -Ko'ngilochar obyektlar; -Qo'shimcha xizmatlar va servis tarmog'i; -Sayohat tashkilotchilari: -Agentliklar; -Ekskursiya

¹² 1.1.4-rasm. Muallif ishlanmasi.

tashkilotchilari; -Axborot xizmatlari; -Turistik axborot markazlari; -online axborot tizimlar.

Turistik resurslar foydalanish xususiyatiga kora **bevosita** va **bilvosita** turlarga bo'linadi. **Bevosita** turistik resurslarga turistlarning o'zлari tog'ridan tog'ri foydalananadigan tabiiy va tarixiy-madaniy resurslar kiradi. **Bilvosita (qo'shimcha)** tog'ridan tog'ri turizm resurslarini rivojlantirishda ishtirok etuvchi moddiy, moliyaviy, mehnat, axborot beruvchi resurslar kiradi. Bozorlarning turistik ob'ektlarga kiritilishi ikki jihatdan foya

Tutistik resurslarning ikki turga bolinishi.



1.1.4-rasm. Turistik resurslarning ikki turga bolinishi¹³.

¹³ Muallif ishlanmasi.

Birinchidan, turistlarga o‘zimizning boy noz-ne’matlarimizni ko‘rsatish imkoniyati tug‘ilsa, ikkinchidan, sharq shirinliklarini, ekologik toza meva mahsulotlarimizni sotish imkoniyati ham tug‘iladi va xorijiy valyuta tushumini ta’minlaydi. Buning uchun har bir turistik ob’ektga kiritilgan bozorning ko‘zga tez tashlanadigan joyida pul almashtirish shahobchalarini ham tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

1.1.2-jadval.

Turizmda hozirda ma'lum bo'lgan yo'nalish turlariga ko'ra va toifalariga ko'ra ajratib ko'rsatish¹⁴.

Nº	Turizmda hozirda ma'lum bo'lgan yo'nalish turlariga ko'ra, quyidagilarni ajratib ko'rsatish odatiy holdir:	
1	Ichki turizm	(mamlakat ichida).
2	Kirish turizmi	(u yerda doimiy istiqomat qilmaydigan shaxslarning mamlakat bo'ylab sayohati).
3	Chiqish turizmi	(noodatiy mamlakatga sayohat).
Nº	Turi bo'yicha turizm quyidagi toifalarga bo'linadi:	
1	Diniy	(monastirlar, ibodatxonalar, muqaddas joylar va boshqalarni ziyorat qilish).
2	Ekologik	(tabiat ichida sayohat).
3	Sarguzasht	(turist yangi his-tuyg'ular va taassurotlar oladi).
4	Sport	(u suv, piyoda, tog', velosport, chang'i, mototsikl, avtomobil, yelkanli sport, ot sporti va boshqalar).
5	Davolovchi va sog'lomlashhtiruvchi	(sog'likni yaxshilash uchun tabiiy turdag'i shifobaxsh resurslardan foydalanish).
6	Professional va ishbilarmon	(forumlarga sayohatlar, konferentsiyalar, muzokaralar va h.k.).
7	Nostaljik va qayta bog'lanish	(tug'ilgan joylar, do'stlar va oilaga tashrif).
8	Madaniy-ma'rifiy	(aniq ekskursiya qismi bilan).
9	Iste'molchi	(tabiiy komponentni olib tashlash, masalan, ov yoki baliq ovlash).
10	Rekreatsion	(tabiat ob'ektlariga tashrif buyurish va yaxshi maqsadlarda foydalanish).

¹⁴ Muallif ishlanmasi

Turistik resurslardan foydalanuvchi xo‘jalik yurituvchi sub’ekt sifatida ham qarash va uning ta’rifini ishlab chiqish lozimligi nuqtai nazardan qaraydigan bo‘sak, uni turistik korxona yoki firma deb atab, unga quyidagicha ta’rif berish mumkin, degan xulosaga keldik. **Turistik firma (korxona)** deganda, turistik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi, tegishli banklarda o‘zining hisob raqamiga va buxgalteriya balansiga ega bo‘lgan, mustaqil xo‘jalik yurituvchi tadbirkorlik sub’ekti tushuniladi.

1.2 Turizm resurslaridan foydalanishning tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari.

Turizm xizmat ko‘rsatish sohasining muhim tarmog‘i sifatida XXI asrda jadal rivojlanish bosqichiga kirdi. Shu bilan birga u jahon iqtisodiyotining ham yetakchi tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. Ushbu soha dunyo bozorida barcha sotilgan turistik resurslar, tovar va xizmatlarning 27 %ini, yalpi milliy mahsulotning 11 %ini, jalb qilingan investitsiyalarning 10 %ini, har 16 ish o‘rnining birini, hamda dunyo bo‘yicha iste’mol xarajatlarining 11 %ini tashkil qiladi. Jahon turistik tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, bugun dunyoda bir yilda 700 mln. kishi turli maqsadlarda sayohat qilib, ichki turizmga 600 mlrd. AQSh dollaridan ko‘proq sarf xarajat qilinadi. Turistik daromad juda ko‘pchilik mamlakatlarning asosiy daromad manbai bo‘lib hisoblanadi. Masalan, AQSh dunyo miqyosida xalqaro ichki turizmdan olinadigan daromadning 11,3%ini, Ispaniya – 5,1 %ini, Fransiya – 4,7 %ini, Italiya – 4,1 %ini, Xitoy – 2,8 %ini oladi. Bir yilda 2018 yilgi ma’lumotlar bo‘yicha Fransiyaga xalqaro ichki turizm sifatida 86,9 (75,2) mln. kishi, AQShga 76,9 (45,5), Xitoya 60,7 (33,2), Ispaniyaga 81,8 (50,1), Italiyaga 58,3 (39,1) mln. kishi tashrif buyuradi. Ko‘rinib turibdiki, ichki turizm bo‘yicha dunyoning yetakchi beshta davlatida oxirgi to‘qqiz yilda o‘rinlar ham o‘zgarib qolgan (1.2.1-jadval). Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, oldin ham hozir ham yetakchi o‘rinda Fransiya. Biroq o‘sish sur’ati bo‘yicha beshinchi o‘rinda. Agar ushbu tendensiya saqlanib qolsa, boshqa davlatlarga o‘rnini bo‘shatib berishga majbur bo‘ladi. Ta’kidlash joizki, shu davrda AQSh turistlar soni bo‘yicha uchinchi o‘rindan

ikkinchi o‘ringa ko‘tarilgan, ammo uning o‘sish sur’ati bo‘yicha ikkinchi o‘rinni egallab turibdi.

Xitoyda turistlar soni jadallik bilan o‘smoqda va u dunyoda birinchi o‘rinni egallab kelmoqda. Shu tufayli tashrif buyuruvchilar soni bo‘yicha beshinchi o‘rindan uchinchi o‘ringa ko‘tarilgan. Mos ravishda Italiya va Ispaniya davlatlarida turistlarning soni bo‘yicha ularning o‘rinlari kamaygan va o‘sish sur’ati bo‘yicha ham pastki o‘rinlarni egallab turibdi.

1.2.1-jadval

Ichki turizm bo‘yicha dunyoning yetakchi beshta davlatida 2019-2023-yilda o‘rinlar¹⁵.

№	Davlatlar nomi	2019 yil		2023 yil		O‘zgarish sur’ati, %	O‘sish sur’ati bo‘yicha o‘rni
		Soni, mln. kishi	O‘rni	Soni, mln. o‘rni kishi	o‘rni		
1	Fransiya	75,2	1	86,9	1	102,1	5
2	Ispaniya	50,1	2	81,8	2	105,2	4
3	AQSh	45,5	3	76,9	3	131,2	2
4	Italiya	39,1	4	58,3	5	111,8	3
5	Xitoy	33,2	5	60,7	4	167,8	1

Ichki turizm iqtisodiyotning alohida tarmog‘i sifatida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bular quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ❖ turistik xizmatlar ham boshqa xizmatlar singari moddiy ne’mat tariqasida baholashning imkoniy yo‘qligi;
- ❖ turistik xizmatlarni ko‘rsatish jarayonida iste’mol qilinishi;
- ❖ turistik xizmatlarning boshqa xizmat turlari kabi oldi-sotdi jarayonida predmet sifatida namoyon bo‘lmashligi;
- ❖ turistik xizmatlarning sifati o‘zgaruvchanlik xususiyatga egaligi, ya’ni bir xil xizmatni bir davrda turli turistik firmalar turlichada darajada ko‘rsatishi va bitta

¹⁵Jahon turizm tashkilotining (JTT) ma’lumotlariga asosan muallifning hisob-kitobi.

turistik firmaning ko'rsatadigan xizmati turli davrlarda bir xil sifatga ega bo'lmashligi;

- ❖ ko'rsatiladigan turistik xizmatlarni zahiraga olib qo'yib, saqlash imkoniyatining yo'qligi;
- ❖ ko'rsatilayotgan turistik xizmatlarning natijasi moddiy ne'mat shaklida emas, balki turistlar soni va pul bilan o'lchanishi;
- ❖ turistik xizmatlarni ko'rsatuvchi va iste'mol qiluvchi sub'ektlarning xizmatlarni ko'rsatish jarayonida bevosita birga bo'lish mumkinligi kabilardir.
- ❖ Ko'rinish turibdiki, turistik xizmatlar bir tarmoq sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu xususiyatlar mazkur tarmoqning tabiatini va tarmoq sifatida faoliyat ko'rsatish mumkinligini belgilaydi.

Shunday qilib, turizm sohasining boshqa tarmoqlar o'rtasida tutgan o'rnini ham aniqlash, bevosita uning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rnini belgilash bilan ham bog'liq. Ichki turizm iqtisodiyotning sohasi sifatida rivojlanadi va o'zining ma'lum darajada o'rnini shakllantirib boradi. Mamlakatimizda katta turistik salohiyat mavjudligiga qaramasdan uning umumiyligi ishlab chiqarilayotgan YalMdagi ulushi hali kam. Bu soha nafaqat iqtisodiy, balki madaniy, siyosiy, ijtimoiy ahamiyatga ham molik sohadir. Chunki ichki turizm umumiyligi o'sish bilan barobarida kam rivojlangan hududlarning rivojlanishini ham ta'minlaydi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, ko'pgina yaxshi rivojlanmagan hududlarda turistik markazlarning ochilishi shu hududning rivojlanishi uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Bu esa ko'pgina davlatlarning asosiy rivojlanish manbai bo'lib hisoblanadi. Tog' va qishloq joylarida turistik markazlarning tashkil qilinishi shu joylarning o'zlashtirilishiga, aholi turmush sharoitining yaxshilanishiga olib keladi. Shu tufayli bu sohaga hamisha va hamma joyda katta ahamiyat berish lozim. Shu tariqa hududlarning mutanosib rivojlanishi ta'minlanadi.

Har bir hududda ichki turizmni rivojlantirishning kelajagini aniqlash va istiqbolini belgilash uchun avvalo, uning moddiy-texnika bazasini, turistik resurslar

ko‘laming yetarlilagini, mazkur turistik marshrutga bo‘lgan talabni chuqr o‘rganish lozimdir. Bunda turistik xizmatlar bahosini haddan tashqari oshirib yubormaslik kerak. Masalan, ma’lum bir mintaqadagi tarixiy yodgorlik faqat shu joyning o‘zi uchungina kiziqarli bo‘lishi mumkin, ammo uni xalqaro maydonga olib chiqish uchun uning xalqaro ahamiyatini ko‘rsata bilish va bu borada tegishli ilmiy-tadqiqotlarni o‘tkazishga to‘g‘ri keladi.

Shu tariqa mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan turistik ob’ektni boshqa ko‘plab yodgorliklar singari xalqaro ahamiyatga molik darajaga ko‘tarish mumkin. Agarda turistik ob’ekt qandaydir tarixiy yoki ilmiy ahamiyatga ega bo‘lmasa, turistlarni o‘ziga jalb qilmasligi mumkin. Bunday joylarda ichki turizmning moddiy-texnika bazasini yaratishga hojat bo‘lmaydi. Shunday kilib, tumanda barpo etilgan turistik markaz, shu tumanning rivojlanishiga olib kelishi uchun shu hududda uni to‘g‘ri tashkil qila bilish lozim.

Hududda faqat bitta sohani, shu jumladan, ichki turizmni ham rivojlantirib bo‘lmaydi. Bunga erishish uchun, uni bir qancha tarmoqlar bilan birga rivojlantirishga to‘g‘ri keladi. Bular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- hududda kommunal xo‘jalik yaxshi taraqqiy etgan bo‘lib, hududni elektr energiyasi va gaz ta’minoti kabilar bilan yaxshi ta’minlangan sharoitni yaratish lozim;

- hududdagi har bir turistik ob’ektlarning ilmiy va tarixiy ahamiyati ochibberilgan bo‘lishi kerak;

- hududda turistlarning yaxshi dam olishi va yashashi uchun tegishli madaniy va ma’naviy sharoit yaratilgan bo‘lishi ham maqsadga muvofiq;


- turistlar uchun tegishli ovqatlanish va savdo shoxobchalari rivojlangan bo‘lishi lozim;

- turistlarning yashash joyida ularning xavfsizligi to‘liq ta’minlangan bo‘lishi lozim;

- turistlar uchun transport harakatining ham qulayligi ta’minlangan bo‘lishi kearak.

Bularning hammasi ichki turizmning ma'lum bir hududda rivojlanishini ta'minlash bilan birga uning taraqqiyotini ham ta'minlaydi. Bir tarmoqni rivojlantirish uchun faqat uning o'zigagina ahamiyat berilsa, yuksak maqsadlarga erishib bo'lmaydi. ichki turizm ni rivojlantirishda ham xuddi shunday. Shu tufayli uni rivojlantirish uchun, u bilan bog'liq boshqa sohalarni ham rivojlantirishga to'g'ri keladi. Shunday qilib, ichki turizm nafaqat iqtisodiyotga, balki mamlakatning ijtimoiy hayotiga ham ta'sir qiladi.

Turistik resurslardan foydalanish turizm tarmog'ida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga har tomonlama ta'sir qiladi. Yuqoridagi yo'nalishlar bilan birga sohaga daxldor bo'lgan transport, mehmonxona xo'jaligi, ovqatlantirish shoxobchalari, uy xo'jaligi kabilarning ham hayotining o'nglanishiga xizmat qiladi.



1.2.1-rasm. Turizmning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri¹⁶.

Buni mamlakatimiz Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham ko'rish mumkin. Unda: Bizda turizm ko'pincha qadimiy shaharlarimiz, tarixiy-madaniy yodgorliklar doirasida cheklanib qolmoqda. Vaholanki, mamlakatimizning betakror tabiatni, milliy qo'riqxonalar, tog'li hududlarda ichki turizmni rivojlanishiga uchun katta salohiyat mavjud. Ayniqsa, tibbiyot ichki turizmi, ziyorat ichki turizmi

¹⁶ Turizmning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri. Muallif ishlansasi.

va eko ichki turizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy sohalar rivojiga ham katta turtki beradi¹⁷ deb ta'kidlangan.

Shuni e'tirof etish kerakki, O'zbekistonda 4000 dan ziyod tarixiy-madaniy yodgorliklar mavjud. Jumladan, Qashqadaryo, Buxoro, Xiva shaharlari qadim tarixdan so'zlab turgan bo'lsa, Toshkent shaharlarida o'tmish bilan bugunning hamohangligini ko'rish mumkin. Surxandaryo, Qashqadaryo kabi viloyatlarda YuNESKO ro'yxatiga kiritilgan juda ko'plab betakror tarixiy obidalarimiz mavjud. Bularning hammasi O'zbekiston juda katta turistik salohiyatga ega mamlakatlar safida ekanligini ko'rsatadi. Lekin bular bugungi kunda mamlakatimizga tashrif buyurayotgan xorijiy turistlar oqimi, ushbu salohiyatga nisbatan juda pastligidan, hamon xalqaro ichki turizm bozorida yetakchi davlatlar qatoridan o'rin ololmayotganligidan dalolat berib turibdi. Bunga mazkur sohaning mamlakat YaIMdagi ulushi hamon pasligicha (2,5% doirasida) qolib kelinayotganligini ham misol qilib ko'rsatish mumkin.

1.2.2-jadval

O'zbekistonda xorijiy mehmonlarga xizmat ko'rsatish (ming kishi hisobida)¹⁸.

№	Yillar	2015	2016	2017	2018	2021	2022
1	O'zbekistonda xizmat ko'rsaitilgan xorijiy mehmonlar	242	273	343	370	370	370
2	O'sish surati (foizda)	98.0	99.0	113.6	122.5	127.2	142.7

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda qo'lga kiritilgan yutuqlarga nazar tashlaydigan bo'lsak. Avvalo, o'lkamizga tashrif buyurayotgan xorijiy mehmonlar sonining oshib borayotganligini inobatga olish zarur bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi:// "Xalq so'zi" gazetasi. 2018 yil 29 dekabr.


¹⁸ O'zbekistonda xorijiy mehmonlarga xizmat ko'rsatish (ming kishi hisobida) Manba: "O'zbekturizm" MK materiallari

Hududlarda turistik resurslardan samarali foydalanishda innovatsion modellarini qo'llash asosida soha faoliyatini rivojlantirishning istiqbol ko'rsatkichlari asoslangan.

Mamlakatimizda innovatsion turistik loyihamalarini yaratish, amalga oshirish g'oyasi, katta daromad olishni boshlamasdan ham, sayyohlikning rivojlanishiga turtki berishi va shu bilan birga aholi uchun yangi ish o'rinalarini yaratish, daromadlar o'sishiga faol hissa qo'shishi mumkin. Bu jarayonda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmay turib, innovatsiyalarni joriy qilish va rivojlantirish mumkin emas. Buning uchun ikkita sxemadan foydalanish talab qilinadi: hududiy va mahalliy hokimiyatlarning maxsus maqsadli dasturlari va ajratmalarini amalga oshirishda davlatning bevosita ishtiroki; turizm sohasida hududiy maqsadli dasturlarni amalga oshirishda davlat, xususiy va davlat-xususiy sherikchiligi tamoyillarini joriy qilish.(1.2.2-rasm)

O'zbekistonda turizmnинг shakllanishi va rivojlanishiga asosiy e'tibor mustaqillikka erishgandan keyin boshlandi. 1992 yil 27 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti «O'zbek turizm» milliy kompaniyasini tashkil qilish to'g'risida»gi Farmoniga imzo chekdi. Mazkur farmonning ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi 1992 yilning 20 oktyabrida «O'zbek milliy turizm» milliy kompaniyasi faoliyatini tashkil qilish masalalari to'g'risida»gi 424-soni qarorini qabul qildi. Bu hujjalarni mamlakatimizda milliy ichki turizmni tashkil qilish uchun asos bo'ldi. Shunday qilib, mustaqillikning birinchi yillaridayoq mamlakatimizda ichki turizm sohasi bo'yicha mustaqil milliy tashkilot barpo qilindi.

Mintaqaviy va mahalliy hokimiyatlar



1.2.2-rasm. Turizmning hududiy infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishda davlat-xususiy sherikchilik mexanizm.¹⁹

Mamlakatimizda turizm sohasi boʻyicha milliy kompaniyaning tashkil boʻlishi uni xalqaro maydonga chiqarish imkoniyatini berdi. 1993 yilda Oʻzbekiston Respublikasi Jahon ichki turizm tashkilotining aʼzoligiga qabul qilindi. Bu mamlakatimizda ichki turizmni rivojlantirish zaruriyatini tugʼdirdi. Chunki, bu soha ham iqtisodiyot sohasining ajralmas qismi sifatida mamlakat iqtisodiy qudratining yuksalishiga hissa qoʼshishi lozim edi.

Shu yillarga kelib bevosita mamlakatimiz rahbariyatining tashabbusi va say harakatlari bilan Buyuk Ipak Yoʼli ni tiklash masalasi xalqaro miqyosda muhokama qilina boshlandi va 1995 yilning oktyabr oyida Ipak Yoʼlida joylashgan mamlakatlar vakillari ishtirok etgan Ipak yoʼli boʼylab deb nomlangan dastlabki turistik yarmarkasi oʼtkazildi. Bu yarmarkaga mamlakatimiz vakillari ham oʼzlarining turistik mahsulotlari bilan ishtirok etib, xalqaro maydonga chiqishning yana bir qancha imkoniyatlarini qoʼlga kirta boshladi.

¹⁹ Muallif ishlanmasi

Mazkur farmon bilan Vazirlar Mahkamasi huzurida ichki turizm bo‘yicha Idoralararo kengash tuzilishi va shu kengash faoliyatining asosiy vazifalari qilib quyidagilarni belgilab berdi:

- turizm sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish;
- jahon andozalari darajasida kichik va o‘rta mehmonxonalar, motellar va kempinglar tarmog‘i shakllantirilishini muvofiqlashtirish;
- sayr-tomoshalar zamonaviy industriyasini, madaniy va sport-sog‘lomlashtirish markazlarini barpo etishga ko‘maklashish;
- noyob ichki turizm imkoniyatlari va tarixiy-madaniy meros keng ko‘lamda targ‘ib qilinishi va saqlanishini tashkil etish;
- sayyohlik tizimida muvofiqlashtirilgan ilmiy-texnikaviy va investitsiya siyosatini o‘tkazish; sayyohlik sohasida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashni ta’minlash²⁰. Mazkur vazifalarni amalga oshirish borasida katta tashkiliy-iqtisodiy tadbirlar amalga oshirildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi mamlakatimizda o‘tkaziladigan xalqaro Yarmarka qatnashchilari uchun kelish vizalarini boj olmasdan rasmiylashtirishni ta’minlash bilan birgalikda, O‘zbekiston havo yo‘llari milliy aviakompaniyasi, O‘zbekiston temir yo‘llari davlat-aksionerlik temir yo‘l kompaniyasi, O‘zavtotrans , Mahalliy sanoat davlat korporatsiyalari, O‘zbekengilsanoat davlat uyushmasi yarmarkada mustaqil ekspozitsiya stendlari bilan qatnashishlari alohida ta’kidlangan edi. Shu yo‘sinda xalqaro maydonga chiqishga yo‘l ochildi va tegishli reklama tadbirlari amalga oshirila boshladi.

Mazkur soha nafaqat mamlakatimiz, balki butun jahon hamjamiyati uchun ham muhim sohalardan biri sifatida baholandi. Bunda o‘z o‘rnimiz va mavqeimizni mustahkamlashga ham kirishdik. 1997 yilda O‘zbek turizm Milliy kompaniyasi ekspertlari ishtirokida O‘zbekistonda ichki turizm ni barqaror rivojlantirish rejasi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yilning 2 iyunida “Buyuk ipak yo‘lini qayta tiklashda O‘zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi N PF-1162 sonli Farmoni.

ishlab chiqildi. Ushbu reja uning barcha sohalarini qamrab olgan va uzoq muddatga mo‘ljallangan reja ekanligi bilan sohaning rivojlanishi uchun ahamiyatlidir.

Ushbu sohaning o‘ta muhimligidan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasasi ma’lum tajribalarni umumlashtirib 1998 yil 8 avgustda Turistik korxonalar faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to‘g‘risida gi 346-sonli qarorini²¹ qabul qildi. Endi ichki turizm sohasida davlat aksiyadorlik mulkiga asoslangan korxonalar bilan birga xususiy mulkka asoslangan korxonalar ham vujudga keldi. Bu esa mazkur sohada raqobat muhitini vujudga keltirdi. Natijada shu 1998 yilda «Xususiy turistik tashkilotlar assotsiatsiyasi tashkil qilindi.

Endi ichki turizm sohasini rivojlantirish uchun maxsus kadrlar tayyorlash zarurati tug‘ildi. Bularni inobatga olib, mamlakatimiz birinchi Prezidenti 1999 yil 30 iyundagi O‘zbekistonda milliy turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash to‘g‘risida gi Farmonini²² imzoladi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining mazkur farmonlarini²³ bajarish, yurtimizda ichki turizm bo‘yicha zamon talablari darajasida mutaxassis kadrlar tayyorlaydigan maxsus ta’lim muassasalarini yaratish hamda shu asosda mamlakatimizda ichki turizmning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash va uning samaradorligini yanada oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 2 iyulda O‘zbekistonda ichki turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida gi 324-sonli Qarori²⁴ qabul qilindi.

Mamlakatimizda ichki turizmni rivojlantirish uchun xorijiy mamlakatlardan investitsiyalar ham kirib kela boshladи. Natijada 2000 yilning 17 noyabrida Vazirlar Mahkamasining Qashqadaryo shahrida «Nasaf» mehmonxonasini, Buxoro shahrida «Buxoro» mehmonxonasini boshqarishni xorijiy menejmentga berish to‘g‘risida»gi

²¹O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 8 avgustda “Turistik korxonalar faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 346-sonli qarori.

²²O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1999 yil 30 iyundagi “O‘zbekistonda turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash to‘g‘risida”gi farmoni.

²³O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1999 yil 30 iyundagi “O‘zbekistonda turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash to‘g‘risida”gi farmoni.

²⁴O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 2 iyulda “O‘zbekistonda turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 324-sonli Qarori

449-sonli qarori²⁵ qabul qilindi. Ushbu turistik komplekslar Germaniyaning Inpro kompaniyasi boshqaruviga berildi. Mazkur qaror ham vaqt o'tishi bilan takomillashib bordi. Chunki, 2001 yilning 16 martida «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 17 noyabrda qabul qilingan 449-sonli qaroriga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida»gi 131-sonli qarori²⁶ qabul qilindi. Bunda xorijiy investorlarning ishtiroki ushbu sohani yanada kengaytirish lozimligi e'tirof etildi. Shunday qilib, mamlakatimizda mustaqil bo'lgan yirik bir soha – ichki turizm industriyasi shakllandi. Hozirgi payda «O'zbek milliy turizm » MKga qarashli 40 tadan ziyod xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyat ko'rsatmoqda. Bularning ko'plari xorijiy turistik firmalar bilan bevosita hamkorlik qilib shartnama asosida ish yuritmoqdalar.

Dastlabki yillarda birgina Qashqadaryo shahri va viloyatida o'nlab zamonaviy mehmonxonalar qurildi va kapital ta'mirdan chiqarildi. Ularning ko'plari xorijiy investorlar ishtirokida amalga oshirildi. Natijada jahon andozalari talablariga javob beradigan mehmonxonalar shakllandi va ushbu jarayon xozirgi kunda ham izchil davom ettirilmoqda. Ammo hali xorijiy mehmonlarga jahon andozalari talablariga javob beradigan xizmat tizimi yetarli darajada shakllanmaganligi ular bilan o'tkazilgan sotsiologik so'rovlardan ko'rinish turibdi.

Shuni ta'kidlash kerakki, so'nggi yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ammo ta'kidlanganidek, ular hali yuqori talab darajasiga yetgan emas edi. Bu qarorning amalga oshirilishi xizmatlar bozori tarkibi xizmatlarning yangi istiqbolli turlari bo'lgan ichki turizm, bank-moliya, sug'urta, axborot-kommunikatsiya xizmatlari va boshqalarni rivojlantirish hisobiga takomillashib boradi va ularning ko'lamin keskin ko'paytirish imkonini yaratadi.

²⁵O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yilning 17 noyabridaimzolangan «Samarqand shahrida «Afrosiyob» mehmonxonasini, Buxoro shahrida «Buxoro» mehmonxonasini boshqarishni xorijiy menejmentga berish to'g'risida»gi 449-sonli qarori.

²⁶O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yilning 16 martida «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 17 noyabrda qabul qilingan 449-sonli qaroriga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida»gi 131-sonli qarori.

Ma'lumki turizm sohasi, iqtisodiyotning muhim tarmog'i hisoblanishi bilan birga davlatlar o'rtasida madaniy-ma'rifiy munosabatlarni mustahkamlaydi, xalqlar o'rtasida esa do'stlik rishtalarini bog'laydi. Eng muhimi, bir mamlakat xalqi ikkinchi bir mamlakat xalqining yashash tarzi, tarixi, urf-odatlari bilan yaqindan tanishish imkoniyati tug'iladi. Bu esa insonlarni bir-biriga yaqinlashtirishda, dunyoda tinchlik va totuvlikni o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki turizmning dunyo ijtimoiy hayotidagi ahamiyati ham shunda, deb baholash mumkin.

Turizm sohasida turistik resurslardan foydalanish iqtisodiyotimiz va ijtimoiy hayotimiz uchun o'ta muhimligi tufayli Prezidentimiz va Hukumatimizning hamisha diqqat-e'tiborida bo'lib kelganligi tufaylimillatlararo aloqalarni kengaytirish va mustahkamlashga ko'maklashish hamda xalqaro ichki turizm bozoriga uzviy qo'shilish, O'zbekistonning madaniy-tarixiy va ma'naviy merosini jahon hamjamiyatida targ'ib qilish, shuningdek sayyoohlarga xizmat ko'rsatish sifatini jahon andozalari darajasiga yetkazish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbek milliy turizm milliy kompaniyasining asosiy vazifalari etib:

- turizm sohasida yagona davlat siyosati o'tkazilishini ta'minlash, turistik xizmatlar infratuzilmalarini shakllantirishga ko'maklashish;
- turizmni rivojlantirish davlat dasturlarini, turistlarning muhofaza qilinishini va xavfsizligini ta'minlash dasturlarini amalga oshirish, turistik faoliyatni tarmoqlararo va mintaqalararo muvofiqlashtirish;
- turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish;
- turizm sohasida reklama-axborot siyosatini amalga oshirish;
- turizmni rivojlantirish sohasiga xorijiy kreditlar va investitsiyalarni jalg etish, xorijiy mamlakatlar, shuningdek xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikning uzoq muddatli dasturlarini rivojlantirish;

-ichki turizm sohasi uchun kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish chora-tadbirlari kompleksini amalga oshirish, turizm tarmoq fanini rivojlantirishga ko‘maklashish²⁷ kabi vazifalar belgilandi.

Xullas,turizm sohasi bugungi kunda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida e’lon qilingan farmonida mamlakatimizni 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi ko‘rsatib berildi. Mazkur hujjatning uchinchi yo‘nalishi Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari ga bag‘ishlangan.Bunda Tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish ga²⁸ doir bir qancha yo‘nalishlar belgilangan. Unda turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, ichki turizm infratuzilmasini kengaytirish masalasi ham ustuvor vazifalar qatoridan joy olgan.

Turizm sohasi bugungi kunda yanada jadal rivojlanishi uchun tegishli sharoit va me’yoriy hujjatlar yaratilishi izchillik bilan davom ettirilmoqda. Jumladan, 2017 yil 16 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-2019 yillarda ichki turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida gi qarori qabul qilindi. Ko‘p o‘tmasdan 2018 yil 3 fevralda Prezidentning O‘zbekiston Respublikasi ichki turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘srimcha tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida gi Farmoni ham e’lon qilindi. Bunda belgilangan asosiy vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan yana ikkita hujjat imzolandi. Bular 2018 yil 6 fevralda Kirish ichki turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida gi, 2018 yil 7 fevralda Ichki ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari

²⁷O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 28 iyulda "O‘zbekturizm" Milliy Kompaniyasi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 360-sonli Qarori.

²⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. Mazkur Farmon mamlakatimizni 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi o‘z tasdig‘ini topgan.

to‘g‘risida gi qarorlaridir. Shuningdek, Prezidentimizning 2019 yil 5 yanvardagi O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida gi PF-5611-sonli Farmoni ham ichki turizm sohasini rivojlantirish yo‘lidagi ustuvor yo‘nalishlarimizni belgilab berishda muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur hujjatlarda ichki turizmga iqtisodiyotning hal qiluvchi sohasi sifatida alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu farmon va qarorlar hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarish uchun nafaqat amaliy, balki bir qancha ilmiy-nazariy va metodologik muammolarning ham hal qilishini taqozo qiladi.

1.3 Turizm resurslaridan foydalanishning rivojlangan mamlakatlar tajribasi va mamlakat turizm sohasida qo’llanilishi.

Yevropa sharqiy yarim sharda joylashgan bo‘lib, uning umumiy maydoni 10.5 mln.kv.km tashkil qiladi. Mintaqa turistik resurslarga juda boy bo‘lib, yer shari bo‘yicha alohida ajralib turadi. Yevropa qirg‘oqlari, Atlantika va Shimoliy muz okeani va uning 10dan ortiq daryolar, 15ta kata-kichik ko‘llari, 25taga yaqin orollari, 10dan ortiq tog‘ tizmalari, takrorlanmas vulkanlari, xilma-xil iqlim poyaslari, rang-barang tabiat zonalari azal-azaldan sayyoohlarni o‘ziga jalb qilib kelgan.Yevropa qadimdan turizm yuqori darajada rivojlangan dunyo regioni hisoblanadi. Fransiyaga yiliga 50 mln. dan ortiq, Italiya va Ispaniyaga 30 - 40 mln. kishi turistik sayohat qiladi. Shvetsariya, Portugaliya, Germaniya, Avstriya, Buyuk Britaniya, Gretsya va boshqa shu kabi mamlakatlar ham jahonning yirik turistik markazlari hisoblanadi.

Yevropa aholisi, shaharlari zinch joylashgan, sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi yuqori bo‘lgan, transport va turizm rivojlangan regiondir. Bu esa atrof-muhitning ifloslanishiga ta’sir ko’rsatadi.

Bu borada birinchi o‘rinda hududning asosiy joylarini egallagan iflos sanoat ishlab chiqarishlarni nazarda tutish kerak. Masalan, ko‘mir konlari hamda Reyn, Rona, Luara va boshqa daryolardagi GES lar shular jumlasidandir.

Regionning atrof-muhitiga tobora jipslashib borayotgan qishloq xo‘jaligi katta ta’sir ko’rsatmoqda. Avtomobil sanoatining yuqori darajada rivojlanishi,

havoda yuk tashish hajmining kengayishi, dengizda kema qatnovlarining ko'payishi ham atrof-muhitga ta'sir etmay qo'ymaydi. Oxirgi paytda dengizbo'yi va tog'li rayonlarda turizmning ham tez sur'atlar bilan rivojlanishi atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ammo, umumiy o'xshashliklarga qaramasdan, ekologiya sohasida Yevropa regionlari o'rtasida, ayniqsa, G'arbiy va Sharqiy Yevropa o'rtasida tafovut mavjuddir.

Yevropada 1973- yilda atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi Yevropa Ittifoqi davlatlarining birinchi dasturi qabul qilindi. Ikkinci dastur esa 1977-yilda qabul qilindi. Ekologik muammolarni, atrof-muhitni har xil zararli ta'sirlardan saqlash, ekologik barqarorlikni yuzaga keltirish uchun tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, ekologik ekspertizalarni tashkil etish maqsadida davlatiararo maxsus komissiya qarorlari qabul qilindi. 80-90 - yillarda tabiatni muhofaza qilish va ekologik muammolar to'g'risida 300 dan ortiq hujjatlar qabul qilindi.

Bu muammolar ichida toza havoni iftoslantiruvchi kislotali yomg'irdan saqlash Xalqaro konvensiyasi juda muhim o'rinni egallaydi.

Shuningdek, tabiatni muhofaza qilish fondi Yevropa Ittifoqi tomonidan qo'llab-quvvatlana boshlandi. Bundan tashqari, 80- yillarning oxiri va 90- yillarda tabiatni muhofaza qilishning to'liq strategiyasi ishlab chiqildi. Atrof-muhitni bir me'yorda ushlab turish maqsadida, 90- yillarning boshlariga kelib, neft mahsulotlaridan, ko'mir va tabiiy gazdan oqilona foydalanish maqsadida Yevropa Ittifoqi tomonidan soliqlar tizimi muhokama qilingandan so'ng qabul qilindi.

Yana shuni ta'kidlash mumkinki, har xil boshqa yo'nalishlar bo'yicha ham qator ishlar amalga oshirildi. Masalan, yo'l harakati intensiv bo'lgan joylarda yashaydigan kishilar Yevropa Ittifoqi tomonidan 140 mln. dona velosiped bilan ta'minlandi. Shuningdek, Gretsya, Niderlandiya, Daniyada ekologik muammolarni hal qilish uchun kengaytirilgan ishlar olib borildi. 1993-yil tabiatni muhofaza qilish, turizmni rivojlantirish borasida Yevropa Ittifoqi maxsus qarorlar qabul qildi. Bu qarashlardan asosiy maqsad, dengiz atroflarida, tog'li rayonlarda, milliy parklarda, qo'riqxonalarda ekologik masalalarga, ekologik barqarorlikka ko'proq e'tibor berishdan iboratdir.

Yevropa xalqaro turizm oqimining ilk bor tashkil etilgan mintaqasidir. Hozirgi vaqtida uning siyosiy xaritasida 40tadan ortiq davlatlar mavjud bo`lib, ulardan 27tasi Yevropa Ittifoqi tashkilotiga birlashgan. Yevropada dunyoning iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan qudratli davlatlari (Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya Italiya va Rossiya Federatsiyasi) joylashgan.

Xorijiy Yevropa (MDH davlatlaridan tashqari) dunyo aholisining eng zinch joylashgan mintaqalaridan biri. Uning hududida yer shari aholisining 8foizidan ortiq qismi yashaydi. Yevropa dunyoda eng yirik, qadimiy shaharlari, ibodatxonalar, sport inshootlari, ko`ngilochar dam olish maskanlari, kurortlari, shifobaxsh mineral suvlari, dengiz playjlari, mehmonxonalar, restoranlar, zamonaviy transport kommunikatsiyalari(aeroportlar, dengiz, daryo portlari, temiryo`l, avtomobil vokzallari, yuqori sifatli avtomobil yo`llari, tezyurar poyezdlari va havo kemalari, yuqori sifatli okean va dengiz yo`lovchi kemalari), rivojlangan bank va moliya tashkilotlari, xilma-xil servis xizmati ko`rsatuvchi korxonalar barchasi xalqaro turizmnинг rivojlanishiga juda kata imkoniyatlar tug`diradi.

Fransiya hozirgi kunda Yevropada eng ko`p turistlar kelib ketuvchi mamlakat bo`lib hisoblanadi. Fransiyaga kelib ketuvchi turistlarni jalb etuvchi asosiy turistik resurslar mamlakatning xilma xil boy tabiiy resurslari(Alp tog`lari, yassi tog`lar, karst platolari, past tekisliklar, daryo vodiylari, yam yashil o`rmonlar)dir. Keyingi vaqtida chiqish turizmining fransuz bozorida yangi tendensiya paydo bo`ldi. Shengen bitimi qabul qilingandan va birlashgan Yevropa mamlakatlari o`rtasida viza rejimi bekor qilingandan so`ng Fransiyada qisqa muddatli safarlar ulushi o`smaqdida. Uzoq muddatli safarlar salmog`i esa kamaymoqda. Fransiya hamon dunyoda eng ommaviy turistik yo`nalish bo`lib qolmoqda.

Parij shahri mamlakatda turistlarning kelishi bo`yicha yuqori o`rinni egallaydi. Shaharda dunyoga mashhur bo`lgan Eyfel minorasi, Notrdam ibodatxonasi, eng yirik Luvr muzeyi, Napalyon Bonapart qabri, Lyuksenburg va Tyuirli bog`lari, Disneylend ko`ngilochar, dam olish manzilgohlari, ilm-fan

markazlari Lyo Vilett shahri kabilar beqiyos, son-sanoqsiz turistlarni o`ziga chorlaydi.

Yevropada xalqaro tashrif buyuruvchi turistlar soni bo`yicha Fransiyadan keyingi o`rinda Ispaniya davlati egallaydi. Bu ikki mamlakat har yili 80mlndan ziyod turistlarni qayd etmoqda. Bu yerda asosiy turistlar oqimi G`arbiy Yevropa mamlakatlariga to`g`ri keladi, Ispaniyada har beshinchi dam oluvchi Germaniya yoki Buyuk Britaniya fuqarosidir. Ispaniya xorijiy sayyoohlarga plyajlari, dam olishdan tashqari kengko`lamli ekskursiya dasturlarini taklif qilib kelmoqda. Mamlakatdagi asosiy turistlar oqimi Salvador Dali teatr muzeyi, prado muzeyi, Ispaniya qiroli rezidensiyasi, ochiq osmon shahar muzeyiga yo`naltirilgan.

Keluvchi turistlar umumiy soni bo`yicha Yevropada Italiya davlati uchinchi o`rinni egallaydi. Italiya o`zining xilma-xil arxitektura yodgorliklari, madaniyati, rassomlik, haykaltaroshlik san`ati bilan dong taratgan mamlakatdir. Italiyaga ko`proq Fransiya, Germaniya, Shvetsariya, Avstriya, Xorvatiya, Slaveniya, Serbiya va Chernagoriya mamlakatlari fuqarolari tashrif buyurishadi. Mamlakatda turistlar ko`proq Venetsiya, Florensiya, Pizu, albatta Rim shaharlariga borishga intiladilar. Turistlarning to`xtovsiz oqimi Vatikanga borib ziyyarat amallarini bajo keltirish uchun harakat qiladilar.

Yevropada xorijiy sayohatga chiquvchi davlatlar o`rtasida Germaniya alohida o`rinni egallaydi. Bu yerda chet ellarga chiquvchi turistlar soni yiliga o`rtacha 5%ga o`snoqda. So`nggi yillarda nemislar 80mln ga yaqin xorijiy safarni amalga oshirishdi. BTT ma`lumotlariga ko`ra, Germaniya turistlarining xorijiy sayohatga chiqishi 2020-yilga borganda ikki barobarga o`sishi kutilmoqda va uning umumiy soni 163.5mln kishiga teng bo`lishi mo`ljallangan. Jahonda har o`n safardan biri nemis fuqarolari ulushiga to`g`ri keladi va bu ko`rsatkich bo`yicha Germaniya o`zining yetakchiligini saqlab qoladi. Chiqish turizmining nemis bozorida avjj olishi xarakterlidir. 90% dan ortiq safarlar Yevropa hududlarida amalga oshiriladi. BTT ma`lumotlariga ko`ra eng yirik o`nta turistik oqimlarning beshtasi Germaniyada tashkil qilinadi. Nemislar o`z ta`tillarini G`arbiy va Janubiy Yevropada: Ispaniya, Italiya, Avstriya, Fransiya, Gretsiya, Niderlandiya,

Shvetsariyada o'tkazishni ma'qul ko'rishadi. Keying vaqtarda turistlar uchun Markaziy va Sharqiy Yevropa- Polsha, Chexiya, Vengriya ommaviy turizmda mashhur bo'lib bormoqda. Turistik yo'naliш sifatida bu mamlakatlarning bosh ustunliklaridan biri arzonligidir. Masalan, chegara rayonlarida yashovchi ko'pchilik nemislar tushlik paytida ovqatlanish uchun Chexiyaga borishadi.

So'nggi yillarda turistlarning chet ellarga sayohatga chiqishi bo'yicha Chexiya davlati, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Niderlandiya kabi mamlakatlarni orqada qoldirib ketdi. Turizm Polsha, Vengriya, Ruminiya, Sloveniya kabi mamlakatlarda ham tezkorlik bilan rivojlanib bormoqda.

Chexiya milliy turistik ma'muriyati ma'lumotlariga ko'ra, har yili jahoning 70 mamlakatidan 50mln.dan ortiq kishi davolanish uchun, 2mln ekskursantlar tashrif buyurishadi. Chexiya hududida Karlova Varidan tashqari yevropada eng qadimiy kurortlardan biri Teplitse, dunyoda birinchi radonli sanatoriy-kurort Yaximov, Marian-Lazni va Frantishkavi-Lazni, Lugachovitse, shuningdek, Yevropada birinchi ochilgan Yanske-Lazni bolalar falajini davolashga ixtisoslashgan kurortlari bor. Yevropa davolash-sog`lomlashtirish turizmi bozorida Chexiyaning bosh raqobatchisi Vengriya hisoblanadi. Uni haqli ravishda termal hammomlar(yer osti issiq suvi) yurti deb atashadi. Bu sutkada quduqlar va tabiiy issiq suv manbalaridan yarim million kubgacha termal suvlar otilib oqadi. Ularning bir qismi tibbiyotda foydalilaniladi. XXI asrda Vengriya Yevropada cho'milish va suv bilan davolanishning markaziga aylandi. Bugungi kunda 22ta Vengriya shahri va 62 posyolkasi davolanish maskanlari sifatida rasman tan olingan.

Balneologik kurortlarga tashrif buyurish Vengriyaga sayohatlarning bosh motivatsiyalaridan biri hisoblanadi. Mamlakatga kelgan turistlarning har uchinchisi suvlarga brogan. Vengriya kurortlarida dam olish va davolanish, ayniqsa, Germaniya, AQSH, Avstriya, shuningdek Vengriyaning o'zini aholisi o'rtasida juda mashhur. Vengriya poytaxti Budapesht shifobaxsh suvlar sshahri maqomini olgan. Uning diqqatga sazovor joylaridan biri sharq hammomlari hisoblanadi. U 16-17 asrlar turk hukmronligi davridan buyon saqlanib kelmoqda va hozirgacha ishlab kelyapti.

Polsha davolanish-sog`lomlashtirish turizmi bozorida balneologik va balchiq bilan davolash kurortlari- Svinouysse, Kamen-Pomorski, Kolobjeg Boltiq dengizi qirg`oqlarida joylashgan. Ular chex va venger kurortlariga nisbatan kam tanilgan va hozircha ular bilan raqobatlasha olmaydi. Zarur reklama yo`qligi tibbiy xizmat darajasining uncha yuqori emasligi, shuningdek, sovuq dengiz polyak kurortlari imkoniyatlarini cheklab qo`yayapti. Polshada davolanish sog`lomlashtirishning dengiz bo`yi turizmini rivojlantirishga xuddi uch Boltiqbo`yi davlatlari Estoniya, Latviya, Litva singari hududdagi noqulay ekologik vaziyat ham salbiy ta`sir qilayapti. Bacterial ifloslanish darajasining oshishi munosabati bilan ayrim Boltiq bo`yi plyajlari yopilayapti, cho`milish ta`qiqlanmoqda. Shuning uchun Polshaning dengiz bo`yi rayonlariga turistlar kelishi keskin qisqarib ketayapti. Chexiya, Vengriya va Polshadan tashqari, davolanish sog`lomlashtirish turizmi Bolgariya, Ruminiya, sobiq Yugoslaviya respublikalarida ham rivojlanmoqda. Bu mamlakatlar issiq dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo`lishib, davolanish sog`lomlashtirish dasturida asosan dengiz bo`yi iqlimi tipidagi kurortlarga taklif qiladi. Bundan tashqari Xorvatiyada Yevropada yagona naftalan-turli xildagi neft konlari ochilgan va ular tibbiyotda foydalaniladi. Uning bazasida barpo etilgan Ivanich Grad kurorti tayanch harakat apparatlari, teri kasalliklariga duchor bo`lgan mijozlarni qabul qiladi.

G`arbiy Yevropa mamlakatlari kurortlari uzoq an`analari bilan ajralib turadi. Bu yerda dunyo ahamiyatiga molik kurortlar joylashgan: Germaniyada Baden-Baden va Visbaden, Fransiyada Vishi, Belgiyada Spa va boshqalar. Ular ayniqsa, 19 asrning 2-yarmida nafaqat dam olish, balki shifobaxsh joy sifatida rivojiana boshlagandan keyin mashhur bo`lib ketdi. Avstriya haqli ravishda o`zining kurortlari bilan faxrlanadi. Ulardan eng mashhuri Gastyan daryosi vodiysidagi janubiy Zalsburg provinsiyasida joylashgan Badastyan balneologik kurortidir. U issiq radon buloqlari bazasida barpo etilgan. Avstriya balneologik va iqlim kurortlaridan tashqari ko`l bo`yi davolash sog`lomlashtirish turizmi safarlarini ham rag`batlsntirmoqda. Har yili Atterze, Mondze, Toplitze ko`llari 1mln turistni jalg etadi. Kelayotgan butun turistlarning 20%i davolanish maqsadida kelayotganlar

tashkil etadi. Shvetsariya kurortlari soni bo'yicha Avstriya va Germaniyadan biroz orqada bo'lsada, ammo davolash va sog'lomlashtirish turizmi yo'nalishi bo'yicha mashhurlikda ulardan qolishmaydi. Shvetsariyaliklar va xorijiy mehmonlarda balneologik salomatlik maskanlari va ayniqsa, tog' iqlimi kurortlari shuhrat qozongan. Shvetsariya birinchilar qatorida o't-o'lanlar bilan davolashni tajriba qilib ko'rgan. O't olanlar qaynatmalariva damlamalari organism himoya qobiliyatini mustahkamlaydi. Markazlarda dermatoz, modda almashinuvi buzulishi, diabet, bo'g'in kasalliklari, asab buzilishlari muvaffaqiyatli davolanadi.

Janubiy Yevropa davolash-sog'lomlashtirish turizmi bozori asosan Italiya bilan tanilgan. Uning balneologik kurortlari mamlakat shimoli-sharqida Emilya-Romaniya viloyatida va nafaqat termal suvlari, balki shifobaxsh balchig'i bilan ham nim qozongan Iskya orolida to'plangan, Portugaliya, Ispaniya, Gretsiya turistlarni o'zlarining dengiz bo'yi iqlim kurortlari bilan jalb etadi. Bu kurortlar dam olish va ko`ngil ochish zonalari sifatida shuhrat qozongan.

Shimoliy Yevropada davolash-sog'lomlashtirish turizmi past darajada rivojlangan. Daniya, Norvegiya, Finlandiya, Shvetsiya va Niderlandiya kabilar dengiz bo'yi kurortlari bilan ajralib turadi. Ammo ular ko'proq ichki ahamiyatga egadirlar.

Amerikada, Yevropadagi singari turistik oqimlarining kattagina qismi hudud ichida jamlangan. Ayniqsa Shimoliy Amerikaning uch davlati AQSH, Kanada va Meksika o'rtaida turistik almashinuvlar jadal yo'lga qo'yilgan.

BTT ma'lumotlariga ko'ra AQSHdan Meksikaga boradigan turistik oqimlar jahonda eng yirik hisoblanadi. Turistlar AQShga geyzerlar vodiysida bo'lish, Yellowton milliy parkida tirik geologiya paydo bo'lishini o'z ko'zlari bilan ko'rish uchun tashrif buyurishadi. Ulkan stalagtatlar osilib turgan Karl Sbad g'orini tomosha qiladilar. President Teodor Ruzvelt Amerikaning buyuk diqqatga sazovor joyi deb ta'riflagan grand Kan'on beqiyos panaramasiga mahliyo bo'ladilar. Kalifornianing qumloq plyajlarida cho'milib, dam olib huzr qiladilar. Ammo tashrif buyuruvchilarni faqat boy tabiat go'zalliklarigina maftun etib qolmaydi. Balki, xorijiy mehmonlarni AQSH poytaxti Vashington va Nyu York shaharlari va

Monxettonning betonli osmono`par binolari, Kolumbiya universiteti, banklar ko`chasi Uoll stritt, mashhur Bruklin ko`prigi, Metropoliten opera maskanlari ham jalb etadi. Turistlarni boshqa Amerika shaharlari va shtatlari, masalan, Gollivud kinostudiysi, Disneylend quvnoq parki joylashgan Los Angeles shahri ham befarq qoldirmaydi.

AQShda shakllanayotgan boshqa turistik oqimlar yo`nalishlari orasida Osiyo –Tinch okeani hududi ajralib turadi. Bu hudud amerikaliklarda xuddi yevropaliklardagi singari ommaviy e`tabor qozongan. Amerikalik turistlar ko`proq Xitoyga tashrif buyurishadi.

BTT bashoratlari bo`yicha 2025 yilga borib, jahonning boshqa hududlari bilan Amerika o`rtasida turistlar almashinuvi jadalligi ortadi. Amerika bozorida kirish turizmida Yevropa, Osiyo-Tinch okeani hududi va Yaqin Sharq yaxshi istiqbollarga ega.

Amerika qit`asida davolash –sog`lomlashtirish turizmi bozorida shubhasiz AQSH yetakchi o`rinni egallaydi. Uning sog`lijni saqlashdagi yutuqlari (organlar va hujayralarni ko`chirib o`tkazish, kardioxirurgiya, plastic operatsiya) butun dunyoda tan olingan. Vrachlar va yordamchi tibbiyot xodimlar dunyoda eng malakali va mahoratli hisoblanadilar. Klinik komplekslar ilm-fan yutuqlarining eng so`nggi uskunalari bilan jihozlangan. Ammo AQSHda tibbiy yordam juda qimmat turadi. Shuning uchun ham amerikaliklar o`z sog`liqlariga jiddiy e`tibor bilan qaraydilar. Turli kasalliklar oldini olish choralarini ko`radilar va shu maqsadda kurortlarga boradilar.

Shimoliy Amerika kurortlarining asosiy turi –balneologik tipda. Ular barcha shtatlarda mavjud bo`lib, AQSHning markaziy qismida Arkansas shhtatida joylashgan Xot-Springs, Xiber-Springs, Mammot-Springs kurortlari o`zining mineral suvlari bilan mashhur. Nyu York shahri chekkasidagi Long Bich, Atlantika okeani qirg`og`idagi Xatteras, Shimoliy Karalina, Floridadagi Mayami Bich, Kaliforniyadagi San Diego va Santa Kruz dengiz bo`yi iqlim kurortlarida dam olishga talab katta. Ko`l bo`yi kurortlari ham mashhur. Ko`pchilik Amerikaliklar dam olish va davolanish uchun Markaziy Amerika, Barbados, Kuba va Bagam

orollarini ma`qul ko`rishsada, bu ko`l bo`yi kurortlari ham doimo gavjum.

1-bob bo'yicha xulosa

Turizmda turizm resurslaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishni iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati va o'rni, uni rivojlantirishda davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari tadqiq qilib, bir qancha xulosalarga kelindi va ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyatga molik taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

1.Turizm resurslariga yaxlit holatda qaraladigan bo'lsa iqtisodiy kategoriya siftida qarab, unga quyidagicha ta'rif berildi. **turistik resurslar** – tabiiy, tarixiy, ijtimoiy – madaniy va boshqa turistlarni sayohatga qiziqtiradigan, insonning jismoniy, ruhiy va aqliy kuchini tiklashi va rivojlanishi ehtiyojlarini qondirishga qodir ob'ektlarga aytildi. Rekreatsiya faoliyati nuqtai nazardan turistik resurslarga tabiiy va antropogen geosistemalar kiradi, tabiat manzaralari, rekreatsiya faoliyati ehtiyoji qiymatiga va maishiy xususiyatga ega, insonlarni ko'rsatilgan vaqtda ma'lum texnologiyalar yordamida sog'ligini tiklash va dam olishida foydalanish mumkin bo'lgan, rekreatsiya faoliyati qobiliyatiga ega resurslar kiradi.

Turistik resurslarning mohiyati shundan iboratki, turistik mahsulot shakllanishiga asos hisoblanadi. Umumiy qilib aytganda, aniq hududda turistik faoliyatda foydalanish mumkin bo'lgan barcha ob'ektlar kiradi. Turizmni rekreatsyaning ko'rinishi sifatida olsak, «turistik resurslar» tushunchasi «rekreatsiya resurslari» bilan birgalikda uyg'unlashadi.

2. Turistik resurslardan foydalanishda xo'jalik yurituvchi sub'ekt sifatida ham qarab, uning ham ta'rifi ishlab chiqildi. Shu nuqtai nazardan qaralsa, uni turistik korxona, deb atash lozim bo'ladi va unga quyidagicha ta'rif berish mumkin, degan xulosaga keldik. **Turistik korxona** deganda, turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi, tegishli banklarda o'zining hisob raqamiga va buxgalteriya balansiga ega bo'lgan, mustaqil xo'jalik yurituvchi tadbirkorlik sub'ekti tushuniladi.

3. Turizm resurslaridan foydalanish turizm sohasida birinchidan, aholining bandligini ta'minlaydigan, ularni dam oldiradigan, davolaydigan, ma'lum

ma'noda malakasini va tajribasini oshirishga xizmat qiladigan soha bo'lsa, ikkinchidan, tadbirkorga ham, turistik firmaga ham, ma'lum hududga ham, davlatga ham daromad keltiradigan iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylandi. Shu jihatdan ushbu sohani ijtimoiy-iqtisodiy soha deb aytish maqsadga muvofiq, degan xulosaga keldik.

4.Xulosa qilib aytganda, **turizm resurslaridan foydalanish turizm sohasi** iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati va o'rni, uni rivojlantirishda davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, ichki turizm tarmog'ining o'rni, uning shakllanish va rivojlanish tarixi,turizm tarmog'ining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi rolining ochib berilishi soha faoliyatining nazariy masalalarini o'rganishga, uning rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

II BOB: QASHQADARYO VILOYATI TURIZM RESURSLARIDAN FOYDALANISH XOLATI TAHLILI.

2.1 Qashqadaryo viloyatida turizm resurslarini imkoniyatlari va samaradorligini oshirish modellari.

Vazirlar Mahkamasi 2019-2025 yillarda ichki turizmni rivojlantirish milliy konsepsiyasini ishlab chiqdi va bugungi kunda uning ijrosini ta'minlashga doir tashkiliy tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu dasturda 2025 yilda yurtimizga tashrif buyuradigan xorijiy sayyoohlar sonini 7 million nafarga, ichki turizmdan tushum yillik daromadni esa 2 milliard

dollarga yetkazish lozim²⁹, degan topshiriq o‘z aksini topgan. Bunga erishishda barchaning ishtirokini ta’minlash lozim. Ayniqsa, tarixchi, arxiolog, qadimshunos kabi olimlarning ham tarixiy obidalar haqidagi asarlarini ommalashtirish, noma'lumlari ustida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish maqsadga muvofiq.

Hozirgi kunda mamlakatimizdagi turistik ob’ektlarning 200 tasida restovratsiya ishlari ketmoqda, 500 tasi esa qayta ta’mirlash va restovratsiyaga muhtoj. Bu ishlar uchun ham davlat byudjetidan milliardlab mablag‘ ajratilmoqda. Lekin bu soha faqat byudjetga ko‘z tikib qolishi mumkin emas. U o‘zini-o‘zi mablag‘ bilan ta’minlash bilan birga, valyuta va naqd pul tushumini ko‘paytiradigan sohaga ham aylanmog‘i lozim.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ko‘pgina mamlakatlarda restovratsiya (qayta tiklash) jarayoni ham turistik ob’ekt sifatida foydalaniladi. Bunda ushbu ob’ektning asl holi loyihasi, bugungi ahvoli, qayta tiklash jarayoni va qanday bo‘lish kerakligi ko‘rsatiladi. Albatta bu holatlar tarixiy ob’ektlar uchun muhim hisoblanadi. Bu esa turistlarni o‘zlariga jalg qilishi tabiiy.

O‘zbekistonning turistik salohiyati katta ekanligi bilan birga, ularning ayrim shaharlari o‘ta diqqatga sazovordir. Masalan, turistlarning ko‘rishi mumkin bo‘lgan ob’ektlar soni bo‘yicha Qashqadaryo viloyatining ichki turizmini rivojlantirish sohasida qo‘yidagilarni keltirishimiz mumkin:

- Madaniy me’ros ob’ektlari, ziyoratgoxlar, arxitektura yodgorliklari, arxeologik obidalar, muzeylar jami 1321 ta.
- Mehmonxonalar 54 ta xonalar 2282 ta
- Xostel 1 ta
- Uy mehmonxonalari 41 ta
- Sanatoriyalar 4 ta
- Turopertorlar 20 ta
- Gidlar 26 ta
- Turistik avtotransport korxonalar 3 ta

²⁹Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2018 йил 28 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // “Халқ сўзи” газетаси. 2018 йил 29 декабрь.

- SGSh 370 ta
- Axborot markazlari 26 ta.

Qashqadaryo viloyatida 2019 yil 16-17 mart kunlari I Xalqaro ko‘pkari o‘yinlari Kitob tumani Qaynar qishlog‘ida tog‘ yon bag‘irlarida o‘tkazildi. 21-22 mart kunlari II Xalqaro Milliy liboslar festivali Shahrisabz shahrida bo‘lib o‘tdi, 9-aprel kuni Amir Temur tavallud kuni munosabati bilan Shahrisabz shahrida tadbir o‘tkazildi, 8-9 may kunlari Qarshi va Shahrisabz shaharlarida Abdulla Oripov xotirasiga bag‘ishlangan I-Xalqaro Oltin so‘z adabiyot festivali bo‘lib o‘tdi. Festivalda Turkiya, Fillipin, Norvegiya, Italiya, Qozog‘iston, Tojikiston va O‘zbekistonlik adabiyotshunoslar ishtirok etishdi, 14-15 iyun kunlari I-Xalqaro Endourologiya forumi bo‘lib o‘tdi. Forumda ishtirok etish uchun 200 dan oshiq xalqaro va mahalliy tibbiyot xodimlari vakillari Shahrisabz shahriga tashrif buyurishdi, 25-27 iyun kunlarida Qarshi shahar Mulla Tuychi drama teatr maydonida va Shahrisabz shahri tarixiy maydonida Oq saroy oldida OPEN AIR. SAHRO SIMFONIYASI bo‘lib o‘tdi, unda 30000 dan ortiq tomoshabin musiqa tinglab madaniy xordiq oldi, 1-3 avgust kunlari Qashqadaryo viloyat hokimligi hamda Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi bilan hamkorlikda I-Halqaro Geoturistik forum bo‘lib o‘tdi. 13 dan ortiq davlatdan 35 ga yaqin xorijiy geolog va professorlar ishtirok etishdi, 8-9 avgust kunlari Keshlik alommalar mavzusida seminar o‘tkazildi, 26-30 sentyabr kunlari Shahrisabz va Kitob tumanlarida o‘tkaziladigan Anor I xalqaro agroturistik festivali hamda Kitob tumanining Varganza qishlog‘ida birinchi turizm qishlog‘i tashkil etildi, 5 noyabrida Qarshi tumani Abu-l-Muin An-Nasafiy ziyoratgoxiga 250 kishidan iborat xorijiy delegatsiya ziyorat qilish uchun tashrif buyurdi.

Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatini targ‘ib etish maqsadida mahalliy va xorijiy axborot vositalari orqali videoroliklar tayyorlanib keng ommaga targ‘ib etildi.

1) Qashqadaryo viloyatining turistik salohiyati milliy madaniyati, milliy kiyimlari, uyinlari va urf odatlari to‘g‘risida 7 ta videoroliklar tayyorlandi.

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 avgustdagи Oilaviy mehmon uylari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida 631-sonli qaroriga asosan:

Qashqadaryo viloyatida xozirgi kunga qadar jami 41 ta mehmon uylari tashkil etilgan bo‘lib, kun sayin ularning soni ortib bormoqda.

Ulardan Qarshi shahrida 4 ta , Shahrisabz shahrida 33 ta, Kitob tumanida 2 ta, Shahrisabz tumanida 1 ta hamda Chiroqchi tumanida 1 ta mehmon uylari faoliyat olib borishmoqda.

2.1.1-jadval.

Qashqadaryo viloyatida xozirgi kunga qadar jami mehmon uylari soni³⁰.

<i>Nо</i>	<i>Makon</i>	<i>Soni</i>
1	Qarshi shahrida	4ta
2	Shahrisabz shahrida	33 ta
3	Kitob tumanida	2 ta
4	Shahrisabz tumanida	1 ta
5	Chiroqchi tumanida	1 ta
Jami;		41 a

2 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 10 oktyabridagi Davlat o‘rmon xo‘jaligi organlarining faoliyatini takomillashtirish va o‘rmon xo‘jaliklarining chegara hududlari tabiiy resurslaridan foydalanish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida gi 717-sonli qaroriga asosan:

Qashqadaryo viloyatida jami 8 ta o‘rmon xo‘jaligi hamda 1 ta Jovuz qo‘riqxonasi mavjud bo‘lib, ulardan xozirgi kunga qadar 4 tasida ilmiy tekshiruv va tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.Joriy yil 1-3 avgust kunlari Kitob tumanida I Xalqaro Geoturistik forum o‘tkazilgan bo‘lib, ushbu forum doirasida Jovuz qo‘riqxonasiga GEOPARK unvoni berilishi kutilmoqda va bu tashabbus YuNESKO tomonilan qo‘llab quvvatlanilmoqda. 16-19 noyabr kunlari Yunesko vakillari tomonidan Jovuz qo‘riqxonasi o‘rganib chiqildi.

³⁰ Muallif ishlanmasi.

3 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 24 noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasida mehmonxona biznesini jadal rivojlantirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida gi 954-sonli qaroriga asosan:

Qashqadaryo viloyatida jami 26 ta bo‘s sh turgan yer uchastkalari mehmonxona biznesini jadal rivojlantirish maqsadida tadbirkorlik sub’ektlariga ajratilgan.

Asosan Qarshi shahrida 5 ta, Kitob tumanida 6 ta, Koson tumanida 3 ta, Yakkabog‘ tumani 3 ta, Nishon tumanida 2 ta, Muborak tumanida 2 ta, Qarshi tumanida 1 ta, Kasbi tumanida 1 ta, Dehqonobod tumanida 1 ta, Shahrisabz tumanida 1 tahamda Mirishkor tumanida 1 tadan yer uchastkalari tadbirkorlarga ajratilgan.

4 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 3 dekabrdagi Ekoturizmni rivojlantirish va suv omborlarining suvni muhofaza qilish zonalari doirasida yer uchastkalari ajratish tartibini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida gi 978-sonli qaroriga asosan:

Vazirlar Mahkamasining 978-sonli qarorining 1-ilovasiga Qashqadaryo viloyatidan jami 3 ta suv ombor kiritilgan bo‘lib, ulardan Shahrisabz tumani Xisorak suv omboridan 3 ga, Yakkabog‘ tumani Qizilsuv suv omboridan 1 ga hamda G‘uzor tumani Pachkamar suv omboridan 0.5 ga yer ajratilgan bo‘lib, ushbu hududlarda ekoturizmni rivojlantish maqsadida targ‘ibot ishlari amalga oshirilmoqda, xorijiy va mahalliy tadbirkorlar (investorlar) qidirilmoqda.

Ushbu mavjud turistik ob’ektlardan tashqari yana bir qancha ob’ektlarni barpo qilish mumkin. Birgina Qashqadaryo viloyatini oladigan bo‘lsak, uning Shaxrisabz, Kitob, Muborak, Karshi, G‘uzor kabi manzarali tog‘-daralari borki, bu joylarga piyoda marshrutlarni tashkil qilish va ekologik ichki turizmni rivojlantirish mumkin. Ammo bunday salohiyatdan samarali foydalanish masalasiga hamon yetarli darajada e’tibor qaratilgan emas.

Albatta yoz fasllarida shu daralarda odamlar juda gavjum bo‘ladi. Lekin bular o‘z ixtiyori bilan borgan dam oluvchilardir. Tashkiliy tarzda bu tog‘ manzaralariga sayohatlar uyushtirish hamon yo‘lga qo‘yilmagan.

Mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri unda sharqona bozorning rivojlanganligidir. Bu ob’ektlar ham ko‘p jihatdan o‘zimizga xos bo‘lib, boshqa hududdan kelgan turistlarni qiziqtirishi tabiiy. Bu joylar turistlarning tomoshasi uchun tayyor bo‘lganligi tufayli ularni turistik marshrutga kiritishni ham tashkil qilish lozim. Bozorlarning turistik ob’ektlarga kiritilishi ikki jihatdan foyda. Birinchidan, turistlarga o‘zimizning boy noz-ne’matlarimizni ko‘rsatish imkoniyati tug‘ilsa, ikkinchidan, sharq shirinliklarini, ekologik toza meva mahsulotlarimizni sotish imkoniyati ham tug‘iladi va xorijiy valyuta tushumini ta’minlaydi. Buning uchun har bir turistik ob’ektga kiritilgan bozorning ko‘zga tez tashlanadigan joyida pul almashtirish shahobchalarini ham tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Bizda turistlarga ko‘rsatiladigan servis xizmati juda past darajada. Birgina misol, ayrim mutaxassislarning tadqiqot natijasi shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonga kelgan turistlarning 60 foizi bu yerga faqat servis xizmatining pastligi evaziga qaytib kelmasligini bildirgan³¹. Bu bizda turistlarga servis xizmatini ko‘rsatishni yaxshilash bo‘yicha hali ancha ishlarni amalga oshirishlozimligini ko‘rsatadi. Bu yo‘nalish bo‘yicha birinchi galda kadrlar masalasini hal qilish yuzasidan ayrim ishlar qilindi. Xususan, Qashqadaryoda va boshqa bir qancha shaharlarda ichki turizm kollejlari ochildi, Qarshi Davlat universiteti, kabi oliv o‘quv yurtlarida ichki turizmga oid bakalavr va magistrler tayyorlashga kirishildi. Ammo bu keng ko‘lamli tez rivojlanayotgan ichki turizmga turistik xizmatlarni amalga oshirishni to‘liq ta’minlashi uchun yetarli emas.

Bu sohaga kadrlarni turli mulk shakliga ega bo‘lgan o‘quv yurtlarida tayyorlash maqsadga muvofiq. Shunda haqiqiy erkin raqobat vujudga keladi va har bir o‘quv muassasasi o‘z kadrlarining raqobatbardoshligini ta’minlashga harakat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, kadrlar tayyorlashning sifat va samaradorligining oshishida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Bunday jarayonda tayyorlangan kadrlar, tabiiyki, juda ko‘p sifat ko‘rsatkichlariga ega bo‘ladi va ichki turizmda servis xizmatining yuqori darajaga ko‘tarilishi uchun asosiy omil bo‘ladi.

³¹ Файзиева Ш. Основные направления развития туризма в Узбекистане. // Экономический вестник Узбекистана. № 3-4, 2004. – 61 бет.

Xullas, ichki turizmni rivojlantirish uchun viloyatimiz salohiyati beqiyos. Undan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish, ichki turizm industriyasini qaror toptirish vohaning iqtisodiy o‘sishini ta’minlaydigan asosiy sohalardan biriga aylanishi tabiiy.

Qavshqadaryo viloyatining turistik salohiyati shu qadar yuksak va rangbarangki, undan faqat shumaqsad uchun oqilona foydalanish lozim. Chunki, mamlakatimizda ichki turizmni rivojlantirish uchun yo‘nalishlar tomosha va o‘rganadigan ob’ektlar ko‘lami juda keng. Bundan turistlarni dam oldirishdan tortib piyoda sayohatgacha, oddiy ko‘zdan kechirishdan tortib ilmiy ekspeditsiyagacha bo‘lgan jarayonlarni tashkil qilish mumkin.

2.2 Qashqadaryo viloyati turizm resurslarining hozirgi holati va rivojlanish dinamikasi.

Bugungi kunda mamlakatimiz miqyosida va Qashqadaryo viloyatida turizmni rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasiga asosan dasturlar ishlab chiqilgan va ular bo‘yicha qizg‘in ishlar amalga oshirilmoqda. Bunga har bir viloyat va hudud o‘zining xususiyatlaridan, mavjud turistik resurslaridan kelib chiqqan holda yondoshilmoqda.

1. Qarshi shahri salohiyati. Qarshi shahrida jami 60 ta moddiy madaniy meros ob’ektlari mavjud bo‘lib shundan 28 ta arxeologiya, 25 ta arxitektura, 6 ta monumental, 1 ta diqqatga sazovor joylarni tashkil etadi. Qarshi shahri ziyorat turizm uchun juda rivojlangan bo‘lib, Ko‘k Gumbaz masjidi, Qashqadaryo ko‘prigi, Abu Ubayda ibn al –Jarroh yodgorlik majmuasi kabi bir qancha madaniy meros ob’ektlari va boshqalar bilan mahalliy va xorijlik mehmonlarni jalb qilish mumkin. Qarshi shahriga gastronomik turizm uchun ham turistlarni jalb qilish mumkin. Qarshi shahridagi Chorsu tandiri hali hamon xorijiy mehmonlarni o‘ziga rom etadi.

2. Qarshi tumani salohiyati. Bugungi kunda Qarshi tumanida jami 128 ta moddiy madaniy meros ob’ektlari mavjud bo‘lib shundan 105 ta arxeologiya, 15 ta arxitektura, 4 ta monumental va 4 ta diqqatga sazovor joylarni tashkil etadi. Qarshi

tumanida ziyorat turizm uchun juda rivojlangan bo‘lib, Mu’in an-Nasafiy yodgorlik majmuasi, Yetti tug‘ ota maqbarasi, Hazrat Sulton maqbarasi, Shayx Shilvi masjidi hamda Xo‘ja Shamsiddin Xolvoniy maqbarasi kabi bir qancha madaniy meros ob’ektlar bilan mahalliy va xorijlik mehmonlarni jalb qilish mumkin.

3. Kasbi tumani salohiyati. Kasbi tumanida jami 95 ta moddiy madaniy meros ob’ektlari mavjud bo‘lib shundan 79 ta arxeologiya, 11 ta arxitektura, 3 ta monumental va 2 ta diqqatga sazovor joylarni tashkil etadi. Qasbi tumanida ziyorat turizm uchun juda rivojlangan bo‘lib, Sulton Mir Haydar yodgorlik majmuasi hamda Murod Baxshi ota maqbarasi kabi bir qancha madaniy meros ob’ektlar bilan mahalliy va xorijlik mehmonlarni jalb qilish mumkin.

4. Koson tumani salohiyati. Koson tumanida jami 92 ta moddiy madaniy meros ob’ektlari mavjud bo‘lib shundan 76 ta arxeologiya, 11 ta arxitektura, 4 ta monumental 1 ta diqqatga sazovor joylarni tashkil etadi. Qoson tumanida ziyorat turizm uchun juda rivojlangan bo‘lib, Xusam shayx ota yodgorlik majmuasi kabi bir qancha madaniy meros ob’ektlar bilan mahalliy va xorijlik mehmonlarni jalb qilish mumkin.

5. G‘uzor tumani salohiyati. G‘uzor tumanida jami 109 ta moddiy madaniy meros ob’ektlari mavjud bo‘lib shundan 94 ta arxeologiya, 9 ta arxitektura, 3 ta monumental 3 ta diqqatga sazovor joylarni tashkil etadi.

6. Mirishkor tumani salohiyati. Mirishkor tumanida jami 18 ta moddiy madaniy meros ob’ektlari mavjud bo‘lib shundan 9 ta arxeologiya, 6 ta arxitektura, 2 ta monumental 1 ta diqqatga sazovor joylarni tashkil etadi.

7. Nishon tumani salohiyati. Nishon tumanida jami 7 ta moddiy madaniy meros ob’ektlari mavjud bo‘lib shundan 3 ta arxeologiya, 1 ta arxitektura, 3 ta monumental yodgorliklarni tashkil qiladi.

8. Muborak tumani salohiyati. Muborak tumanida jami 8 ta moddiy madaniy meros ob’ektlari mavjud bo‘lib shundan 2 ta arxeologiya, 3 ta arxitektura, 2 ta monumental va 1 ta diqqatga sazovor joylarni tashkil etadi. Muborak tumani chul hududda joylashganligi sababli ushbu tuman salohiyati xaqida gapirsak tuman

hududida ekstremal turizm yani (avto rally) hamda ov turizmi utkazish uchun juda qulay.

9. Dehqonobod tumani salohiyati. Dehqonobod tumanida jami 40 ta moddiy madaniy meros ob'ektlari mavjud bo'lib shundan 33 ta arxeologiya, 4 ta arxitektura, 2 ta monumental va 1 ta diqqatga sazovor joylarni tashkil etadi. Dehqonobod tumani hududida Xujaypok sho'r kul mavjud bo'lib, ushbu hududda tibbiyot turizmini rivojlantirish mumkin.

10. Qamashi tumani salohiyati. Qamashi tumanida jami 66 ta moddiy madaniy meros ob'ektlari mavjud bo'lib shundan 59 ta arxeologiya, 3 ta arxitektura, 1 ta monumental va 3 ta diqqatga sazovor joylarni tashkil etadi. Qamashi tumani tog'li hududdan iborat bo'lganligi sababli ushbu hududda ekoturizmni rivojlantirish mumkin.

11. Shahrisabz tumani salohiyati. Shahrisabz tumanida jami 162 ta moddiy madaniy meros ob'ektlari mavjud bo'lib shundan 138 ta arxeologiya, 22 ta arxitektura va 2 ta diqqatga sazovor joylarni tashkil etadi. Shahrisabz tumani Xisor tog' yon bag'irlarida joylashganligi sababli ushbu hududda ekoturizmni rivojlantirish mumkin.

12. Shahrisabz shahrisalohiyati. Shahrisabz shahrida jami 62 ta moddiy madaniy meros ob'ektlari mavjud bo'lib shundan 29 ta arxeologiya, 28 ta arxitektura, 5 ta monumental yodgorliklarni tashkil etadi. Shahrisabz shahrida Oq saroy majmuasi,Doruttilovat majmuasi, Ko'k Gumbaz masjidi, hamda Shayx Shamsiddin Kulol makbarasi joylashgan bo'lib ushbu hududda ziyorat turizmi juda rivojlangin.

13. Chiroqchi tumani salohiyati. Chiroqchi tumanida jami 79 ta moddiy madaniy meros ob'ektlari mavjud bo'lib shundan 58 ta arxeologiya,16 ta arxitektura, 3 ta monumental va 2 ta diqqatga sazovor joylarni tashkil etadi. Chiroqchi tumanida agroturizm, gastronomik turizm hamda Amir Temur kichik g'ori va Siypantosh ziyorat maskanlari mahalliy va xorijiy mehmonlarni o'ziga jalg qilmoqda.

14. Yakkabog‘ tumanı salohiyati. Yakkabog‘ tumanida jami 237 ta moddiy madaniy meros ob’ektlari mavjud bo‘lib shundan 195 ta arxeologiya, 38 ta arxitektura, 2 ta monumental va 2 ta diqqatga sazovor joylarni tashkil etadi. Yakkabog‘ tumanida tog‘ hududlar mavjud bo‘lganligi sababli ekoturizm va ekstremal turizm keskin mahalliy va xorijiy turistlar ichida qiziqish orttirmoqda.

15. Kitob tumanı salohiyati. Kitob tumanida jami 158 ta moddiy madaniy meros ob’ektlari mavjud bo‘lib shundan 135 ta arxeologiya, 16 ta arxitektura, 3 ta monumental va 4 ta diqqatga sazovor joylarni tashkil etadi. Kitob tumanı tog‘ yon bag‘irlarida joylashganligi sababli ekoturizmni, ekstremal turizmni, ov turizmni hamda ziyorat turizmni rivojlantirish uchun imkoniyatlar mavjud. Hazrati Bashir maqbarasi va Hazrati Sulton maqbarasi kabi bir qancha ziyoratgoxlar mahalliy va xorijiy turistlarni qiziqishlarini kundan kunga oshirib bormoqda.

Bu borada Qashqadaryo viloyati va shahri ham o‘ziga xos xususiyat va yo‘nalishlarga ega. Shu tufayli ilmiy tavsiyalarimizni birinchi galda, ushbu hududga mos tarzda ishlab chiqishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Bunda ichki turizmni rivojlantirish uchun bir qancha tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish zarur. Hozirgi paytda o‘nlab bunday mexanizmlardan foydalanilmoqda. Bugungi kun talabidan va hududning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, biz ayrim bunday dastaklarni taklif qilmoqdamiz:

- ✓ turizm infratuzilmasini ko‘paytirib, ularni yanada kuchaytirish;
- ✓ tematik parklar qurish va yangi turistik marshrutlarni tashkil qilish;
- ✓ ichki turizm xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida xorijiy tajribalarni o‘rganish va amaliyatga joriy qilish;
- ✓ turizmga mo‘ljallangan ob’ektlarni muxandislik-kommunikatsiya tarmoklariga ulash;
- ✓ madaniy meros ob’ektlari va muzeylarda SMART texnologiyasini joriy etish;
- ✓ xorijiy sayyoohlarni qabul qilishga tayyorlash, ularga tungi vaqtda faoliyat ko‘rsatishiga ruxsat berish tartibini o‘rnatish maqsadida restoranlarni xatlovdan o‘tkazish;

- ✓ tematik parklarni tadbirkorlik sub'ektlarini jalb qilgan holda tashkil etish;
- ✓ turistlarga milliy an'analarimizdan tortib, milliy taomlarimiz va boshqa milliy qadriyatlarimizni ko'rsatadigan sharoitni yaratish lozim;
- ✓ ichki turizm yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar uchun respublikamizning yetakchi turoperatorlik tashkilotlari malakali mutaxassislarini jalb qilgan holda muntazam mahorat darslarini tashkil qilish;
- ✓ maxsus yo'l ko'rsatkich belgilarining milliy an'analarni o'zida aks etirgan xolda uzbek, rus va ingliz tillarida axborot beruvchi yagona standartlarini ishlab chiqish;
- ✓ Qashqadaryo viloyatining imkoniyatidan kelib chiqib, shaharga yaqin joylarda ekologik ichki turizmni rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlarni ishga solish lozim;
- ✓ sayyoohlar va aholi gavjum bo'ladigan joylarda kuzatuv kameralarini o'rnatish va axborot markazlarini tashkil etish.

Turizm infratuzilmasini ko'paytirib, ularni yanada kuchaytirish zarurati mamlakatimizda, shu jumladan, Qashqadaryo viloyatida ham kelgusida sayyoohlar sonini ortishini inobatga olgan xolda amalga oshirilishi lozim. Ichki turizm infratuzilmalari, shu jumladan, mehmonxona, kemping, motel, tematik park, muzey, galereya va boshka turistlarni qabul qiladigan va joylashtiradigan joylarni ko'paytirishni taqozo qiladi. Buning uchun Qashqadaryo viloyatida va uning turistik resurslari bor hududlarida xatlov o'tkazish orkali bo'sh turgan yer maydonlarini aniqlash va zaxira sifatida belgilash lozim. Bunda, aniqlangan bo'sh turgan yer maydonlarini va zaxira hududlarda ichki turizm infratuzilmalarini barpo etish buyicha yangi joylarning dizayn-loyihalarini jahon standartlariga mos ravishda ishlab chiqish ham maqsadga muvofiqdir. Bu ishlar uchun Qashqadaryo davlat arxitektura va qurilish instituti olimlari va mutaxassislarini jalb qilish lozim. Ushbu tadbirlarga belgilangan xarajatlari birinchi galda tadbirkorlar hisobidan va ayrim hollarda hozir tashkil qilingan ichki turizmni rivojlantirish byudjetdan tashqari jamg'arma mablag'lari hisobidan qoplanishi mumkin.

Tematic parklar qurish va yangi turistik marshrutlarni tashkil qilish turistlarni ko‘paytirishning yana bir yo‘nalishi bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, xorijiy sayyoohlar oqimini oshirish maqsadida xorijiy mutaxassislar bilan tajriba almashish va chet el investorlarini jalb qilish ham ichki turizmni rivojlantirish mexanizmlaridan biridir. Bu bo‘yicha viloyatimizda yangi imkoniyatlar paydo bo‘ldi.

Ichki turizm xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida xorijiy tajribalarni o‘rganish va amaliyatga joriy qilish ham bugungi kunda o‘ta muhimdir. Ichki turizmni rivojlantirish hududiy boshqarmasi xodimlari hamda soha tadbirkorlari muntazam ravishda ichki turizm sohasida yetakchi bo‘lgan davlatlarga ularning tajribalarni o‘rganish uchun xizmat safariga yuborishni tashkil qilishi ham maqsadga muvofiq. Bu ishlarni amalga oshirish uchun tematik parklarni kurish va yangi turistik marshrutlarni ishlab chiqib, ulardan samarali foydalanish yo‘llarini xorijiy tajribalardan foydalangan holda ishlab chiqish lozimdir.

Ichki turizmni rivojlantirish davlat ko‘mitasining byudjetdan tashqari jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan turli tipdag‘i 20 o‘rindan 100 o‘ringacha bo‘lgan mehmonxonalar hamda o‘tov uylar v milliy mehmonxonalar loyihalarini ishlab chiqishga buyurtma berish va loyihalarning mehmonxona qurish istagini bildirgan tadbirkorlik sub’ektlariga davlat tomonidan bepul taqdim etilishini ta’minlash ham sohaning rivojlanishiga tegishli tarzda turtki bo‘ladi.

Ichki turizmga mo‘ljallangan ob’ektlarni muxandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ular masalasi ham jahon tajribasiga tayangan holda xalqaro talablarga javob berishi lozim. Shuni inobatga olish joizki, ichki turizm ga mo‘ljallangan ob’ektlarni muxandislik-kommunikatsiya tarmoklariga ular yuzasidan ruxsat beruvchi hujjatlar uchun sarflanadigan xarajatlar tegishli shahar va tumanlar hokimliklarining mahalliy byudjet mablag‘lari evaziga qoplanishi ham soha tadbirkorlari uchun qo‘srimcha imkoniyat va imtiyoz bo‘lib hisoblanadi. Bunday xarajatlar turistik tashkilotlar uchun bilvosita xarajat bo‘lganligi tufayli, ularni unchalik qiziqtirmaydi va mos ravishda tezroq amalga oshirilishiga rag‘bat

kam bo‘ladi. Tabiiyki, bunday holat ishning samarali amalga oshirilishiga to‘siq bo‘lishi mumkin.

Madaniy meros ob’ektlari va muzeylarda SMART texnologiyasini joriy etish masalasi ham bugungi talabga to‘liq javob beradi, chunki kuzatuvlarimiz ko‘rsatdiki, mazkur sohada ancha kamchiliklar mavjudligi ko‘zga tashlanmoqda. Qashqadaryo viloyatidagi barcha madaniy meros ob’ektlari va muzeylarda SMART texnologiyalarini joriy etishning qulayligi shundaki, mazkur texnologiya natijasida tashrif buyuruvchilarni elektron ro‘yxatga olish tizimini joriy etish imkonini beradi. Shuningdek, turistik ob’ektlarga audiogidlarni o‘rnatish, muzey eksponatlari va tarixiy obidalarning xorijiy tillardagi elektron kataloglarini hamda madaniy meros ob’ektlariga bitilgan arab yozuvlarini tarjima qilish va o‘qish imkonini beruvchi mobil dasturini yaratish ishlarining amalga oshirilishi ham ichki turizm ning rivojlanishi uchun muhim omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. Mazkur dasturlarni yaratish uchun ichki turizmni rivojlantirish hududiy boshqarmasi bilan Madaniyat vazirligiga qarashli tashkilotlar hamkorligi ham muhim ahamiyatga ega.

Xorijiy sayyoohlarni qabul kilishga tayyorlash, ularga tungi vaqtida faoliyat ko‘rsatishiga ruxsat berish tartibini o‘rnatish maqsadida restoranlarni xatlovdan o‘tkazish ham maqsadga muvofiq, chunki mavjud restoranlarning hammasiga xorijiy mehmonlarni qo‘yib bo‘lmaydi va tungi vaqtida faoliyatini ta’minlash bir qancha qo‘sishimcha xizmatlarni ham talab qiladi. Qashqadaryo viloyatiga tashrif buyurgan xorijiy va mahalliy sayyoohlarning tungi vaqtlarini qiziqarli tashkil etish, sayyoohlarning qolish muddatlarini uzaytirish, shuningdek mahalliy servis ob’ektlarining daromadlarini ko‘paytirish maqsadida Qashqadaryo shahri va turistik ob’ektlari bor tumanlardagi restoranlarni xatlovdan o‘tkazish, xorijiy sayyoohlarni qabul qilishga tayyorlash, ularga tungi vaqtida faoliyat ko‘rsatishiga ruxsat berish tartibini tasdiqlab berish lozim.

Tematic parklarni tadbirkorlik sub’ektlarini jalb qilgan holda tashkil etish ham Qashqadaryo viloyatiga xorijiy va mahalliy sayyoohlarning tashrif kunlarini uzaytirishga xizmat qiladi. Chunki turistik marshrutlarga bir kechani shu yerda o‘tkazish rejasini kiritish orqali ushbu maqsadni amalga oshirish imkoniyati

tug‘iladi. Shu maqsadda Qashqadaryo shahri va viloyat tumanlarida yangi tematik parklarni barpo etish lozim bo‘ladi.

Turistlarga milliy an'analarimizdan tortib, milliy taomlarimiz va boshqa milliy qadriyatlarimizni ko‘rsatadigan sharoitni yaratish lozim bo‘ladi. Chunki turistlar, ayniqsa xorijiy turistlar uchun barcha milliy an'analarimizdan tortib, taomlarimiz va boshqa ashyolarimiz ham qiziqarli bo‘ladi. Faqat uni namoyish qilish yo‘lini bilishimiz lozim. Viloyatda muzey sifatidagi ko‘rgazmalar, jumladan paxta, atlas, keramika, milliy uslubdagi taqinchoqlar, hunarmandchilik, meva-sabzavot mahsulotlari, qovun navlari, tuxumli ovqat turlari, Butunjahon madaniy merosi sifatida tan olingan o‘zbek palovi, uning turlari, tandir kabob, tovuq mahsulotlari va baliq mavzularidagi muzeylarni tashkil etish ham o‘ziga xos betakror turistik ob’ektlardan biri bo‘ladi.

Qashqadaryo va Shaxrisabz shahri va tumanlar markazlarida turli millatlarning (koreys, uyg‘ur, nemis, turkman, turk, qirg‘iz, qozoq, tojik va h.k.) milliy taomlarini tayyorlaydigan yangi Milliy taomlar markazi ni va restoranlarni tashkil etish xam turistlarni jalg qilishning yana bir yo‘nalishidir.

Qashqadaryo viloyatining imkoniyatidan kelib chiqib, shaharga yaqin joylarda ekologik ichki turizm ni rivojlantirish uchun qo‘srimcha imkoniyatini ishga solish lozim. Viloyatning Kitob tumani etno-ekologik va agro ichki turizm ni rivojlantirish maqsadida, sohil bo‘ylariga o‘tovlar, turli milliy mazmundagi mehmonxonalar qurish, sayr qiladigan bog‘lar barpo etish, sohilda basseynlar tashkil etish, milliy taomlar restoranlari va kafelarini ishga tushirish, sohil bo‘yining bio-xilma-xilligi va landshaftini tasvirga tushirish bo‘yicha ijod qiladigan shohobchalarni tashkil etish, sun’iy sharsharalarni yaratish bo‘yicha aniq manzilli loyiha takliflarini ishlab chiqib, amalga oshirilishini ta’minalash lozim. Ushbu majmuaga viloyatda tashkil qilingan eshkak eshish kompleksidan ham samarali foydalanish imkoniyatlarini ishga solish maqsadga muvofiq.

Ichki turizm yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar uchun respublikamizning yetakchi turoperatorlik tashkilotlari malakali mutaxassislarini jalg qilgan holda muntazam mahorat darslarini tashkil qilish

natijasida nazariyani amaliyot bilan birga olib borish imkonini tug‘diradi va talabalarda amaliy ko‘nikmani shakllantirishga yordam beradi. Qashqadaryo shahrida joylashgan Qashqadaryo iqtisodiyot va servis instituti Qashqadaryo davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti ichki turizm yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar va ichki turizmga ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlari uchun respublikamizning yetakchi turoperatorlik tashkilotlari malakali mutaxassislarini jalb qilgan holda muntazam mahorat darslariningtashkil qilinishini ta’minalash hamda talabalarining amaliyotini aynan shu joylarda o‘tkazish ham sohaga tayyor kadrlarni yetkazib berishda ancha samara beradi.

Maxsus yo‘l ko‘rsatkich belgilarining milliy an’analarni o‘zida aks ettirgan xolda o‘zbek, rus va ingliz tillarida axborot beruvchi yagona standartlarini ishlab chiqish ham dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Turistlarga qulayliklar yaratish maqsadida maxsus yo‘l ko‘rsatkich belgilarining milliy an’analarni o‘zida aks ettirgan xolda o‘zbek, rus va ingliz tillarida axborot beruvchi yagona standartlarini ishlab chiqish ham bevosita bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda tavsiya qilinmoqda. Bu ishda tartib bo‘lishligini ta’minalash uchun ichki turizmni rivojlantirish davlat ko‘mitasi va uning mintaqaviy bo‘linmalari tomonidan turistik yo‘l ko‘rsatkichlarining o‘rnatalishi yuzasidan monitoring tashkil etish ham maqsadga muvofiq.

Sayyoohlar va aholi gavjum bo‘ladigan joylarda kuzatuv kameralarini o‘rnatish va axborot markazlarini tashkil etish bo‘yicha aniq manzilli choratadbirlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bu birinchidan, turistlarning xavfsizligini ta’minalashga imkoniyat yaratishi bilan birga, ikkinchidan jahon standartlari talabiga ham javob beradi. Mazkur ishlarni viloyatning sayyoohlar va aholi gavjum bo‘ladigan joylari, ayniqsa, diqqatga sazovar joylar, tarixiy obidalar, ekoturistik manzillarda tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Qishloq hududlarini, ularning milliy an’analarni, yashash sharoitlarini ko‘rishni juda hohlashadi. Ammo asosan shahar joylarida joylashga mehmonxonalarda tunashni afzal ko‘rishadi. Ushbu masala bo‘yicha so‘rovnama

o‘tkazilgan 217 nafar xorijiy turistlardan olingan natijalar quyidagicha bo‘ldi (2.2.1-jadval).

2.2.1-jadval

Xorijiy turistlardan qaerda yashashini xohlashi bo‘yicha olingan so‘rovnama natijalari(2023 yil)³².

№	Qayerda yashashni xohlaysiz? So‘rovnama savollari	Javoblar soni, kishi	Ulushi,%
1.	Qashqadaryo shahridagi mehmonxonalarda	178	82,0
2.	Hududdagi tarixiy-madaniy turistik ob’ektlari bor joylardagi mehmonxona-larda	7	3,2
3.	Hududdagi ekologik turistik ob’ekti bor mehmonxonalarda	19	8,8
4.	Mehmonlarni kutishga mo‘ljallangan hududdagi mehmon uylarida	3	1,4
5.	Men uchun qaerda tunashning ahamiyati yo‘q	6	2,8
6.	Xavfsizligi ta’minlangan turoperator-lar tavsiya qilgan joyda	4	1,8
JAMI		217	100,0

Mazkur jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, xorijiy turistlarning asosiy qismi, ya’ni 82,0 % Qashqadaryo shahridagi mehmon-xonalarda tunashni xohlaydi. Ularning bir qismi albatta ekologik manzarali joylarda yashashga ham istak bildirganlar va ularning ulushi 8,8 % ni tashkil qiladi.


Tadqiqotlarimiz ko‘rsatdiki, mazkur ilmiy tavsiyalarning amaliyotda qo‘llanilish ichki turizm sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rnini yanada mustahkamlaydi va samaradorligini oshirish, yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish evaziga bandlik muammosini hal qilib, ijtimoiy muammolarning ham yechimiga xizmat qilish imkoniyatlarini yaratadi.

2.3 Turizm industriyasida turizm resurslaridan foydalanishning samaradorlik tahlili.

³² Muallif ishlanmasi.

Turizm tarmoq sifatida har qanday mamlakat iqtisodiyotida mavjud. Ushbu sohaning YaIM tarkibida bir mamlakatda kam, ikkinchisida ko‘p bo‘lishi mumkin. Bu bevosita o‘sha mamlakatda turistik resurslarning mavjudligi va shu mamlakat aholisining sayohatga moyilligi bilan bog‘liq.

Ichki turizmga iqtisodiyotning bir tarmog‘i sifatida qaraladigan bo‘lsa, uning samaradorligiga ham shu yo‘nalishdan kelib chiqqan holda yondoshmoq lozim. Agar shunday yondoshiladigan bo‘lsa, uni ikki yo‘nalishda baholashga to‘g‘ri keladi. Baholash uchun esa, tabiiyki ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Bu borada bir qancha fikrlar mavjud. Xusan, M.Q.Pardaev, Q.J.Mirzaev va O.M.Pardaevlar samaradorlik ko‘rsatkichlarini iqtisodiyotning bo‘g‘inlari bo‘yicha 3 guruhga (makroiqtisodiyot, mezoiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot darajasidagi ko‘rsatkichlar), iqtisodiyotning tarmoqlari bo‘yicha 4 guruhga (sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, xizmat ko‘rsatish va boshqa sohalar bo‘yicha) bo‘lganlar³³. Ichki turizm tarmog‘ining xususiyatlaridan kelib chiqib, uning samaradorligini ifodalash uchun ularni iqtisodiy mazmunidan kelib chiqqan holda ikki guruhga bo‘lish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bular iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy samaradorlik ko‘rsatkichlaridir. Ularning bir-biri bilan bog‘liqligi quyidagi rasmda keltirilgan (2.1-rasm).



2.3.1-rasm. Turizm tarmog‘i samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar guruhlari³⁴

Tadqiqot jarayonida har bir guruh ko‘rsatkichlarga nimalarning kirishi va ularni aniqlash yo‘llarini ishlab chiqdik.

Turizm tarmog‘ining **iqtisodiy samaradorligini** ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish uchun oldin uning ta’rifini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Chunki uning nazariy talqinini ifoda etmasdan turib, amaliy yo‘nalishini to‘g‘ri olib borish murakkab. Ushbu holatdan kelib chiqib, ichki turizm tarmog‘ining iqtisodiy samaradorligiga quyidagicha ta’rif berishni tavsiya qilmoqdamiz.

Turizm tarmog‘ining iqtisodiy samaradorligi deyilganda, ushbu turizm tarmog‘ida turistik resurslardan foydalanishda mamlakat iqtisodiyotiga qo‘shgan hissasining va sohani rivojlantirish orqali turistlar va ulardan olinadigan foydaning ko‘payishiga muttasil erishib borish orqali o‘zining ham rivojlanishini ta’minlaydigan iqtisodiy imkoniyatlarni yaratganligi tushuniladi.

Endi ushbu nazariy qarashga mos holda ushbu soha samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish mumkin.

Turizm tarmog‘ining iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarga quyidagilarni kiritishni tavsiya qilamiz:

- turistik jarayonning tezligi (T_t);
- turistlar intensivligi (T_i);
- turistlarning foydaliligi (T_f);

Ushbu ko‘rsatkichlarning bir-biri bilan bog‘liqligi quyidagi rasmda keltirilgan.(2.3.2-rasm).

Turizm tarmog‘i shunday sohaki, u nafaqat iqtisodiy ahamiyatga, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega sohadir. Shu tufayli ushbu tarmoqning iqtisodiy ko‘rsatkichlari bilan birga **ijtimoiy samaradorlik** ko‘rsatkichlarini ham aniqlash lozim bo‘ladi. Bu holatda ham ushbu tushunchaning ta’rifini ishlab chiqishni taqozo

³⁴ Muallif ishlanmasi.

qiladi. Ushbu zaruratdan kelib chiqib, mazkur sohaning ta’rifini bershni maqsadga muvofiq, deb topdik.

Turizm tarmog‘ida turistik resurslardan foydalanishda ijtimoiy samaradorlik deyilganda ushbu sohaning aholini ish bilan bandligini ta’minalash, farovonligini oshirish, madaniy va intellektual saviyasini ko‘tarishga qaratilgan ob’ektiv voqelikni keltirib chiqarishi bilan bog‘liq jarayonlar tushuniladi.

Mazkur ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, ichki turizmning ijtimoiy samaradorligi ham keng qamrovli tushuncha ekan. Endi ushbu tushunchani qamrab oladigan ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish mumkin:

-ichki turizm tarmog‘ida **ijtimoiy samaradorlik** ko‘rsatkichlarga quyidagilarni kiritish mumkin;

-ichki turizm da band bo‘lgan aholining umumiyligi aholidagi ulushi;

-ichki turizm da band bo‘lgan aholining o‘rtacha ish haqining darajasi;

-ichki turizm da yaratilgan yangi ish o‘rinlarining umumiyligi yaratilgan yangi ish o‘rinlaridagi ulushi;

-ichki turizm tarmog‘ida yaratilgan YalIMning mamlakat YalIMdagi ulushi;

-ichki turizm tarmog‘idan to‘langan soliqlarning umumiyligi soliqlardagi ulushi;

-tarmoqda turistlarning savdo, umumiyligi ovqatlanish, transport, mehmonxona kabi xizmatlarining o‘sishiga ta’siri kabilar:

Turistik jarayonining tezligi (T_t)

- Mazkur ko'rsatgich qancha turist ma'lum vaqt davomida harakat qilganligi, shu jumladan kelganligi yoki ketganligi bilan ifodalandi.

Turistlar intensivligi(T_i)

- Ushbu ko'rsatgich umumiyligida aholi sonining qancha qismi bir yil davomida turist sifatida xarakatlanganligini ifodalaydi.

Turistlarning foydaliligi(T_f)

- Turizm soxasida bir turistga tug'ri keladigan soʻf foydaniq miqdorini ifodalaydi.

2.3.2-rasm.Turizm tarmog‘ining iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va ularning tavsifi.³⁵

Qashqadaryo viloyatidagi turistik resurslarning afzalliklari va kamchiliklarini, kuchli va kuchsiz tomonlarini tahlil qilish uchun universal va samarali usul hisoblangan SWOT tahlil usuli qo llaniladi. Ushbu universal usul, ayniqsa, turistik mintaqaga va mamlakatning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilishda samarali bo ladi. SWOT tahlili turistik hududda rivojlanayotgan sharoitlarni aniqlab olishga yordam beradi, ichki afzalliklar va kamchiliklar tasirini imkoniyatlar va tahdidlar ta siri bilan muvozanatlashtiradi.

SWOT-tahlil muvaffaqiyatning asosiy omillarini, ya ni hududning turizm faoliyati uchun eng qulay bo lgan afzalliklari, kamchiliklari, imkoniyatlari va tahdidlarini aniqlashga yordam beradi. Shunday qilib, birinchi bosqichda quyidagi savollar guruhlari bo'yicha tahlil o'tkazildi. 2.3.1-jadval ma'lumotlaridan Qashqadaryo viloyatidagi turistik hududning afzalliklari, kamchiliklari, imkoniyatlari va tahdidlarini ko rishimiz mumkin. Afzalliklar turistik mintaqaga raqobat kurashida tayanadigan asos bo'lib xizmat qiladi, uni kengaytirish va

³⁵ Turizm tarmog‘ining iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va ularning tavsifi. Mualli ishlanmasi.

mustahkamlash kerak. Zaif tomonlarni tahlil qilishga va samarasiz faoliyat yonalishlarini bosqichma-bosqich yoq qilishga alohida e'tibor berilishi kerak.

2.3.1-jadval.

Qashqadaryo viloyatidagi turistik hududning SWOT tahlili³⁶.

<i>Ichki omillar</i>	
Kuchli tomonlar	Kuchsiz tomonlar
turizmni rivojlantirish uchun tabiiy resurslarning etarli darajada mavjudligi; atrof-muhit hamda ob-havoning mo tadilligi; yaxshi raqobatbardosh qobiliyatlarga ega bo lish; iste molchilar orasida hududning obro si yaxshiligi; turizm bozorida hudud etakchisi mavjudligi; yaxshi o ylangan turizm strategiyasi mavjudligi; turizm sohasida o ziga xos texnologiyalarga egaligi; sayohat xizmatlari narxida afzalliklar mavjudligi; turizm sohasidagi raqobatchilardan afzalliklari borligi, hudud turizm sohasida innovatsiyalarni amalga oshirishga qodirligi.	strategik yo nalistning etishmasligi; sayyoqlik bozoridagi tashqi pozitsiya; eskirgan texnologiyalardan foydalanish menejmentning qoniqarsiz darjasи; buyurtmalar bajarilishini yomon nazorat qilish; raqiblarga yutqazish; sayyoqlik biznesi korxonalarida xodimlarning marketing mahoratining zaifligi
<i>Tashqi omillar</i>	
Imkoniyatlar	Tahdidlar
iste molchilar guruhlarining yangi segmenti bilan ishslash; mahsulotlar turini diversifikatsiya qilish; hududning tezroq foydali strategik guruhlarga o tish qobiliyati; raqobatdosh hududga nisbatan ishonch; bozorning tez o sishi.	yangi raqobatchilar paydo bo lishi; raqobatdosh hudud tomonidan taqdim etiladigan o xhash sayohatlar yoki xizmatlar savdosining o sishi.

Tadqiqotchilarining e'tirof etishicha, dunyoning ko'pgina mamlakatlarida turistik xizmatlarni eksport qilish natijasida katta iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini qo'lga kiritish mumkin. Butunjahon turistik tashkilotining ma'lumotlari bo'yicha hisob-kitob qilinadigan bo'lsa, o'rtacha 1 nafar turistga Fransiyada 313,8 AQSh dollari to'g'ri keladi, Ispaniyada – 509,1 AQSh dollari, Amerika Qo'shma

³⁶ Muallif ishlanmasi.

Shtatlarida esa 1640,5 AQSh dollarini tashkil qiladi³⁷. O‘zbekistonda 2018 yilda bizning hisob-kitoblar bo‘yicha, 452 AQSh dollarini tashkil qiladi³⁸. Bizda ushbu ko‘rsatkichning miqdori juda kam. Har bir turistdan ko‘proq mablag‘ni olib qolish uchun xorijiy turistlarga ularning talabidan kelib chiqqan holda qo‘srimcha xizmatlarni ko‘paytirishni taqozo qiladi. Bu esa o‘z navbatida, ichki turizmni jadal rivojlantirishning milliy dasturini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

2-bob bo‘yicha xulosa

Turizm resurslaridan foydalanish mexanizmlari tarmog‘ining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari va unda ichki turizmni rivojlantirish borasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, ichki turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari hamda ichki turizm tarmog‘ining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini oshirish yo‘llari va ularni baholash usullarini tadqiq qilib bir qancha xulosalarga kelindi:

1. Turizm resurslaridan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, mazkur soha bo‘yicha davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini, uning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni guruhlash va ularni tadqiq qilish masalalari mamlakatimiz olimlari tomonidan kam o‘rganilgan va mos ravishda iqtisodiy adabiyotlarda ham kam yoritilgan.

2. Turizmni rivojlantirish borasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari bosqichma-bosqich takomillashib borishi natijasida, uning soni oshib yangilari bilan to‘ldirib borilayotganganligi qayd etildi va har biriga izoh berildi.

3. Tadqiqotlarimiz ko‘rsatdiki, turizm sohasi quyidagi iqtisodiy funksiyalarini bajarishi ta’kidlandi, ya’ni;

- turistik mahsulotlarni ishlab chiqarishni amalga oshiradi;
- aholini ish bilan ta’minalash orqali bandlik muammosini hal qiladi;
- milliy daromadni yaratishda ishtirok etadi;
- mintaqalarning barqaror rivojlanishini ta’minalaydi;

³⁷ Турсунов А.Қ. Туризм бозорининг ўзига хос хусусиятлари, турлари ва уларнинг моҳияти. //Мамлакатни модернизациялаш шароитида иқтисодиётни ривожлантиришнинг долзарб муаммолари. РИАК материалари. (1-қисм) (2012 йил 17 февраль). Самарқанд, СамИСИ, 2012. Б. 31-34.

³⁸ Туристлар сони, улардан келадиган даромадлар асосида муаллиф хисоб-китоби.

- mamlakat to‘lov balansini barqarorlashtirishda ishtirok etadi;
- mamlakatda tadbirkorlikning shakllanishi va rivojlanishida ham muhim rol o‘ynaydi.

4. Turizm sohasi bilan shug‘ullanadigan aholi qatlamining alohida guruhlari bo‘yicha ishtiroki quyidagi yo‘nalishlarda tavsiflanishi asoslandi:

- ichki turizm sohasida bevosita band bo‘lgan aholi;
- ichki turizm sohasida bilvosita band aholi;
- ichki turizm sohasiga o‘z joyida turib xizmat qiluvchi sohalarda faoliyat ko‘rsatadigan aholibandligi;
- turistik ob’ektlar va infratuzilmalarning qurilishdagi va ularga xizmat qilishdagi band aholiga bo‘linishi va ushbu guruhlarning har biriga qanday aholining kirishi asoslab berildi.

5. Tadqiqot davomida turizm sohasini samarali rivojlantirish evaziga qanday natijalarga erishish mumkinligi ko‘rsatib berildi, ya’ni:

- ichki turizm mamlakatimizning yalpi milliy mahsuloti soha hisobiga oshiriladi;
- davlat budgetining soliq to‘lovlari va boshqa to‘lovlarning o‘sishi hisobiga to‘ldiriladi;
- aholini ish bilan ta’milanishi, yangi ish o‘rinlarini yaratilishiga erishiladi;
- chet mamlakatlar kapitali sohaga jalb etilishiga va valyuta tushumining ko‘payishiga erishiladi;
- turizm sohasini rivojlantirish barobarida davlatning boshqa sohalarini ham rivojlantirish imkoniyati tug‘iladi;
- turizm infratuzilmasi va industriyasini rivojlantirishga erishiladi;
- mahalliy va xorijiy turistlarning dam olish tuzilmalarini isloh qilishga erishiladi.

7. Turizmnинг mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rnini aniqlash uchun, uning yalpi ichki mahsulot (YaIM)dagi ulushini aniqlashni taqozo qiladi.

8. **Turizm resurslaridan foydalanishining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini oshirish yo‘llari va ularni baholashusullari doirasida ichki turizm**

tarmog‘ining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligining ta’rifi va ularni ifodalovchi ko‘rsatkichlar guruhlari ishlab chiqildi. **turizm tarmog‘ining iqtisodiy samaradorligi deyilganda, ushbu tarmoqning mamlakat iqtisodiyotiga qo‘shtigan hissasining va sohani rivojlantirish orqali turistlar va ulardan olinadigan foydaning ko‘payishiga muttasil erishib borish orqali o‘zining ham rivojlanishini ta’minlaydigan iqtisodiy imkoniyatlarni yaratganligi tushuniladi.**

9.Turizm tarmog‘ining ijtimoiy samaradorligining ta’rifi ham ishlab chiqildi. Turizm tarmog‘ida ijtimoiy samaradorlik deyilganda ushbu sohada aholining ish bilan bandligini ta’minalash, farovonligini oshirish, madaniy va intellektual saviyasini ko‘tarishga qaratilgan ob’ektiv voqelikni keltirib chiqarishi bilan bog‘liq jarayonlar tushuniladi.

III BOB. QASHQADARYO VILOYATIDA TURIZM RESURSLARINI MODERNIZATSIYALASH ORQALI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.

3.1.Qashqadaryo viloyatida turizm resurslaridan foydalanib samaradorlikni oshirish yo'llari.

Bugungi kunda turizm sohasi inson faoliyatining bir turi bo'lib, bir jihatdan ijtimoiy munosobatlarni ifoda etadi, ikkinchi tomondan esa o'ziga xos bo'lgan xizmat ko'rsatishning bir mustaqil tarmog'idir. Ko'pgina mamlakatlarda iqtisodiyotning asosiy sektori hisoblanayotgan turizm sohasidagi bandlikning o'sishi aholi daromadlarining ortishiga, iqtisodiyot diversifikatsiyasiga hamda sayyohlikga xizmat ko'rsatuvchi yangi sohalarning paydo bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda va bandlikni ta'minlashdagi muammolarga yechim berib, valyuta manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga turizm millatlarni bir-biriga yaqinlashtiradigan, turli davrlarda, turli xildagi xalqlarning madaniyati, dini, e'tiqodi, tarixi, tabiatini o'rganadigan, iqtisodiyotning o'sish darajasini tezlashtirishga xizmat qiladigan tarmoq sifatida shakllanib bormoqda.

Qashqadaryo viloyati turizm sohasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar talablaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar talabiga mos holda obyektiv zaruratdan kelib chiqib quyidagilar bilan izohlanadi:

- bugungi kunda turizm sohasining milliy iqtisodiyotdagি samaradorligini oshirishning obyektiv zarurati;
- ushbu samaradorlik ko'rsatkichlarini taqqoslama tahlil qilish uchun bir qancha boshqa ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanish lozimligi;
- turizm sohasinining prognoz ko'rsatkichlarining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bog'liqligini ta'minlash hamda ular asosida boshqaruva qarorlarini qabul qilish yo'llarini takomillashtirish lozimligi;
- turizm sohasini rivojlantirish evaziga, ular bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni diversifikasiya qilib, aholini ish bilan ta'minlash, ularning yashash darajasi va sifatini oshirish imkoniyatining yaratilishi;

- mamlakatimizning turizm sohasida katta salohiyatga ega ekanligidan foydalanib yangi yo‘nalishlardagi turistik marshurutlarni, jozibador turistik mahsuolotlar ishlab chiqish ikoniyatlarini oshirishni ta’minlash lozimligi.

Shu tufayli mazkur masalaning o‘ta muhim va dolzarbligini hamda turizm sohasini rivojlantirish bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarning prognozi asosida turizm sohasini rivojlantirishchora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish o‘ta dolzarbligini ko‘rsatib beradi.

Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlarning o‘zgarish tendensiyasini baholash uchun trend modellardan foydalanamiz. Quyida har bir ko‘rsatkich bo‘yicha qurilgan trend modellari keltirildi.

3.3.1-jadval.

Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlarni baholash va proqnozlash uchun trend modellari³⁹.

Nº	Model	t-statistika	Determinasiya koeffitsienti
1	$\Sigma X_k = 7864,60 + 5040,89t - 57308,7*D$	a0=2,245 a1=13,92 a2=-9,583	R2=0,93
2	$TC1k = 1279,92 + 371,576t - 5093,49*D$	a0=3,028 a1=8,501 a2=-7,059	R2=0,85
3	$TC1k = 1279,92 + 371,576t - 5093,49*D$	a0=3,868 a1=11,20 a2=-8,207	R2=0,90
4	$C\ddot{Y}C = 29,3715t - 299,656*D$	a1=4,350 a2=-2,688	R2=0,84
5	$TKC = 80829,3 - 8135,50t - 94213,4*D$	a0=7,042 a1=5,564 a2=-4,808	R2=0,87

Bu yerda: **ΣX_k** -jam'i xizmat ko‘rsatilganlar soni, **$TS1k$** -bir kunlik tashrif buyuruvchilar soni, **TTs** - tunab qoluvchi tashrif buyuruvchilar soni, **SYS** - sotilgan sayyohlik yo‘llanmalari soni, **TQS** - tunab qolishlar soni, t -trendni ifodalaydi, D -dummy o‘zgaruvchi 2020 yildan hisoblanadi.

³⁹ Muallif ishlanmasi.

3.3.2-jadval

Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarning 2015-2023 yillardagi dinamikasi⁴⁰.

№	Yillar	Ko'rsatkichlar				
		ΣXK	TS1k	TTs	SYS	TQS
1	2	3	4	5	6	7
1	2015	55966	6408	49558	448	174081
2	2016	51615	4562	47053	112	156866
3	2017	64918	498 2	59936	92	179096
4	2018	82859	602 6	76833	531	213789
5	2019	84914	571 9	79195	379	131509
6	2020	89674	801 1	81663	452	158091
7	2021	91487	772 8	83759	665	164886
8	2022	31978	139 2	30587	111	80808
9	2023	45565	398 7	41578	318	123576

Tuzilgan modellar adekvatlikga tekshirildi va ma'lum mezonlar asosida ularning adekvat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

3.3.2-jadval ma'lumotlariga ko'ra modellashtirish natijalari mintaqada turizm tarmog'ida jami xizmat ko'rsatilganlar sonining o'zgarishi 2021 yilgacha barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, so'ngi 2 yilda ushbu ko'rsatkich bo'yicha tebranish sur'atining oshishi kuzatiladi. Jami xizmat ko'rsatilganlar soni o'zgarishining 93 foizi vaqtga bog'liq trenddan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin. Jami xizmat ko'rsatilganlar soni vaqt kesimida o'rtacha 5040 nafarga oshib borganligini ko'rish mumkin. Bu tendensiya faqat 2019 yilgacha bo'lgan davr uchun tegishli bo'lib, 2020 yildan xizmat ko'rsatilganlar soni 57308,7 birlikga kamayishi kuzatiladi.

⁴⁰ Muallif ishlanmasi.

Qolgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha ham ayni natijalar o‘rinli bo‘lib, barcha ko‘rsatkichlar vaqt birligiga sezilarli darajada bog‘langan, 2020 yildan bir kunlik tashrif buyuruvchilar soni 5093 birlikga, tunab qoluvchi tashrif buyuruvchilar soni 49942 birlikga, sotilgan sayyoqlik yo‘llanmalari soni 300 birlikga, tunab qolishlar soni 94213 birlikga kamaygan. Shuningdek, bugungi barqarorlashuv jarayonida Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlarida tuzilgan model natijalariga asosan o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda. Buni ushbu ko‘rsatkichlarning prognoz qiymatlaridan ham ko‘rish mumkin (3-jadval).

3.3.3-jadval.

Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlarning prognozi (2023-2027 yillar uchun)⁴¹

Prognoz davri	Asosiy ko‘rsatkichlar.				
	ΣXK	TS1k	TTs	SYS	TQS
2023	51374	3618	46402	288	118703
2024	56415	3989	50530	317	125307
2025	61455	4361	54657	347	131912
2026	66496	4733	58785	376	138516
2027 yilda 2023 yilga nisbatan o‘sish (nisbatda)	1,57	1,28	1,51	1,27	1,17
O‘rtacha o‘sish sur’ati (%)	107,8	104,2	107,2	104,1	102,7

Yuqorida keltirilgan (3-jadval) modellar yordamida hisoblangan prognoz natijalariga ko‘ra jami xizmat ko‘rsatilganlar sonining o‘rtacha o‘sish sur’ati 107,8 foizni tashkil etmoqda. Shuningdek, o‘rtacha o‘sish sur’ati bir kunlik tashrif buyuruvchilar soni uchun 104,2 foizga, tunab qoluvchi tashrif buyuruvchilar soni

⁴¹ Muallif ishlanmasi.

uchun 107,2 foizga, sotilgan sayyohlik yo'llanmalari soni uchun 104,1 foizga, tunab qolishlar soni uchun 102,7 foizga teng bo'lmoqda.

Prognoz bo'yicha 2027 yilda 2023 yilga nisbatan o'sish nisbati jami xizmat ko'rsatilganlar hamda tunab qoluvchi tashrif buyuruvchilar sonida yuqori, ya'ni mos ravishda 1,57 va 1,51 barobarga teng, aksincha, bir kunlik tashrif buyuruvchilar, sotilgan sayyohlik yo'llanmalari, tunab qolishlar sonida bu ko'rsatkich nisbatan pastligicha qolmoqda.

3.3.4-jadval.

Kiruvchi turistlar sonining geoaxborot tizimini qo'llash bilan bog'liq ko'rsatkichlar⁴².

Yillar	Kiruvchi turistlar, ming kishi, (Y)	Axborot-kommunikasiya texnologiyalari ishtirokida yaratilgan turistik xizmatlar hajmi, mlrd. so'm (X1)	Ma'lumotlar uzatish tar-mog'iga ulangan mijozlar soni, mln. kishi (X2)	Tarmoq va sohalarda foydalani-layotgan maxsus turistik dasturiy vositalar soni, birlik (X3)	Provayder-lar tarmog'ida joylashgan turizm faoliyati subyektlarining veb-saytlar i soni, birlik (X4)
2013	1395,0	1327,2	10,6	5273	4757
2014	1895,0	2056,1	12,9	5711	5473
2015	1969,2	2905,4	15,7	5937	6242
2016	1862,1	4092,3	17,4	6289	7349
2017	1918,4	4792,2	18,3	6311	8101
2018	2027,0	6207,9	19,5	5884	7570
2019	2690,0	8440,8	20,3	6162	8261
2020	5346,8	12077,5	21,2	6419	8437
2021	6748,0	15917,9	22,1	6721	8713
2022	1300,0	17329,4	23,8	6896	8926
2023	46333	3246	42274	258	112099

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida axborot-kommunikasion texnologiyalaridan foydalanish darajasining oshishi turizm sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Turizm sohasini raqamlashtirishda geoaxborot tizimlaridan foydalanish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Turistik hududlarning salohiyati, turistik jozibadorligi, turistik

⁴² Muallif ishlanmasi.

resurslarining ma'lumotlari bazasi kabilarga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Natijada, turistilarning mamlakatimizga, turistik jozibador hududlarimizga tashrif buyurish darajasi ortadi. Shu tufayli, quyida kiruvchi turistlar sonining geoaxborot tizmini qo'llash bilan bog'liq ko'rsatkichlarining korrelyatsion bog'liqlik darajasini ko'rib chiqamiz.

Kiruvchi turistlar sonining geoaxborot tizimini qo'llash bilan bog'liq ko'rsatkichlar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik ularni bitta model tarkibiga kiritish imkoniyatini cheklaydi (4-jadval). Shu sababli asosiy indikator bilan har bir ko'rsatkichning chiziqli regressiya tenglamasini quramiz. Buning uchun, kiruvchi turistlar soni (Y) ning axborot-kommunikasiya texnologiyalari ishtirokida yaratilgan xizmatlar hajmi (X_1) ga bog'liq modeli shakllantiriladi.

Tadqiqotimiz natijalari asosida mintaqaning kiruvchi turistlar sonini oshirish uchun turizm salohiyatidan foydalanish darajasini geoaxborot tizimini qo'llash natijasida oshirish mumkinligi ma'lum bo'lmoqda. Haqiqatan, birgina omil olib qaralganda ham, ya'ni ma'lumotlar uzatish tarmog'iga ulangan mijozlar sonining o'sish tendensiyasi turistlar tashrifining ortishi uchun muxim ahamiyat kasb etmoqda (elastikkoeffitsienti 1,01 ga teng). Istiqbolda esa bu ko'rsatkichning nisbiy o'zgarish tezligi ancha yuqoriligi mintaqada turizm tarmog'inining rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Hozirda Qashqadaryo viloyati hokimligi huzurida budjetdan tashqari Qashqadaryo hududida turizmni rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish va unga Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan 200 mlrd so'm miqdoridagi mablag'larni ajratish belgilangan. Quyidagilar Jamg'arma mablag'lari sarflanadigan asosiy yo'nalishlar etib belgilandi:

- turizm salohiyatiga ega hududlarning muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini tartibga keltirish;
- turizm infratuzilmasi va yondosh infratuzilmani qurish, rekonstruksiya qilish, kengaytirish, modernizatsiya qilish ishlarini olib borish va obodonlashtirish;
- oilaviy mehmon uylarini tashkil qilish xarajatlarining bir qismini subsidiyalash;

- turizm zonalarining bosh reja va bat afsil rejalashtirish loyihalarini tayyorlash, turizm ko‘chalarini tashkil etish;
- moddiy madaniy meros obyektlarini konservatsiya va restavratsiya qilish; maxsus piyodalar va velosiped yo‘laklarini yaratish;
- turizm targ‘iboti ishlarini tashkillashtirish;
- Shahrisabz turizm va servis kollejini ta’mirlash.
- Shuningdek qaror bilan quyidagilarni nazarda tutuvchi Qashqadaryo hududida turizmni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi:
- Jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish manbalari;
- Jamg‘arma mablag‘laridan foydalanish tartibi va yo‘nalishlari;
- subsidiya ajratish tartibi va shartlari;
- Jamg‘arma mablag‘laridan foydalanilishi yuzasidan hisobotni shakllantirish va nazorato‘rnatish.

Hazrati Sulton tog‘i, Suvtushar sharsharasi, dinozavr izlari va Amir Temur g‘ori obyektlari yangi turistik marshrutga aylantiriladi. Loyiha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 18 fevraldagি Hisor davlat qo‘riqxonasining qo‘riqlanma zonasini belgilash chora-tadbirlari to‘g‘risida gi 94-sonli qarorining 3-bandida belgilangan vazifalarga ko‘ra amalga oshiriladi. - Ta’kidlash joizki, yangidan asos solinayotgan turistik marshrutlar yaqinidagi qishloq va mahallalarda oilaviy mehmon uylarini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli targ‘ibot ishlari olib boriladi. Bu esa Qashqadaryoning so‘lim hamda betakror go‘shalarida tunab qolish istagini bildirgan, shu asnoda milliy an‘analalarimiz, madaniyatimiz bilan tanishishni istagan xorijiy va mahalliy turistlarga qulay imkoniyatlarni taqdim etadi. Ma’lumki turizm sohasi, iqtisodiyotning muhim tarmog‘i hisoblanishi bilan birga davlatlar o‘rtasida madaniy-ma’rifiy munosabatlarni mustahkamlaydi, xalqlar o‘rtasida esa do‘stlik rishtalarini bog‘laydi.

3.2.Turizm sohasini modernizatsiyalash sharoitida turizm xizmatlar bozorini raqobatbardoshlilagini oshirish yo'llari.

Turizm sohasining milliy iqtisodiyotga ko'rsatgan ijobiy ta'siri mamlakatda u faqat har tomonlama rivojlangandagina ko'rindi, ya'ni turizm sohasining samaradorligiga uning mamlakatdagi boshqa ijtimoiy-iqtisodiy tarmoqlar bilan parallel ravishda va o'zaro aloqada rivojlanishi natijasida erishiladi. Turizm sohasi mahalliy aholi hamda xorijiy fuqorolar boradigan mamlakat yoki mintaqalarning tarixi, u yerdagi tarixiy arxitektura obektlarlari, mahalliy aholining urf-odatlari, ananalari, marosimlari bo'yicha bilimlarini oshirishi, dam olishi va davolanishiga sharoitlar yaratib berishi bilan bir qatorda shu mamlakat yoki mintaqaga iqtisodiyotiga bevosita valyutalar oqimini olib keli-shini, mahalliy aholining yashash sharoitini oshirish va ularni ish bilan ta'minlashga ko'maklashadi.

Turizm sohasi milliy iqtisodiyotning alohida tarmog'i sifatida o'ziga xosligi bilan ajralib turadi, uning mahsuloti muayyan turdag'i xizmatlardan foydalanishga beriladigan xuquq bo'lib, bu xizmatlarning o'zi esa iqtisodiyot-ning boshqa tarmoqlarida yaratiladi.

Turizm cohasini rivojlantirish yo'llarini to'g'ri va samarali belgilash tamoyillarini nazariy jihatdan assolash uchun turizm fanining yangi yutuqlariga tayangan holda «turizm xizmat bozori» va «milliy turizm xizmat bozori» tushunchalarining iqtisodiy-ijtimoiy mohiyatini aniqlab olish kerak bo'lmoqda. Turistik xizmatlar xalqaro savdoning eng keng tarqalgan turlaridan biri hisoblanadi.

Turistik mahsulotni sotish va harid qilish harakati maqsad va foydaning mos kelishini taqozo etadi. Shu sababli bozor ishlab chiqarish va iste'molning o'zaro munosabatini muvofiqlashtiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Turizm xizmat bozori o'ziga xos hodisa bo'lib, uning ta'sir doirasi turistik mahsulotni yaratuvchi va iste'molchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar bilan ifodalanadi. Turizm xizmat bozorida turistik mahsulotni yaratuvchi va iste'molchi o'z iqtisodiy maqsadiga ega bo'lib, bu maqsadlar har doim ham o'zaro bir-biriga muvofiq

kelmasligi mumkin. Ammo turistik mahsulotning sotish jarayoni sodir bo‘lishi uchun tomonlar maqsadining muvofiqlashuvi talab qilinadi.

Turizm xizmat bozorini keng ma’noda turistik mahsulotni (turlarni, alohida turizm xizmatlarini yoki turistlar uchun tovarlarni) sotish va xarid qilish amallari yuzaga keladigan hudud ham, deb qarash mumkin bo‘ladi. Biroq bu jarayonlar yagona bir hudud doirasida (masalan, biror bir mintaqada) kechishi shart emas. Hozirgi axborot asrida turistik mahsulotni sotish uchun sotuvchi va xaridorning bevosita uchrashishi talab qilinmaydi, bu faoliyat axborot texnologiyalari, Internet, teleks, faks, telefon vositasi orqali bajarilishi ham mumkin. Turizm xizmat bozori turistik xizmatlarning xaridori (talabgor) va sotuvchilarni (mahsulot bilan ta’minlovchi) birlashtiruvchi institut sifatida qaraladi. Boshqa tovar bozorlaridan farqli o‘laroq, turistik xizmatlar bozorida tovarning sotuvchidan xaridorga ko‘chish jarayoni kuzatilmaydi, aksincha, bu jarayon xaridor-turist tayyorlangan xizmatlardan, ya’ni turmahsulot-dan foydalanish uchun yo‘llanmada belgilangan manzilga borgandan so‘ng sodir bo‘ladi.

Turizm xizmat bozorida turistning istagan turistik mahsulotga bo‘lgan talabi bilan turistik firma taqdim etadigan taklif o‘zaro uchrashadi va turistik bozorning amal qilish mexanizmi pul oqimlarini turistik mahsu-lotga, turistik mahsulotga talab va taklifni tenglashtirish uchun iqtisodiy unsurlar harakati tizimidan iborat bo‘ladi. Bunda turistlar ta’bi, xoxishi va istaklari bilan asoslangan turizm xizmatlariga bo‘lgan talab turoperatorlar va turagentlar tamonidan taklif qilinadigan turmahsulot vositasida qondi-riladi.

Turizm xizmat bozori – turizm mahsulotlarini sotuvchi va haridorlar uchrashadigan hudud bo‘lishdan tashqari, ushbu subyektlar maqsadlarini muvofiq-lashtiruvchi vosita, turistik mahsulot tarqalishini ta’minlovchi, mahsulotni yaratuvchi va xarid qiluvchilar orasidagi iqtisodiy munosabatlар faollashadigan maydondir. Turizm sohasi O‘zbekistonning ko‘pgina, ayniqsa, rekreatsion imkoniyat-lari mavjud mintaqalarining har tomonidan rivojlanishi uchun sifat jihatidan yangi davr boshlanishiga turki berishi mumkin. Bu esa O‘zbekistonning Janubiy hududlari bo‘lgan Samarqand, Buxoro, Horazm, Qashqadaryo,

Surxondaryo viloyatlari va butun Farg‘ona vodiysi uchun muhimdir. Ushbu vohalar turizm sohasi hisobiga nafaqat o‘zlarining rivojlanishini jadallashtirishi, balki to‘planib qolgan ijtimoiy – iqtisodiy masalalarini ham hal etishi mumkin bo‘ladi. Turistik faoliyatning majmuaviy tabiatga egaligi turizmning keng ma’noda tarmoqlararo, tarmoqlar ichidagi va xo‘jaliklararo holatini ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Turizm xizmat bozorining mohiyati va tarkibini aniqlashda turistik xizmatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Turistik xizmatlarning an’anaviy moddiy material ko‘rinishda emasligi, bevosita sezilmasligi, iste’molchining bevosita servis jarayonida ishtirok etishi, ishlab chiqarish va iste’mol qilish amallarining ajralmasligi kabi belgilar bu turdagи xizmatlarni to‘laligicha ifodalaydi. Turistik xizmatlar-ning xususiyatlarini tadqiq qilishning yangi imkoniyatlarini izlash ularning jamiyatga foyda keltirishi ko‘lамини belgilash va uning tashqi ta’siri konsepsiyasini qo’llash bilan bog‘liq bo‘ladi.

Turizm sohasidagi ba’zi tadqiqotchilarning fikricha, makon chegaralari faqatgina milliy va jahon turistik bozorlarida mavjud bo‘ladi, deb hisoblaydilar: bunda birinchi holatda har bir alohida hududdagi bozorlar ko‘zda tutilsa, ikkinchi vaziyatda barcha davlatlarning hududlarini qamrab oladi. Biroq, UNWTO (BTT) ma’lumotlariga ko‘ra amaliyotda alohida turistik bozorlarni hisobga olishda har doim ham bevosita davlatlar ko‘rib chiqilmaydi. milliy turizm xizmatlar bozori tushunchasi har bir alohida mamlakat hududini xizmatlar bilan taminlaydigan bozor bo‘lib, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish-ning xosilasi sifatida turizm industriyasi milliy iqtisodiyotning tarkibiy qismi bo‘lgan-ligi tufayli uni rivojlantirish unga turdosh xo‘jaliklarni rivojlantirish darajasiga bevosita bog‘liq ekanligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotlar natijasida milliy turizm xizmatlar bozorining rivoj-lanishiga iqtisodiy va ijtimoiy omillar bevosita ta’sir qilishi aniqlandi. Aynan mana shu omillar xorijiy turistning milliy turistik mahsulotga bo‘lgan talabini va qiziqishini qondirishga yordam beradi. Darxaqiqat, turistlar faqat mamlakatning iqtisodiy

islohotlarga bo‘lgan qiziqishini qondirish uchun kelmaydi, balki mavjud tabiy,tarixiy obyektlarini ko‘rishga va uning madaniyatini, qadriyatlarini, turmush tarzini o‘rganish maqsadida tashrif buyurishadi.

Demak, milliy turizm xizmatlar bozorining mohiyati uning vazifalarida, ya’ni milliy turistik mahsulotning jozibodorligiga bog‘liq bo‘lishi ma’lum bo‘ldi. Milliy turistik mahsulot tushunchasi turizm faoliyatiga jalb qilinadigan va foydalilaniladigan mavjud tabiiy, iqlim, madaniy va tarixiy-arxitektura resurslari; turistik va unga turdosh infrastruktura; o‘zga davlatlar turistlarni o‘ziga jalb qilishga mo‘ljallangan manzilli turistik mahsulot-larni yaratadigan va uni realizatsiya qiladigan turistik korxonalarning faoliyatidan iborat bo‘lgan xolatlar to‘plamidan iborat ekan. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, milliy turistik mahsulot bu turistlarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha va shaxsiy nufuzni shaklantirish bo‘yicha davlatning faoliyat turi tushuniladi. Ijobiy nufuzga ega bo‘lish nafaqatgina turistik korxona uchun, balki qo‘srimcha mablag‘ keltirib xizmat ko‘rsatayotgan mintaqqa uchun ham o‘ta muhim hisoblanadi. Haqiqatda, mazkur davlatga tashrif buyurish to‘g‘risida qabul qilinadigan qaror turistning tassavurida madaniy, maishiy, moliyaviy, tanishuv va boshqa talablarini qondirish nuqtai nazaridan unga qay darajada jozibadorligiga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Iqtisodiy muammolar mazkur tarmoqlararo majmuani tarkibiy qismlarining o‘zaro aloqalar miqiyosida tahlil qiladi(jumladan sanoatni ham ya’ni ommaviy va ekologik jihatlari bilan birga ishlab chiqarish yo‘nalishini). Zamonaviy iqtisodiyot fani turizmni murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida ko‘rib chiqadi, turizm industriyasi, deb ataluvchi ko‘p tarmoqli ishlab chiqarish majmuasi uning faqat tarkibiy qismigina xolos.

O‘zbekiston Respublikasi Statistika Qo‘mitasining ma’lumotlari bo‘yicha 2022 yilda turistik firma va tashkilotlar tomonidan xizmat ko‘rsatilganlar soni bo‘yicha ulushni Qashqadaryo turistik mintaqasi tashkil etib (57%), bu ko‘rsatkich 2018 yilga nisbatan 32,4 % ga oshganligini kuzatishimiz mumkin. Ammo ayrim mintaqalar o‘sish ko‘rsatkichlariga erishish o‘rniga kamayish tendensiyalari kuzatilgan. Masalan, 2018 yilga nisbatdan Mirzacho‘l turistik

mintaqasida 59,7 %, Farg‘ona turistik mintaqasida 44,9 %, Janubiy turistik mintaqasida 16,6 % va Quyi Amudaryo turistik mintaqasida 5,7 % kamayish, Zarafshon turistik mintaqasida esa 44,4 % ga o‘sish tendensiyalari kuzatilgan.

Bunday o‘sish ko‘rsatkichlari o‘z navbatida mintaqa iqtisodiyotiga ijobiylar ta’sir ko‘satib, yalpi hududiy mahsulotning oshishiga erishildi. Ushbu hol nafaqat yuqorida keltirilgan mintaqalar iqtisodiyotiga taalluqli bo‘lib, balki Respublikaning barcha mintaqalarida turizmni rivojlantirishning maqsadli dasturlari ishlab chiqilgani va yetarli shart-sharoitlarning yaratib berilayot-ganligidan dalolat bermoqda.

Mintaqalarda turizmni rivojlantirishda avvolo uning ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatini hamda boshqa mintaqalar bilan aloqalarini chuqur o‘rganish bilan bir qatorda, u yerdagi turistik resurslarni mukammal o‘rgangan holda ma’lumotlar bazasini yaratish lozim bo‘lmoqda. Milliy turizm xizmatlar bozorini barqaror rivojlantirish uchun na faqat turizm sohasini, balki unga turdosh bo‘lgan iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari faoliyatini hisobga oladigan majmuaviy yondashuv metodikasini tayyorlash talab qilinmoqda. Bunday metodika o‘z tarkibiga yagona maqsadda turdosh tarmoqlar, tashkilotlar, korxonalarini birlashtira oladigan turistik klaster usulini qo‘llash orqali amalga oshirish mumkin bo‘ladi.

Hozirgi vaqtida innovatsion jarayonlarning o‘sishi ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida iqtisodiy tizimlarning rivojlanishi va transformasiyalashuvining zaruriy elementi hamda raqobat ustunligini ta’minlovchi asosiy resurs sifatida qaralmoqda.

Turistik korxonalarining turizm bilan bog‘liq faoliyatining turli sohalaridagi yangi texnologik o‘zgarishlarga o‘z vaqtida e’tibor qaratishi, ishlashning yangi uslublarini yaratishga va faoliyat natijalarini takomillashtirishga qodirligi korxonalar yashab qolishining zaruriy sharti deb tan olingan. Innovatsiyalarni joriy etish zarurati raqobat kurashi hamda bozorning boshqa bir qator talablarini ham rag‘batlantiradi. Ularadan foydalanish mumkinligi, shuningdek, iste’molchilik talablari va iste’molchilar istaklari, zamonaviy kishi ruhiyatining o‘zgarishlari sababli, demografik, iqtisodiy va ijtimoiy tartib o‘zgarishi bilan ham bog‘likdir. Turizmga innovatsiyalarni joriy etishga mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat,

aholining ijtimoiy ahvoli, milliy qonunchilik hamda hukumatlararo va xalqaro bitimlar ta'sir qiladi. Shu sababli har bir mamlakatdagi turistlik faoliyatida innovatsiyalar paydo bo'lishining asosi va sabablari turlichadir.□

□ aholining boshqa mintaqalardagi turmush tarzi bilan tanishishga va yangi bilimlar olishga ehtiyojlarining o'sib borayotgani;

□ sayohatlarning ko'plab mumtoz va an'anaviy yo'nalishlarining boyitilishi (destinasiyalar);

□ o'z fuqarolarining o'z mamlakati mintaqalari sharoitida o'xshash (tabiat, madaniyat, iqlim) hududlarga kirishini to'xtatib turish zarurati;

□ eng talabchan turistlarning ehtiyojlarini to'liq qondirish uchun sayohat va hordiqning qiziqarli sharoitlarini uyg'un birlashtirish (hordiq chiqarishning tabiiy va madaniy imkoniyatlari, o'ziga xosliklari, o'ziga xos mahsulotlari va maxsus turistlik xizmatlariga ega bo'lish);

□ taklif iqtisodiyotidan talab iqtisodiyotiga o'tish.

Turistlik faoliyati bu faqat sayohatlarni tashkil etish bo'yicha xizmatlar taqdim etishgina emas, balki davlatning, uning iqtisodiyoti ko'pgina sohalarining daromad manbai ham hisoblanadi. Ularning daromadlari an'anaviy turizm sohalari bo'lgan(mehmonxonalar, restoranlar, transport va boshqalar)dan tushuvchi kirimlardan ancha ortiq bo'lmoqda.

□ Turizm sohasidagi siyosat tamoyillarini, ularni amalga oshirish dasturlarini, faoliyat natijalarini tadqiq etish va nazorat qilish mexanizmlarini(statistikani tashkil etish, idoraviy tadqiqotlar) belgilash hamda ishlab chiqish;

□ Turizm uchun qulay sharoitni yaratish, turli firmalar, tashkilotlar va jamiyatlar faoliyatini muvofiqlashtirish.

□ Turizm va marketingni innovatsiyalarni rag'batlantirish orqali qo'llab-quvvatlash, mamlakatning jozibali qiyofasini yaratish.

Turizm sohasiga innovatsiyalarning kirib kelishi bilan kadrlar malakasini oshirish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, xorij tajribasini kuzatish, zamonaviy ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda mamlakat turizm jozibadorligini

oshirish muhim masalaga aylandi. Mijozlar ehtiyojidan kelib chiqqan holda raqobatbardosh turistik xizmatlar taklif qilish imkonini berdi. Shunday ekan, turizm sohasida innovatsion faoliyat mavjud tur mahsulotlarni o'zgartirish, yangilarini yaratish, xizmat ko'rsatishni takommillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni tashkiliy-boshqaruv faoliyatiga yo'naltirishga zamin yaratadi.

Ziyorat turizmi rivojida ham innovatsion texnologiyalardan ancha unumli foydalanilmoqda. Shularni inobatga olgan holda quyidagilarni taklif qilaman.

- Turizm sohasiga oid ilovalarni takomillashtirish va unda sayohat joylashuvi, tarixiy obidalar, maqbaralar, muzeylar, teatr, ko'rgazma zallari, ovqatlanish obektlarini kiritish;
- Tarixiy binolar joylashgan hududda zamonaviy binolar qurib unda hunarmandchilik buyumlari, ko'zalar, gilamchilik, kulolchilik, o'ymakorlik, miskarlik buyumlari, tasviri san'at, musiqa asboblari, haukaltaroshlik namunalari shuningdek, O'zbekistonda joylashgan barcha tarixiy obidalar, muzey,teatr, parklarning rasmi va tarixi haqida rasm ostida tarixi bilan berish;
- Ziyoratchi passport va talabalik guvohnomasini tashkillashtirish;
- Ziyoratgohlarni eskilik boyog'ini yo'qotmagan holda rekonstruksiya qilish orqali tarixiy va madaniy meroslarimizni avlodlarga yetkazish uchun chora-tadbirlar o'ylab topish;
- Ziyorat turizmiga oid yangi mobil ilovala ishlab chiqish va mavjudlarini yangilash va offline rejimda ham foydalanish imkoniyatini yaratish;
- Ziyoratgohlar haqida audio ma'lumotlarni internet tarmoqlari, turistik web-sahifalarda qoldirish;
- Ushbu dasturlarni turli xil tillarda:ingliz, rus, fransuz, xitoy, koreys, o'zbek, nemis tillarida berish va offline rejimda ham foydalanish imkoniyati mavjud bo'lishi;
- Shuningdek har bitta ziyorat turizmi potensialiga ega bo'lgan hududlarda virtual tur tashkil etish, web-saytlarda ma'lumotlar tarqatish,

□ O'zbekiston turizmni rivojlantirish qo'mitasi ro'yhatida turgan turizm faoliyati olib borish mumkin bo'lgan hududlarni aniqlash;

- Tabiatga sayohat turizmini tashkillashtirish;
- GPS va GIS ma'lumotlaridan ziyyarat turizmida qo'llash.

Bugungi kunda turizmni shunchaki rivojlantirish emas, balki bacha hududlardagi imkoniyatlardan samarali foydalangan holda rivojlantirish masalasiga alohida ahamiyat berilmoqda. Shu maqsadda turizmni aynan hududlarda rivojlantirishga nafaqat O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, shu bilan birgalikda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Transport vazirligi, Energetika vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Uy-joy va kommunal xizmat ko'rsatish vazirliklari ham jalg qilingan.

Turistik salohiyatga ega bo'lgan, ammo hozircha undan unchalik foydalasdan kelinayotgan hududda bir qancha turistik obyektlar ishga tushiriladi.

Turizmni rivojlantirish masalasiga asosan tarixiy obidalardan foydalanish sifatida qaralib kelgan bo'lsa, endilikda sohaga munosabat ham o'zgardi. Xususan, viloyatda ko'llar tizimi hududida turistik zonani yaratish va rivojlantirish bo'yicha bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Aynan Siychan ko'l tizimi hududida yangi Orom qirg'og'i (Leisure Coast) turistik zonasini tashkil qilinib, unda suvda dam olishning bir qancha turlari va plyaj turizmini rivojlantirish masalasiga alohida ahamiyat berilmoqda. 2021 yil yoz mavsumida ushbu hudud to'liq quvvat bilan dam oluvchilarni qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Biroq ushbu hududga borish masalasida biroz muammolar mavjud. Bularni inobatga olib tizimga yo'lovchilarni tashish uchun temir yo'llarni yotqizish qiymatining dastlabki hisob-kitoblarini qilish va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish, doimiy avtobus qatnovlarini yo'lga qo'yish masalalari bevosita davlatimiz rahbarining nazoratida turibdi. Ushbu hududga tadbirkorlik subyektlarini jalg qilgan holda turizm va unga yondosh infratuzilmani rivojlantirish masalasiga ham yetarli darajada e'tibor qaratilgan.

Jizzax viloyatida yana bir muhim obyekt Zomin tumanida umummavsumiy, qishki va yozgi dam olish maskanlari hisoblanadi. Ushbu hududga mahalliy va xorijiy investorlarni jalg qilgan holda umummavsumiy, qishki va yozgi dam olish

maskanlarini tashkil etish lozimligi bo‘yicha ham keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizning har bir hududida katta imkoniyatlar mavjud hududiiy turistik zonani tashkil etish va rivojlantirish masalasi ham o‘ta dolzarb hisoblanadi. Ushbu hududlarda suvda dam olish turlari va plyaj turizmini rivojlantirish masalasi qo‘yilgan. Shu bilan birga, temir yo‘l stansiyalarini qurish maqsadga muvofiqligini o‘rganish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish, ko‘lga yo‘lovchilarni tashish uchun doimiy avtobus qatnovlarini yo‘lga qo‘yish, tadbirkorlik subyektlarini jalb qilgan holda turizm va unga yondosh infratuzilmani rivojlantirishni masalasi ham izchillik bilan bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Barcha hududlarda fuqarolarning faol dam olishini tashkil etish (shaharda yurish, terrenkur, trekking va xayking), kasallanish darajasini, shu jumladan, yurak xastaliklarini kamaytirishni nazarda tutuvchi Piyoda turistik marshrut lar ham ishlab chiqilishi lozim. Bu bilan aholida nafaqat dam olish paytida, balki keyin ham piyoda yurish ko‘nikmasini shakllantirish-ga ko‘maklashiladi.

Yana bir jihat, xorijiy mamlakatlar fuqarolariga ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlarni tizimlashtirish va turlarini kengaytirishni nazarda tutuvchi O‘zbekiston – umidli va shifobaxsh zamin (Uzbekistan – hope and healing land) tibbiy turizm dasturini ham rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Ularga ushbu xizmatlarni ko‘rsatish bilan shu joyda turib hizmatlar eksportini ko‘paytirishga erishilishi nafaqat mamlakat iqtisodiyoti, balki aholining ijtimoiy hayotini yaxshilashda ham muhim ahamiyatga ega.

Qashqadaryo viloyati Shaxrisabz tumanidagi Miroqi, Polmon Ko‘l qishloqlari Turizm qishlog‘i maqomiga ega bo‘ldi. Ushbu qishloqda milliy an’analalarimiz, qadriyatlarimiz, qadimiy hunarmandchilik, kashtachilik an’analari ham qayta tiklanib mahalliy va xorijiy turistlarga namoyish etiladi.

Yangi tashkil qilingan turistik hududlar va zonalarda xorijiy oshxona yoki alohida yo‘nalish bo‘yicha ixtisoslashgan tematik ovqatlanish shoxobchalari, ovqat va oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish, shuningdek, suvenir mahsulotlarini

yetkazib berish bo‘yicha xizmatlarni tashkil etish yuzasidan loyiha tashabbuskorlariga grantlar ajratish ko‘zda tutilgan. Shu yo‘l bilan xorijiy turistlarni ham mamlakatimizning qishloq hududlariga ham jalb qilish imkoniyati tug‘iladi.

Turizm sohasida faol bo‘lgan gid va turoperatorlarga yangi turizm mahsulotlari va yo‘nalishlarini ishlab chiqqanligi va turistik mahsulotlarimizni xorijiy turistlarga targ‘ib qilganligi uchun endilikda ularga ham grantlar ajratilishi ko‘zda tutilgan. Bularidan tashqari turizm sohasi subyektlarining xarajatlarining bir qismi subsidiyalanadigan bo‘ldi. Ayniqsa joylashtirish bo‘yicha xizmatlar (mehmonxona xizmatlari) narxining 10 foizi miqdorida joylashtirish vositalarini subsidiyalash ham ko‘zda tutilgan.

Yana bitta sohaga berilgan imtiyoz – turoperatorlar va turagentlarga O‘zbekiston Respublikasiga olib kelingan va xizmat ko‘rsatilgan har bir xorijiy turist uchun rag‘batlantiruvchi subsidiyalar ajratiladi. Havo va temir yo‘l chiptalari uchun turoperatorlarning xarajatlarini qisman subsidiyalanadi. Shuningdek, mehmonxonalarining toifa olish va uni ko‘tarish uchun renovatsiya, rekonstruksiya hamda moddiy-texnik bazani mustahkamlash bo‘yicha xarajatlarini qoplash, turizm maqsadida yo‘lovchi tashuvchi yangi dor yo‘llarini qurish va jihozlash uchun investorlar xarajatlarini qoplashga mablag‘ ajratish masalalari ham markazlashgan holda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida sayohat davomida xorijiy turistlar O‘zbekiston. Xavfsiz sayohat KAFOLATLANGAN (Uzbekistan. Safe travel GUARANTEED) tizimi doirasida ixtiyoriy sertifikatlash, shuningdek, sertifikatlash uchun to‘lovlarni amalga oshirish, ushbu tizimning xavfsiz obyektlari reyestri ni yuritish kabi masalalar ham davlatimiz tomonidan rag‘batlantiriladi.

3.3.Qashqadaryo viloyatida turizm resurslarining foydalanishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbolini belgilash.

Turizm Respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi, sanoat, transport va boshqa makroiqtisodiy tarmoqlar qatori o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lishi

uchun yetarlicha imkoniyatga ega. Ammo uzoq yillar bu imkoniyatdan to‘liq va samarali foydalanilmadi va hozir ham mamlakatimizga xorijiy turistlarning tashrifini ko‘paytirish, qiziqishini oshirish, tashrif buyurgan turistlarga sifatli xizmat ko‘rsatish dolzarb masalalardan biridir.

O‘tgan davr mobaynida respublikamizning ko‘pgina mintaqalaridagi tarixiy, diniy obidalar, buyuk siymolar qabrlari, dahmalari, masjid - adresalarini qaytadan tiklash va ta‘mirlash ishlari amalga oshirildi. Buning natijasida turistik resurslarning soni yanada ko‘paymoqda va ularning ahvoli ancha yaxshilanib bormoqda. Yana shuni aytish mumkinki, Respublikamizga turistlar oqimini ko‘paytirish maqsadida o‘tgan qisqa davr mobaynida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Jumladan, xorijiy davlatlardan kelayotgan turistlarga mamlakatimizda 30 kungacha vizasiz bo‘lish imkoniyati yaratildi va shu bilan birga 39 mamlakat fuqarolariga viza berish tartibi ham bir muncha soddalashtirildi.

O‘zbekiston sharoitida turizmni hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan darajada rivojlantirish uchun yetarlicha turistik resurslarning mavjudligini hisobga oladigan bo‘lsak, mazkur sohaning iqtisodiyot rivojlanishi uchun g‘oyat muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rish mumkin. Ayni vaqtda, Respublikamizda turizmning rivojlanishi nafaqat amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarga, balki mavjud turistik resurslardan samarali foydanalish darajasiga ham bevosita bog‘liqdir. Turistik-rekreatsiya sohasi rivojlangan davlatlar tajribasiga e’tibor beradigan bo‘lsak, mamlakatga sayyoohlarning qanchalik ko‘p tashrifi va ular keltirgan daromad miqdori shu yerda yaratilgan xizmatlar narxiga emas, balki uning sifatiga, rang-barangligiga bog‘liq ekanligini ko‘ramiz.

Shunday imkoniyatlarga ega bo‘lgan bu hududda endi turistlar oqimini yanada oshirish uchun ularni qiziqtiruvchi yangi-yangi marshrut va ekskursiyalar dasturini ishlab chiqish, qolaversa, quyidagi masalalarga e’tibor qaratish lozim deb o‘ylaymiz:

Birinchidan, mintaqqa turizmida transport infrastrukturasining o‘rnini ham nihoyatda katta ahamiyatga ega. Aksariyat turistik obyektlar avtomobil yo’llariga yaqin joylashgan bo‘lib, bu esa o‘z navbatida turizmini rivojlantirishda qulay

sharoitlar tug'diradi. Viloyatda turistlarga transport xizmatlarini ko'rsatish faoliyati bir muncha yaxshi. Lekin shuni ham ta'kidlash joizki viloyatda yengil avtomobilarni ijaraga beruvchi firmalar deyarli yo'q. Shunday firmalarni tashkil etilsh soha rivojlanishining samaradorligini oshishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, viloyatida faqatgina tarixiy-me'moriy va diniy turizm yaxshi rivojlangan. Shaharga 1 hafta 10 kunga kelgan sayohatchi har kuni bir xil uslubdagi obidalarni ko'raverib zerikib qolishi mumkin. Shu bois shahar atrofida turizmning boshqa ko'rinishlarini ham rivojlantirib, turistlar vaqtini chog'o'tkazishini ta'minlash lozim. Masalan, tarix bilan uzviy holda bugungi o'zbekona o'ziga xos zamonaviy, takrorlanmas bino va inshoatlar yoki, eng so'nggi zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda milliyligimizni o'zida aks ettirgan milliy bog' va istirohat bog'lar barpo etilsa nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

Uchinchidan, viloyatda umumiyligi ovqatlanish joylari faoliyatini tashkil qilishga e'tiborni yanada kuchaytirish lozim. Chunki, har bir xalqning milli taomlari bo'lganidek, o'zbek xalqining ham bir qancha milliy taomlari mavjud. Masalan, yevropaliklar birinchi marta ko'rayotgan ovqatini oldin yaxshilab o'rganib, tayyorlanish texnologiyasini ko'rib, keyin iste'mol qiladi. Balki ular o'zlarining Yevropa taomlarini iste'mol qilishni xohlashar yoki, turistlar orasida vigiterianlar bor bo'lishi mumkin. Shularni inobatga olgan holda restoran va kafelarda turli xil davlatlarning kamida bir turdag'i ovqatlarini tayyorlash yo'lga qo'yilsa, ularning xizmat ko'rsatish darajasi yaxshilansa, sayyoohlarning ehtiyojlari o'z vaqtida qondirilsa, viloyatga tashrif buyurgan sayyoohlar mamnun bo'lishadi. Bu esa turistlar oqimining oshib borishiga sabab bo'ladi.

To'rtinchidan, viloyatga kelayotgan turistlar uchun yaratilgan xizmatlar va mehmonxonalarga qo'yilgan narxlar bir muncha yuqori. Bunga mehmonxonalarga davlat tomonidan qo'yilgan soliq va majburiyatlar ham sabab bo'lishi mumkin. Bu esa turistlar oqimining kamayishiga olib keladi. Shu boisdan mehmonxonalarda bir qancha chegirmalar joriy qilish zarur.

Beshinchidan, Sayohatchilarni kundalik ekskursiyadan keyingi vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida ko'proq tadbirlar uyuştirish zarur. Samarqandga

kelayotgan turistlarning aksariyat qismi Yevropa mamlakatlaridandir. Shu bois ularning kuy-qo'shiqlari yangrab turuvchi diskotekalar va tungi klublarni tartibli ravishda tashkil qilish har bir turist uchun o'zgacha zavq bag'ishlaydi. Bir narsani aniq aytish mumkinki, turistlar ichida asosan nafaqa yoshidagi kishilar 90-95 % ni tashkil qiladi. Shuning uchun ularga milliy o'zbek folklorlarini namoyish qilish, hamda mahalliy aholi bilan kelishilgan holda turistlar xavfsizligini ta'minlab, to'ylar va urf-odatlarni namoyon qiluvchi tadbirlarga olib borish mehmonlarda katta taasurot qoldiradi.

Viloyat turizm infrastrukturasini rivojlantirish, mehmonxona va umumiyl ovqatlanish joylari, transport, sport-sog'lomlatirish hamda turistik firmalar va tashkilotlar xizmatlarini jahon andozalari darajasiga yetkazish, viloyatga keluvchi turistlar sonini oshiradi. Mamlakatimiz milliy iqtisodiytida turizmning rolini oshirish, undan keladigan daromadni va shu sohada band aholini ko'paytirish, bugungi kunda davlatimiz oldiga qo'ygan asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

Turistik resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini tadqiq etishda, ulardan foydalanishning samaradorligini oshirish yo'llari, ularga ta'sir etuvchi omillar va ularni aniqlash, hamda turistik resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini baholash, iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy jihatdan o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. O'zbekistonda turizm resurslari salohiyatini yuqoriligi, ya'ni bu erda madaniy – tarixiy yodgorliklarning mavjudligi, boy tarixiy merosi, diniy, ekologik, ilmiy, hamda o'ziga xos an'analari va boshqa xislatlari turizmni rivojlanishini zamon talablari asosida yo'lga qo'yishni taqozo etadi. Ayniqsa turistik resurslar salohiyatidan samarali foydalanish, iqtisodiy jarayonning faol kechishiga sababchi bo'lib, uning imkoniyatlari respublikamiz olimlari tomonidan etarli darajada o'rganilmagan. SHunga ko'ra, respublikamizda ushbu mavzuda ilmiy – tadqiqot ishlarini olib borish, uning ko'plab nazariy va amaliy masalalari bo'yicha tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilishi lozimdir.

2. Ayni vaqtda milliy iqtisodiyotimizda turizmning o'rniga nazar tashlaganda, shu narsa ko'rindiki, mavjud resurslardan har doim ham samarali foydalanishga erishilmayapti. Mamlakatimizda turizm rivojlanishi jamiyatning yangilanish davriga to'g'ri kelib, u asta-sekinlik bilan sodir bo'layotgan o'zgarishlar jarayonini hisobga olgan holda uning sifatini yanada yaxshilashga to'g'ri kelmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, iqtisodiyotning rivojlanishi turizm sohasi bilan ham bog'liq. SHuning uchun ham, bozor iqtisodiyoti asosida xo'jalik yuritishga o'tayotgan mamlakatlarda halqaro turizmga katta e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

3. Turistik resurslar muhim ijtimoiy – iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, ayniqsa ulardan samarali foydalanish mahalliy aholi hayotiga ijobiyligi ta'sir ko'rsatadi. Bu ijobiyligi xususiyatlar quyidagilar orqali asoslanib berildi:
ish o'rinalining yaralishi;

- daromadning ko'payishi, mahalliy aholini yashash darajasini oshirish;
- ijtimoiy va madaniy jarayonlarning tezlashishi;

- mahalliy madaniyat o'choqlarning yaralishi, xalq ijodiyoti, an`analari, udumlarining rivojlanishi;
- qishloq xo`jaligi mahsulotlari va mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlariga talabni oshishi mahalliy madaniy yodgorliklarni tiklanishi va muhofazasi;
- tabiiy komplekslarning kengayishi;
- mintaqa jozibadorligining oshishi;
- mahalliy madaniy hayotning jonlanishi va boshqalar.

4. O'zbekistonning turistik salohiyati dunyo mamlakatlari orasida o`rtacha ko`rsatkichdan baland hisoblanadi. Demak, mamlakat eksportida va YAIMda turizmning ulishi yuqori bo`lishi kerak. Lekin hozirgi kunda O'zbekiston YAIMda turistik xizmatlarning ulushi kam. Bu ko`rsatkich ham mavjud turistik resurslardan samarali foydalana olmayotganligimizni bildiradi. Tadqiqotlar natijasi ko`rsatdiki, turistik resurslarga boy bo`lgan mintaqa iqtisodiyotida turizm boshqa tarmoqlar bilan bir qatorda rivojlanib, etakchi tarmoqqa aylanish imkoniyatlari bor.

5. Hozirgi kunda jahon tajribasida turizmning agroturizm shakli keng rivojlanmoqda. Agroturizmni mamlakatimizda rivojlanishi istiqbollari porloq hisoblanadi. Chunki, mamlakatimiz agrar-industrial xo`jalikka ega bo`lib, asosiy mehnat resurslarimiz qishloq xo`jaligida band. Undan tashqari, mamlakatimiz rekreatsiya resurslariga boy hisoblanib, rekreatsiya faoliyati tarmoqlarini rivojlantirish mumkin. Bozor iqtisodiyotiga o`tuvchi mamlakatlar uchun moliyaviy resurs manbalari o`ta zarur hisoblanadi. SHu jihatdan oladigan bo`lsak, agroturizm yuqori daromad keltiruvchi xizmat ko`rsatish sohasi hisoblanadi. Qishloq joylarimiz turizmni rivojlantirish resurslariga boy ekan, faqat undan samarali foydalanishda turistlarni joylashtirish va ovqatlantirish, transport xizmatini ko`rsatish, umuman olganda xizmat ko`rstish sohalarini shakllantirish asosiy omil hisoblanashi izlanishlar natijasida ilmiy asoslandi.

6. Bozor munosabatlariga asoslangan bozor iqtisodiyoti sharoitida turizm sohasining ichki turizmini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. SHu boisdan, ichki turistlarni ya`ni, o`sha hududda istiqomat qiluvchi

aholini jalb etish, maxsus turpaketlar yaratish ichki turizm uchun muhim omil sanaladi. Ichki turizmdan keladigan foyda tashqi turizmga qaraganda ikki barobarni tashkil etadi va unga ketayotgan xarajatlar xalqaro turizm xarajatlaridan 5-10 barobar kam hisoblanadi. SHuning uchun milliy iqtisodiyotda ichki turizmning o`rni yuqori bo`lib, O`zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishni ommaviy tus olishi uchun turistik ta`lim, tarbiya, targ`ibot, tashkiliy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilish kerakligi tadqiqotlar natijasida ko`rsatib berildi.

7. Ekologik turizm hozirgi kunga kelib jadal sur`atlarda rivojlanib borayotgan turizm sohasiga aylandi. O`zbekistonda ekoturizm rivojlanishi tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarni vatanimizga jalb etish, noyob o`simliklar va hayvonot dunyosini saqlash, ko`paytirish muammolarini hal qilishga, hamda mahalliy aholini ish bilan ta`minlab milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirishga katta hissa qo`shadi. Ekoturizm faoliyatidan kelib chiqib, uni alohida muhofaza etilayotgan tabiiy hududlarda amalga oshirish katta ahamiyatga ega. O`zbekistonning tabiiy sharoiti va ularning ekologik holatini inobatga olib, turistik ob`ektlarni o`rganish va aniqlash, turistik yo`nalishlarni belgilash, ularning hududiylik va majmuaviylik jihatlaridan kelib chiqqan holda xizmat ko`rsatish sohasini yo`lga qo`yish shu kunning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. O`zbekistonning alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarida byudjet kamomadi mavjud bo`lganligi sababli ekoturizmning iqtisodiy roli yuqori ahamiyatga ega. Shunisi ham muhimki ekoturizmning rivoji qimmat va keng infrastrukturasi talab etmaydi. Demak ekoturizm bo`lajakda kichik xarajatlar hisobiga, katta foyda keltiradigan manbaga aylanishi mumkin.

8. Hozirgi vaqtida mamlakatimizda turizmni iqtisodiyotning muhim tarmog`i sifatida shakllantirish uchun hozirgi kundagi qilinadigan xarajatlar albatta kelajakda o`z samarasini beradi. Albatta, bunda O`zbekistonga keladigan sayyoohlarning qancha vaqt turishi yoki davomiyligi ham katta ahamiyatga ega. Turistlar sonini oshib borishi bilan, turizm orqali kelayotgan daromad ham oshib boradi. O`z navbatida turistlar sonini oshishi turistik qiziqishni orttiradigan ob`ektlarga, ya`ni turistik resurslarga bog`liqdir. Demak xulosa qilish mumkinki, turistik resurslarni aniqlash va undan samarali foydalanish turistik infratuzilmani

shakllantirish va turistik marshrurlarni kengaytirish, turistik xizmatlarni yaxshilash kabi ko`plab muammolarni hal etishimiz kerakligi ko`rsatib o`tildi.

9.Turistik resurslardan samarali foydalanishning asosiy yo`llaridan biri bu turistik bozorni rivojlantirishdir. Turistik bozorning rivojlanishida xususiy tadbirkorlikka keng o`rin berish, katta iqtisodiy samara beradi. Hozirgi kunda O`zbekistonda turizm industriyasi shakllanayotgan davrda turistlarga xizmat ko`rsatish asosan xususiy firmalarga to`g`ri kelmoqda. Tadbirkorlikni rivojlanishda mavjud resurslar asosida raqobatdosh taristik mahsulot yaratish o`ta muhimdir. Bu jarayonda marketing tadqiqotlarini jonlashtirish, ya`ni turistik mahsulotlarga bo`lgan talabni har tomonlama o`rganish, tahlil etish katta ahamiyatga ega. Shunga ko`ra mutaxasislar tomonidan O`zbekistonning turistik mahsulotlariga bo`lgan xorijiy va mahalliy talabni o`rganish katta ahamiyatga ega.

10. Milliy iqtisodiyotda turistik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishda tabiat resurslaridan oqilona foydalanish lozim. Tabiatdan hamda milliy merosdan foydalanishda va muhofaza qilishda turli shakllardan foydalanish samarali hisoblanadi. Masalan, AQSHda 20 xil kategoriyalagi muhofaza qilish hududlari ajratilgan. Ularga milliy bog`, milliy rezervat, milliy tarixiy joy, milliy yodgorlik, milliy tarixiy bog`, milliy tarixiy yodgorlik, milliy memorial va boshqalar kiradi. SHu kabi bizda ham ayrim qo`riqxonalarni milliy bog`larga aylantirish turizm faoliyatini rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. NORMATIV HUQUQIY HUJJATLAR VA METODOLOGIK AHAMIYATGA MOYIL ISHLAR

1.1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining « Milliy turizm to'g'risida»gi Qonuni//«Xalq so'zi» gazetasi, 1999 y.

2. O'zbekiston Respublikasining Tadbirkorlik to'g'risida gi Qonuni. 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan.

3 O'zbekiston Respublikasining Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida gi Qonuni. 2000 yil 25 mayda qabul qilingan. 2012 yilda yangi tahriri qabul qilingan.

4. O'zbekiston Respublikasining Xususiy korxona to'g'risida gi Qonuni. 2003 yil 11 dekabrda qabul qilingan.

5. O'zbekiston Respublikasining Elektron tijorat to'g'risida gi Qonuni. 2004 yil 29 aprelda qabul qilingan. 2015 yilda yangitahriri qabul qilingan.

6 O'zbekiston Respublikasining Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida gi Qonuni. 2012 yil 26 aprelda qabul qilingan.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Qarorlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 yanvardagi Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki ob'ektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida gi PF-4933-sonli Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlarstrategiyasi to'g'risida gi PF-4947-sonli Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevraldag'i Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili davlat dasturi to'g'risida gi PQ-1474-sonli Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 12 maydag‘i Tadbirkorlik sub’ektlarini tashkil etish va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida gi PQ-1529-sonli Qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 25 avgustdag‘i Byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati erkinligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida gi PQ-1604-sonli Qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 maydag‘i 2012-2016 yillarda O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida gi PQ-1754-sonli Qarori.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 17 apreldagi 2013-2016 yillarda qishloq joylarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida gi PQ-1957-sonli Qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 yanvardagi Aholiga transport xizmati ko‘rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida gi PQ-2724-sonli Qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 26 fevraldag‘i Respublikada tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida gi 85-sonli qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 26 fevraldag‘i 2016-2020 yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida gi 55-sonli qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 4 maydag‘i Qishloq joylardagi aholiga servis xizmati ko‘rsatishni yaxshilashga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida gi 139-sonli qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida gi PF-4947-sonli Farmonining 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar

strategiyasi ga bag‘ishlangan 1-ilovasi. //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasining ichki turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida gi Farmoni.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi ichki turizm ni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida Qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldaggi O‘zbekiston Respublikasi ichki turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘srimcha tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida gi Farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 fevraldaggi Kirish ichki turizm ini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida gi qarori,

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 fevraldaggi Milliy turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida gi qarori.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi O‘zbekiston Respublikasida milliy turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida gi farmoni.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 avgustdaggi O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida gi PF-5781-sonli farmoni

1.3. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning asarlari va ma’ruzalari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Miromonovich Mirziyoevning tarjimai holi va dasturi. –T.: O‘zbekiston NMIU, 2016. – 88 bet.

2. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: O‘zbekiston NMIU, 24.01.2020. – 80 b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 fevraldag‘i Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida gi PQ-3514-sonli qarori

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 avgustdag‘i Oilaviy mehmon uylari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida 631-sonli qarori

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 10 oktabridagi Davlat o‘rmon xo‘jaligi organlarining faoliyatini takomillashtirish va o‘rmon xo‘jaliklarining chegara hududlari tabiiy resurslaridan foydalanish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida gi 717-sonli qarori

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 24 noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasida mehmonxona biznesini jadal rivojlantirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida gi 954-sonli qarori

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 3 dekabrdagi Ekoturizmni rivojlantirish va suv omborlarining suvni muhofaza qilish zonalari doirasida yer uchastkalari ajratish tartibini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida gi 978-sonli qarori

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi Turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida gi PQ-4095-sonli qarori

9. Vazirlar Mahkamasining 1.03.2021 yildagi «Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 112-son qarori

10.

MONOGRAFIYA, ILMIY MAQOLA, PATENT, ILMIY TO‘PLAMLAR

1. Buylenko V.F. Milliy turizm uchebnik. Rostov: Feniks, 2008. – 411 s.
2. Birjakov M.B. Vvedenie v natsionalnyiy turizm . S.Pb.: Izdatelskiy Torgoviy Dom «Gerda», 2006 g.

3. Bogolyubov V.S., Orlovskaya V.P. Ekonomika natsionalnyi turizma . M.: Izdatelskiy sentr Akademiya , 2005. – 151 s.
4. Bogolyubov V.S. Ekonomika natsionalnyi turizma: uchebnoe posobie.– M.: Izdatelskiy sentr Akademiya , 2008. – 192 s.
5. Iyatov I. Restorannoe xozyaystvo v turisticheskoy sfere. Uchebnoe posobie - T.:TGEU, 1998.-s. 131.
6. Islomova R.A. Ekologik ichki turizm ni rivojlantirish muammolari. Monografiya. – T.: IQTISODIYOT nashriyoti, 2014. – 131 bet. – 8,2 b.t.
7. Kotler F., Bouen Dj., Meykenz Dj. Marketing. Gostepriimstvo. ichki turizm : Uchebnik dlya vuzov. Vtoroe izdanie. – M.: uNITI – DANA, 2002. – 1063 s.
8. Kabushkin N.I. Menedjment ichki turizm a. Uchebnik. Mn. Novoe znanie , 2002. 409 s.-24,6 p.l.
9. Mamatkulov X.M., Bektemirov A.B., Tuxliev I.S., Norchaev A.N. Xalqaro ichki turizm . Darslik. T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati , 2009. – 192 b.
10. Mamatkulov X.M. ichki turizm va servisga oid izohli lug‘at. Qashqadaryo , SamISI, 2010. – 362 b.
11. Mamatkulov X.M. Xizmat ko‘rsatish sohasiga oid atamalar va iboralar izohli lug‘ati. – T.: Iqtisod va moliya nashriyoti, 2010. – 398 bet.
12. Mirzaev Q.J., Musaev B.Sh. Mehmonxona xo‘jaligi menejmenti. Qashqadaryo , SamISI, 2010. – 94 b.
13. Pardaev M.Q. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Qashqadaryo . SamISI, 2004.-92 bet.
14. Pardaev M.Q., Atabaev R.Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. Qashqadaryo , SamISI, 2006.-140 bet.
15. Pardaev M.Q., Atabaev R. ichki turizm asoslari. Qashqadaryo , SamISI, 2006.- 76 bet.
16. Pardaev M.Q., Atabaev R., Pardaev B.R. ichki turizm sohasini rivojlantirish imkoniyatlari. Risola. T.: ‘Fan va texnoloqiya’, 2007. – 28 b.

17. Pardaev M.Q., Tuxliev I.S. ichki turizm bozorining shakllanishi, rivojlanishi va o‘ziga xos xususiyatlari. – T.: NOSHIRLIK YoG‘DUSI nashriyoti, 2010.- 74 b.
18. Pardaev M.Q. va boshqalar. Turfirmalar moliyaviy xo‘jalik faoliyati tahlili. Ma’ruzalar kursi. Qashqadaryo , SamISI, 2011.-216 b.
19. Pardaev M.Q.,Raximov H.A. Turfirmalarda moliyaviy natijalar tahlili. – T.: Iqtisodiyot nashriyoti, 2012.-64 b.
20. Turaev B.X. Teoretiko – metodologicheskie osnovы razvitiya ichki turizm a. T.: izd. «Fan», 2008. – 166s.
21. ichki turizmi gostinichnoe xozyaystvo. Uchebnik / Pod red. prof., d.e.n. A.D. Chudnovskogo. – M.: Assotsiatsiya avtorov i izdateley «Tandem». Izdatelstvo EKMOS. 2001, – 400 s.
22. Tuxliev N., Abdullaeva T. Natsionalnye modeli razvitiya ichki turizm a. - T.: «O’zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2006.- 424 s.
23. Tuxliev N., Abdullaeva T. Menedjment i organizatsiya biznesa va ichki turizm ye Uzbekistana. T.: «O’zbekistonmilliyensiklopediyasi». 2006.- 368 s.
24. Tuxliev N., Abdullaeva T. Ekologicheskiy ichki turizm : sишност, tendensii i strotegiya razvitiya. T.: «O’zbekistonmilliyensiklopediyasi». 2006.- 416 s.
25. Tuxliev N.,Taksanova. Ekonomika bolshogo ichki turizm a. T.: «O’zbekiston milliy ensiklopediyasi». 2001.- 208 s.
26. Tuxliev N., Abdullaeva T. Uslugi, texnologii i produkty v ichki turizm ye.-T.: Gos. Nauch. Izd-vo O’zbekiston milliy ensiklopediyasi , 2009 – 624 s.
27. Tuxliev N., Abdullaeva T. Formalnosti va ichki turizm ye Respublikи Uzbekistan.-T.: Gos. Nauch. Izd-vo O’zbekiston milliy ensiklopediyasi , 2007 – 504 s.
28. Tuxliev N., Abdullaeva T. Osnovы bezopasnosti va ichki turizm ye.-T.: Gos. Nauch. Izd-vo O’zbekiston milliy ensiklopediyasi , 2008. - 504 c.
29. Tuxliev I.S., Pardaev M.Q. ichki turizm bozorining shakllanishi, rivojlanishi va o‘ziga xos xususiyatlari. – T.: NOSHIRLIK YOG‘DUSI ,2010. – 76 b. -4,6 b.t.

30. ichki turizm i gostinichnoe xozyaystvo : uchebnoe posobie. / pod red. L.P.Shmatko. Izd. 4-ye. – Rostov n/D: Feniks; Izdatelskiy sentr, MarT , 2010. – 352 s.
31. Uoker Dj. Vvedenie v gostoprimestvo: Uchebnik / per. s angl. M.: YuNITI, 1999.,
32. Urazov K.B., Xudayberdiev N.U. Turistik tashkilotlarda buxgalteriya hisobini tashkil qilish asoslari. Qashqadaryo , SamISI, 2007. – 46 b.
33. Urazov K.B., Xudayberdiev N.U. Xizmat ko'rsatish va servis sohasi korxonalarida buxgalteriya hisobining dolzarb muammolari. Servis jurnali. – 2009. № 1 – 107-114 betlar.
34. Urazov K.B. va boshqalar. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida buxgalteriya hisobi va auditning dolzarb masalalari. – T.: Iqtisodiyot nashriyoti. – 2011 – 260 bet.
35. Usmonov M.R.O'zbekistonda ichki turizm ni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari (Qashqadaryo viloyati misolida). Geografiya fan. nomzodi dis. avtoreferati. – T.: O'zMU, 2003. – 25 b.,
36. ichki turizm xizmati va servis sohasini rivojlantirish yo'llari. T.: TDIU, 2007. – 38 bet.
37. O'zbekiston Respublikasining Reklama to'g'risida gi qonuniga sharh. T.: Sharq , 2008.
38. O'zbekistonda ichki turizm bozorini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari. Monografiya. /I.S.Tuxliev umumiy tahriri ostida. – T.: Iqtisodiyot , 2012. – 304 b.
39. Hoshimov M.A. O'zbekiston ekologik ichki turizmi. Monografiya. Zarafshon nashriyoti DK, 2009. – 220 b.

Dissertatsiya va avtoreferatlar

1. Ibadullaev N.E. Turistik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari (Qashqadaryo viloyati misolida). 08.00.05. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. Qashqadaryo , SamISI, 2010.- 24 b.

2. Ibragimov N.S. O'zbekistonda xalqaro milliy turizmni rivojlantirishda distinatsion menejment konsepsiyasini qo'llash. 08.00.05. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. SamISI, 2008.- 24 b.
3. Safarov B.Sh. Mintaqaviy milliy turizm xizmat bozorining iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.08.00.05. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. Qashqadaryo , SamISI, 2011. - 24 b.
4. Usmanova D.K. Osobennosti formirovaniya turistskogo produkta i perspektivnye napravleniya yego razvitiya. 08.00.05. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. Qashqadaryo , SamISI, 2009. - 24 b.
5. Xoliqulov A.N. Mehmonxonalarda servis sifati va samaradorligini oshirish imkoniyatlari. 08.00.05. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. Qashqadaryo , SamISI, 2010. - 24 b.
6. Aminova S. Special issue|: application of digital technologies in teaching exact and natural sciences. 2022.
7. Aminova S.Student of KSU.Impact of the destination in tourism sphere. Journal of advanced reserch and stability(JARS) 2023-pages.

Internet ma'lumotlari

1. <http://press-service.uz>.
2. www.moodle.samtuit.uz
3. www.stat.uz sayti
4. www.samarqand.uz
5. <http://cbu.uz>
6. www.xb.uz
7. [www.agrobank.uz.](http://www.agrobank.uz)
8. www.lex.uz
9. www.finans.uz
10. www.bank.uz
11. www.chamber.uz
12. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Usluga>
13. www.market-pages.ru

Illovalar

Кашкадар ёхудидай мавжуд жойлаптириш воситалари ва туристлар оқими тұғырысыда

Л	Худуд номи	Жойл аштир иш восит алари	Шундан						2019 йил давномидаташриф бүйргөн туристлар сони						Шундан					
			МЕХМОНХ ОНА	ОИЛГАЙ МЕХМОН УЙИ	ХОСТЕЛ	БОШКАЛАР	ЖАМИ	ШУНДАН	МАХАЛЛИЙ ТУРИСТЛAR (ҮЗӨӨДӨСЭ ТАШИРФ ӨҮҮРГӨСӨН) СОНИ	ХОРИЖИЙ ТУРИСТЛAR (ХУДУДА ТАШРИФ БҮҮРГӨН) СОНИ	ШУНДАН	ГУНАБ КОЛУВЧИИ	ЖАМИ	ШУНДАН	ГУНАБ КОЛУВЧИИ	ЖАМИ	ШУНДАН	ГУНАБ КОЛУВЧИИ	ЖАМИ	
1	2019	9 8 4 5 4 7 0 7 4 7 9 0 7 4 7 6 2	1 3 1 2 1 2 1 2 1 2 1 2 1 2 1 2 1 2	5 4 3 0 7 0 7 6 2	2 5 5 0 1	1073 5 0 1	201 5	226 3	90 3	1967 8	2 36 8 0	930 12	1 489 4	1435600 519650	1400000 50738 0	51910 0	14720 0	51910 0	14720 0	51910 0
2	2022	303 5 0 0	2 5 5 0 1	5 4 3 0 1	1073 5 0 1	201 5	226 3	90 3	1967 8	2 36 8 0	930 12	1 489 4	1435600 519650	1400000 50738 0	35600 0	35600 0	35600 0	35600 0	35600 0	35600 0
3	2023	370	3237 3237	6661 6661	46 46	141 141	246 246	108 108	235 235	7 7	32 32	472 472	118 118	1 269 5	659 6	1750000 610406	1600000 610406	12270 0	12270 0	12270 0